Premenopauzal davrda gipotalamus gonadotropin-rilizing gormonlar ishlab chiqarilishining kamayishi va bosqichma-bosqich to‘xtatilishini o‘z ichiga olgan xususiyatlarni namoyon qiladi. Bunday pasayish jinsiy gormonlarni nazorat qilishga qaratilgan gipofiz bezi faoliyatining susayishiga olib keladi. Gonadotropinlar konsentratsiyasi steroidlar sintezidagi almashinishlar tufayli ortadi. Ushbu jarayon mobaynida estronning ustunligi qayd etiladi, uning hosil bo‘lishi sutkasiga 40 mkg ga yetadi, shuni ta’kidlash lozimki, 98% hollarda estron androstenediondan sintezlanadi. Follikul stimullovchi gormon konsentratsiyasining ortishi menopauza boshlanishidan bir necha yil oldin aniqlanadi, luteinlovchi gormon konsentratsiyasi esa ancha keyinroq ortadi. Shuni ta’kidlash joizki, 30% androstendion tuxumdonlarda hosil bo‘ladi va bu davrda reproduktiv yoshga nisbatan progesteron shakllanishining sezilarli darajada pasayishi kuzatiladi; shuningdek, bu davrda testosteron shakllanishining pasayishi kuzatiladi, ammo bu holat estrogen darajasiga nisbatan kamroq seziladi [17].

Ko‘pchilik ayollarda perimenopauza davrida kalsiyning ichaklarda so‘rilishi pasayishi kuzatiladi. Ayrim mualliflarning fikriga ko‘ra, «... 78% ayollarda suyaklarning qayta tiklanishi buziladi, giperkalsiemiya va giperfosfatemiya esa erta menopauzal davrda aniqlanadi» [18].

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarning barchasi bizga o‘tish davri buzilishlari uchrash darajasining yuqoriligi umumiy holat va mehnatga layoqatlilikga salbiy ta’sir ko‘rsatishini isbotlashga imkon beradi, bu esa ushbu muammoning tibbiy va ijtimoiy ahamiyatini belgilaydi. Premenopauza qanday kechishining aniq markerlari mavjud emasligi va turli xil omillarning ta’siri, masalan, ruhiy stress, travmalar, infeksion patologiya va shunchaki ortiqcha zo‘riqishlar fiziologik klimaksning patologik holatga aylanishiga sabab bo‘ladi.

Zamonaviy tekshirish usullardan foydalangan holda keng qamrovli tekshiruvlar patologik menopauza xavfi markerlarini individuallashtirishga hamda bunday ayollarga differensiallashgan ixtisoslashtirilgan yordam berish imkonini yaratadi.

Adabiyotlar ro’yxati

1. Abramova, S.V. Vliyanie klimaktericheskogo sindroma na kachestvo jizni jenshin v postmenopauze / S.V. Abramova, I.A. Alekseeva // Vestn. sovremennoy nauki. Meditsinskie nauki. - 2015. - № 5. - S. 157-160.

2. Balan V.Ye., Smetnik V.P., Ankirskaya A.S. i soavt Urogenitalnie rasstroystva v klimakterii. V kn. «Meditsina klimakteriya» pod red. Smetnik V.P. OOO «Izdatelstvo Litera» 2016; C. 217-90.

3. Shvars, G.Ya. Defitsit vitamina D i yego farmakologicheskaya korreksiya / G.Ya. Shvars // Russkiy meditsinskiy jurnal. - 2014. - № 7- S. 477.
4. Yureneva S.V. «Menopauza i klimaktericheskoe sostoyanie u jenshini,» Akusherstvo i ginekologiya., vol. 7, pp. 17-21, 2018.
5. Krasnikova, N. V. Komorbidnaya patologiya u jenshin v klimaktericheskom periode / N. V. Krasnikova, G. N. Shemetova // Problemi jenskogo zdorovya. - 2013. - Tom 8. - №2. - S. 31-35.
6. Vixlyaeva, Ye.M. Rukovodstvo po endokrinnoy ginekologii / Ye.M. Vixlyaeva //-M., 2014. - S. 154.
7. Burger, H. G., Dudley, E. C., Cui, J., Dennerstein, L., Hopper, J. L. (2020). A prospective longitudinal study of serum testosterone dehydroepiandrosterone sulfate and sex hormone binding globulin levels through the menopause transition. The Journal of Clinical Endocrinology & Metabolism 85, 1088-1095.
8. Gileva V.V., Xammad Ye.V., Mursalov S.U. Patologicheskiy klimaks: rol v formirovanii polimorbidnosti //Sovremennie problemi nauki i obrazovaniya. 2015. № 6. S. 96.
9. Grigoryan O.R., Andreeva Ye.N. Menopauzalniy sindrom u jenshin s narusheniyami uglevodnogo obmena. Nauchno-prakticheskoe rukovodstvo (2-ye izd., dop.). M 2011; 60-69.
10. Grigoryan, O. R. Sostoyanie uglevodnogo obmena u jenshin v period menopauzi / O. R. Grigoryan, Ye. N. Andreeva // Saxarniy diabet. - 2019. - № 4. - C. 15-20.
11. Wacker, M. Vitamin D Effects on Skeletal and Extraskeletal Health and the Need for Supplementation/M. Wacker, M.F. Holick // Nutrients. - 2013. - Vol. 5.- P.111-48.
12. Ilovayskaya I.A., Voytashevskiy K.V. Molodilnie yabloki XXI stoletiya. Menopauzalnaya gormonalnaya terapiya: vozmojnost i rHCKH//Status Praesens. 2015; 5: 80-86.
13. Kodensova, V.M. Fiziologicheskaya potrebnost i effektivnie dozi vitamina D dlya korreksii yego defitsita. Sovremennoe sostoyanie problemi / V.M. Kodensova, O.I. Mendel, S.A. Xotimchenko, A.K. Baturin, D.B. Nikityuk, V.A. Tutelyan // Vopr. Pitaniya. - 2017. - № 2. - S. 47-62.
14. Korreksiya klimaktericheskix rasstroystv u jenshin s izbitochnim vesom i ojireniem / Yu. P. Bogoslav, I. N. Sapojak, Ye. V. Zorkova [i dr.] // Mediko-sotsialnie problemi semi. - 2013. - T. 18. - № 1. - S. 83-85
15. Krasnikova, N. V. Komorbidnaya patologiya u jenshin v klimaktericheskom periode / N. V. Krasnikova, G. N. Shemetova // Problemi jenskogo zdorovya. - 2013. - Tom 8. - №2. - S. 31-35.
16. Krasnopolskiy, V. I. Novaya texnologiya protivoresidivnoy gormonalnoy terapii giperplasticheskix protsessov endometriya u jenshin pozdnego reproduktivnogo vozrasta / V.I. Krasnopolskiy, N.D. Gasparyan, L.S. Logutova, Ye.N. Kareva, O.S. Gorenkova, D.A. Tixonov // Lechashiy vrach.-2012.- 11.- s.12-16.;
17. Vixlyaeva, Ye.M. Rukovodstvo po endokrinnoy ginekologii / Ye.M. Vixlyaeva // M., 2014. - S. 154.
18. Krasnopolskiy, V. I. Novaya texnologiya protivoresidivnoy gormonalnoy terapii giperplasticheskix protsessov endometriya u jenshin pozdnego reproduktivnogo vozrasta / V.I. Krasnopolskiy, N.D. Gasparyan, L.S. Logutova, Ye.N. Kareva, O.S. Gorenkova, D.A. Tixonov // Lechashiy vrach.-2012.- 11.- s.12-16.
19. Kuznesova I.V., Uspenskaya Yu.B. Primenenie fitoestrogenov u jenshin v period menopauzalnogo perexoda i postmenopauze // Effektivnaya farmakoterapiya. //Endokrinologiya. 2013. №6 (55). S. 18-25.
20. Ledina, A.V. Ekstrakt rasteniya Cimicifuga racemosa alternativa gormonalnim preparatam v lechenii estrogendefitsitnix sostoyaniy / A.V. Ledina, M.B. Xamoshina, Ye.V. Ledin // Meditsinskiy sovet. 2017. - № 2.- C. 132-135.
21. Ledina, A.V. Ekstrakt rasteniya Cimicifuga racemosa alternativa gormonalnim preparatam v lechenii estrogendefitsitnix sostoyaniy / A.V. Ledina, M.B. Xamoshina, Ye.V. Ledin // Meditsinskiy sovet. 2017. - № 2. - S. 132-135.
22. Lesnyak O.M. Novaya paradigma v diagnostike i lechenii osteoporoza: prognozirovanie 10-letnego absolyutnogo riska pereloma (kalkulyator FRAXTM) // Osteoporoz i osteopatii. 2012. T. 15. № 1. S. 23-28.
23. Lesnyak O.M. Sotsialno-ekonomicheskoe bremya osteoporoza dlya Rossiyskoy Federatsii // Tezisi dokl. IV Rossiyskogo kongressa po osteoporozu. SPb., 2010. - S. 27.
24. Lopatina O.V., Balan V.Ye., Tkacheva O.N., Sharashkina N.V., Juravel A.S. Faktori jenskogo zdorovya s tochki zreniya stareniya reproduktivnoy sistemi i riska razvitiya serdechno-sosudisti zabolevaniy / Paleev F.H. // Almanax klinicheskoy meditsini. 2015 Mart; № 37: C. 111-117.
25. Madyanov I.V., Madyanova T.S. Sposobstvuet li menopauzalnaya gormonalnaya terapiya naboru massi tela? (po rekomendatsiyam IMS 2016 goda po zdorovyu jenshin zrelogo vozrasta i menopauzalnoy gormonalnoy terapii).// Zdravooxranenie Chuvashii. 2017; 2 (51): 89-95.
26. Malseva, L.I. Obespechennost vitaminom D i korreksiya yego defitsita pri beremennosti / L.I. Malseva, E.N. Vasileva, T.G. Denisova, L.I. Gerasimova // Prakticheskaya meditsina. -2017. - № 5(106). - S. 18-21.
27. Menopauzalnaya gormonoterapiya i soxranenie zdorovya jenshin zrelogo vozrasta. // Klinicheskie rekomendatsii (Protokol lecheniya). Pismo Ministerstva zdravooxraneniya RF ot 02.10.2015 g. № 15-4/10/2-5804.
28. Menopauzalnaya gormonoterapiya i soxranenie zdorovya jenshin zrelogo vozrasta: klin, rekomendatsii (protokoli) Ministerstvo zdravooxraneniya RF; sost. V. P. Smetnik, G. T. Suxix, Ye. N. Andreeva i dr. - M., 2014. - S. 13-14.
29. Menopauzalnaya gormonoterapiya i soxranenie zdorovya jenshin zrelogo vozrasta. Klinicheskie rekomendatsii (Protokol lecheniya) - Moskva. - 2015. - C. 20-30.
30. Moxort T.V. Klimaktericheskiy sindrom i menopauzalnaya zamestitelnaya terapiya chto izmenilos? //Zdravooxranenie (Minsk). 2016. № I. S. 30- 36.

ISSN: 2181-0990
www.tadqiqot.uz
JOURNAL OF REPRODUCTIVE HEALTH AND URO-NEPHROLOGY RESEARCH
ЖУРНАЛ РЕПРОДУКТИВНОГО ЗДОРОВЬЯ И УРО-НЕФРОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

UDK 618.5: 618.18-001

Bazarova Zarina Zafarovna
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Samarqand, O'zbekiston

TUG'RUQDA ORALIQ SHIKASTLANISHLARINING SABABLARI, TARQALISHI VA ASORATI TAHLILI (ADABIYOTLAR TAHLILI)

For citation: Bazarova Zarina Zafarovna, Analysis of the causes, prevalence and complications of perineal injuries during childbirth, Journal of reproductive health and uro-nephrology research 2025, vol. 6, issue 2, pp

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15478233

Базарова Зарина Зафаровна
Самаркандский государственный
медицинский университет
Самарканд, Узбекистан

АНАЛИЗ ПРИЧИН, РАСПРОСТРАНЕННОСТИ И ОСЛОЖНЕНИЙ ТРАВМ ПРОМЕЖНОСТЕЙ ВО ВРЕМЯ РОДОВ (ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ)

Bazarova Zarina Zafarovna
Samarkand State Medical University
Samarkand, Uzbekistan

ANALYSIS OF THE CAUSES, PREVALENCE AND COMPLICATIONS OF PERINEAL INJURIES DURING CHILDBIRTH (LITERATURE REVIEW)

Tos bo'shlig'i ko'p darajali tuzilishga ega va jinsiy a'zolarning tayanch apparatini tashkil etuvchi mushak, boylam va biriktiruvchi to'qimalarning turli birikmalaridan iborat [7]. Tos bo'shlig'ining birinchi qatlami kardinal-bachadon boylamlari va puboservikal fastsiya bilan ifodalanadi. Ularning asosiy vazifasi bachadon bo'yni va qin gumbazlari tos va dumg'azaning lateral devorlariga mahkamlashdir. Agar ushbu darajadagi nuqson paydo bo'lsa, jinsiy a'zolarning prolapsi oldingi qin devorning yuqori uchdan bir qismining tushishi sifatida namoyon bo'ladi [10].

Tos bo'shlig'ining birinchi qatlamidagi nuqsonlarning eng keng tarqalgan sababi bu tabiiy yo'llar orqali tug'ruqdir [1, 3, 7, 11]. Tug'ruqning ikkinchi bosqichida homila boshining uzoq vaqt davomida haddan tashqari ta'siri natijasida bachadon bo'yni fastsiya halqasidan sakroservikal va rektovaginal fastsiyaning ajralishi tufayli ko'ndalang nuqsonlar paydo bo'ladi. Pay markazining fastsiyasi, pubouretral va periuretral fastsiya pubouretral va uretropelvik boylamlar bilan birgalikda tos bo'shlig'ining ikkinchi darajasini tashkil qiladi. Ushbu kompleks levator ani mushagi bilan birgalikda qinning o'rta uchdan bir qismini tos bo'shlig'ining lateral devorlariga mahkamlaydi [1]. Ushbu darajadagi nuqsonlarning paydo bo'lishi puboservikal fastsiyaning lateral qirrasining qinning lateral devoridan pay yoyi darajasida ajralishi tufayli sistoseli va uretroselining shakllanishiga olib keladi. Uretrosele puboservikal fastsiyaning medial qirrasi simfiz ostidagi urogenital diafragmadan yirtilganda paydo bo'ladi. Rektovaginal to'siqning to'liq yirtilishida medial rekto- va enterosele hosil bo'ladi [6, 12].

Tos bo'shlig'ining uchinchi qatlami tashqi uretral boylam, urogenital va anal diafragma kiradi. Ushbu biriktiruvchi to'qima tuzilmalari qinning pastki qismini mustahkamlaydi. Ushbu darajadagi yorilish yoki nuqson bo'lsa, distal rektosele va / yoki stressli siydik tutolmaslik paydo bo'ladi [6, 7].

Oraliq sohasi shikastlanishi patogenezi to'liq tushunilmagan. Umuman olganda, zarar venoz chigalining siqilishi va qon aylanishining buzilishi natijasida boshlanadi, ya'ni venoz dimlanish patogenezning dastlabki bosqichiga aylanadi. Klinik jihatdan har qanday oraliq sohasi yirtilishi terining shishishi bilan boshlanadi (qonning suyuq qismini tomirlardan to'qimalarga haydash). Bundan tashqari, arteriyalar va tomirlarning siqilishi tufayli to'qimalarda metabolik jarayonlar buziladi. Natijada to'qimalarning elastik va himoya xossalari pasayadi, ular mustahkamligi va cho'ziluvchanligini yo'qotadi [3, 9].

Akusherlikda oraliq sohasi shikastlanishlari sabablari odatda mexanik va gistopatikga bo'linadi. Oraqli sohasi shikastlanishining mexanik sabablari orasida oraliq sohasi to'qimalarining haddan tashqari cho'zilishi kiradi: katta vaznli homilaning tug'ilishi, homila boshining no'to'g'ri joylashishi, tug'ruqning ikkinchi davrining cho'zilishi, jadal va tez tug'ruq [1, 7].

Tug'ruq paytida oraliq sohasi yirtilishining gistopatik sabablari, aksincha, oraliq sohasi to'qimalarining cho'zilishi va homilaning paydo bo'lgan qismiga moslashish qobiliyatining pasayishi bilan bog'liq [22, 50]. Bu tug'ruq kanalining yumshoq to'qimalari trofizmining buzilishi, genital tizimning yallig'lanish kasalliklari tufayli elastiklikning yo'qolishi va epiziotomiya yoki boshqa jarrohlik aralashuvlardan so'ng to'qimalarda chandiqli o'zgarishlar bilan bog'liq.

Tug'ruq paytida oraliq sohasi shikastlanishi - kamayish belgilarini ko'rsatmaydigan dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Turli manbalarga ko'ra, umumiy populyatsiyada tug'ruqdagi oraliq sohasi shikastlanishi darajasi 6,25 dan 85,0% gacha yetadi va ko'plab asoratlarga olib keladi [1, 3, 11, 33]. Bundan tashqari, birinchi marta tug'uvchi va qayta tug'uvchi ayollarda tarqalish sezilarli darajada farq qiladi, mos ravishda 1,4 dan 80,0% gacha va 0,4 dan 54,0% gacha [24, 34].

Tug'ruq paytida yumshoq to'qimalardan iborat tug'ruq kanalining shikastlanishi muammosi nafaqat anatomik shikastlanishni o'z ichiga oladi, balki u ancha kengroqdir, chunki etiologiya, xavf omillari, patogenez va hatto tashxis mezonlari bo'yicha ham yagona xulosa mavjud emas.

Zarar chuqurligiga qarab, barcha oraliq sohasi shikastlanishlari odatda to'rt darajaga bo'linadi [1]:

1-darajali - qinning pastki uchdan bir qismi, pastki komissura va oraliq sohasi terisining yaxlitligi 2 sm dan oshmay shikastlanadi (oraliq sohasi mushaklari shikastlanmagan holda)

2-darajali - qinning orqa devori, pastki komissura, oraliq sohasi terisi va tos bo'shlig'i mushaklarining yaxlitligi buzilishi bilan kechadigan shikastlanish

3-daraja - qinning orqa devori, pastki komissura, oraliq sohasi terisi va tos bo'shlig'i mushaklarining yaxlitligi buzilishi hamda, to'g'ri ichakning tashqi sfinkteri yorilishi kuzatiladi.

4-darajali - yuqorida ko'rsatilgan tuzilmalarning shikastlanishiga qo'shimcha ravishda, to'g'ri ichakning old devorining yorilishi paydo bo'ladi.

Bu tasnif, bir qator qarama-qarshiliklarga ega. Birinchidan, tug'ruq paytida homila boshining oldinga siljishi ichkaridan amalga oshiriladi. Shuning uchun teridan shikastlanadigan birinchi darajali yorilish chalkashlikka olib keladi, chunki yoriqlar tashqi tomondan ichkariga o'tadi. Ikkinchidan, to'rtinchi darajali oraliq sohasi yorilishi to'g'ri ichak devorining shikastlanishini o'z ichiga oladi. Ammo oraliq sohasi faqat m.sphincter ani dan iborat ekanligini tushunish uchun tos bo'shlig'ining anatomiyasini yuzaki bilish ham yetarli, ya'ni to'g'ri ichak devorining shikastlanishi uchinchi darajali oraliq sohasi yorilishining asoratlari sifatida alohida tashxis sifatida qaralishi kerak.

Birinchi darajali yorilishlar birinchi marta tug'uvchi ayollarning 76,7 foizida va qayta tug'uvchi ayollarning 43,1 foizida, ikkinchi darajali yorilish birinchi marta tug'uvchi ayollarning 33,5 foizida va qayta tug'uvchi ayollarning 13,0 foizida uchraydi. Uchinchi darajali yorilish holatlari birinchi marta tug'uvchi ayollarda 6,0% va qayta tug'uvchi ayollarda 1,0% ni tashkil qiladi [26, 27].

Oraliq sohasi shikastlanishi uchun xavf omillari bo'yicha mavjud fikrlar juda xilma-xil bo'lib, ular orasida: onaning yoshi, pariteti, tug'ruq paytida onaning holati, tug'ruqning ikkinchi bosqichining davomiyligi, homila boshining noto'g'ri joylashishi ko'rinishlari, homila tana vazni, homilaning bosh aylanasi, dasturlashtirilgan tug'ruq, oksitotsin bilan tug'ruqni jadallashtirish, operativ tug'ruq [3, 41, 50].

Oraliq sohasining yorilishi uchun yaxshi o'rganilgan va shubhasiz xavf omili onaning pariteti, ya'ni birinchi tug'ilishdir. Oraliq sohasining shikastlanishi birinchi marta tug'uvchi ayollarda qayta tug'uvchi ayollarga qaraganda ikki baravar ko'proq uchraydi va bu ko'plab tadqiqotlarda o'z aksini topgan [42, 49]. Losdyck A. va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqot (2024) tug'ruq paytida oraliq sohasining shikastlanishi xavfi onaning yoshi (35 yoshdan yuqori) va homiladorlik davri (40 haftadan ortiq) bilan sezilarli darajada oshishini tasdiqlandi [45]. Shuningdek, ko'pgina mualliflarning ta'kidlashicha, oraliq sohasining shikastlanishi chastotasi ikkinchi davrning davomiyligi 60 daqiqadan ko'proq, homila boshi aylanasi 35 sm dan ortiq va homila boshining noto'g'ri (yozilgan) joylashishi bilan ortadi [36, 44, 59].

Borrman M. va hammualiflar (2020) [25] oraliq sohasining shikastlanishi uchun yana bir mustaqil xavf omili homila vazni ekanligini tasdiqlashdi. Og'irligi 4000 g dan ortiq bo'lgan chaqaloqni tug'gan ayollar, undan kichikroq chaqaloqlarni tug'gan ayollarga qaraganda, oraliq sohasining shikastlanishi ehtimoli deyarli ikki baravar ko'pligi aniqlangan. Yana bir ziddiyatli xavf omili - bu tug'ruq paytida onaning holati. Wu J. va hammualliflardan olingan ma'lumotlar (2021) [62], shuni ko'rsatadiki tug'ruqning ikkinchi bosqichida onaning tik holati oraliq sohasining shikastlanishi holatlarini kamaytirmasligini ko'rsatdi. Ramar C. va boshqalar ham xuddi shunday xulosaga kelishdi (2024) [89].

Abntunes B. va boshqalar tomonidan o'tkazilgan tadqiqot (2020) [14] vertikal holatda tug'ruq uchinchi va to'rtinchi darajali oraliq sohasining yorilishi ko'payishini ko'rsatdi, lekin ikkinchi darajali yorilishlar hollarini sezilarli darajada kamaytirdi. Bir qator tadqiqotlar biosenoz buzilishining tug'ruq paytida oraliq sohasi shikastlanishiga ta'sirini o'rganib chiqdi. Homiladorlik davrida qin disbiozi sezilarli klinik ko'rinishlar va shikoyatlarsiz sodir bo'ladi, ammo tos bo'shlig'ining elastik xususiyatlarida sezilarli o'zgarishlarga olib kelishini ko'rsatishgan [37, 54-55].

Radzinskiy V.E va boshqalarning tadqiqotlariga ko'ra (2015), jinsiy a'zolar biosenozining buzilishi natijasida yuzaga keladigan oraliq sohasidagi shikastlanishlar disbioz bo'lmagan holatlarga qaraganda 32,2% ko'proq uchraydi. Bu, o'z navbatida, tug'ruq kanali yumshoq to'qimalarining yirtilishini oldini olish uchun jinsiy yo'llarning yallig'lanish kasalliklarini o'z vaqtida tashxislash va davolash zarurligini ko'rsatadi.

Akusherlik va ginekologiya bo'yicha amaldagi qo'llanmalarga ko'ra, qindagi yallig'lanish jarayonlari tug'ruq kanalining yumshoq to'qimalariga sezilarli darajada katta shikastlanishga olib keladi [1, 5, 6]. Turli xil tadqiqotlarning ilgari aytib o'tilgan xulosalari qaysi xavf omili tug'ruq paytida oraliq sohasi shikastlanishi rivojlanishining prognozchisi ekanligi haqidagi savolga aniq va to'g'ri javob bermaydi, bu esa o'z vaqtida bashorat qilish va oldini olishni murakkablashtiradi.

Bir qarashda, tug'ruq paytida oraliq sohasi shikastlanishini tashxisi oddiy ish kabi ko'rinishi mumkin. Har bir tabiiy tug'ruqdan keyingi erta davrda tug'ruq kanalining yumshoq to'qimalarini tekshirish zarurdir va bu aniq oraliq sohasi shikastlanishlarni aniqlash imkonini beradi. Biroq, tos bo'shlig'ining yashirin shikastlanishini aniqlash uchun batafsilroq tahlil qilish kerak. "Yashirin" oraliq sohasi shikastlanishlarning chastotasi anamnez ma'lumotlariga ko'ra bir marta tug'gan ayollarning 8,1-10,5% ga va qayta tug'uvchi ayollarda 22,8-31,9% ga yetadi [2, 27, 28, 43]. Bundan tashqari, bunday jarohatlarning tashxisi vizual diagnostika usullariga asoslangan - transperineal ultratovush va oraliq sohasi magnit-rezonans tomografiya (MRT) [44, 61]. Taithongchai A. va hammualliflari tadqiqotida aniqlangan sonografik tasvirga ko'ra (2020) [101], barcha bemorlarda oraliq sohasi shikastlanishi o'ziga xos ko'rinishga ega va orqa komissuraning chap yoki o'ng tomonida, anal halqasidan o'rtacha 3,1 sm masofada joylashgan. Toktar L.R. “yashirin” oraliq sohasi jarohatlarining barcha holatlarida shikastlanish shakli chiziqli bo‘lmaganligini, u yoysimon qiyshiq medianali deformatsiyalangan uchburchak, ya’ni “tungi qalpoq” ko‘rinishida ekanligini o'z ishlarida ko‘rsatdi [9].

Oraliq sohasi uchun MRT diagnostikasi usuli mashhur bo'lib bormoqda. Bir qator mualliflar tug'ruqdan keyingi oraliq sohasi shikastlanishini to'g'ri va aniq baholash uchun ishonchli vosita sifatida magnit-rezonansli defekografiya (defekatsiya paytida tos bo'shlig'ining dinamik vizualizatsiyasi) haqida ma'lumotlar keltirishmoqda [15]. Ammo uning yuqori narxi tufayli u transperineal ultratovushdan sezilarli darajada kam ishlatiladi. O'Leary B. va hammualliflari tomonidan olib borilgan tadqiqotda (2023) [51], oraliq sohasining MRT asosida yashirin perineal travma holatlarining uchdan bir qismi asimptomatik tos bo'shligi mushaklarining yetishmovchiligi bilan xastalangan bemorlarda tug'ruqdan keyingi kech davrda tashxis qo'yilganligini aniqlashgan. Flores-DelaTorre M. va hammualliflari (2021) ta'kidlashicha, tos bo'shlig'ining MRT tos bo'shlig'i disfunksiyasini ko'rsatishi mumkin, ammo to'liq diagnostika usuli emas [33]. Zararlangan oraliq sohasini to'liq tekshirish va yuqori sifatli tiklash kelajakda tos bo'shlig'ini saqlab qolishning kalitidir. Perineorafiya - maksimal ta'sirga erishish uchun bir qator xususiyatlarni o'z ichiga olishi kerak, jumladan chok materiali sifatida faqat sintetik so'rilishi mumkin iplardan foydalanish; shikastlangan mushaklarni ehtiyotkorlik bilan tekislash bilan yarani to'g'ri va o'z vaqtida tikish; yetarli darajada og'riqsizlantirish. Tug'ruq paytida oraliq sohasi shikastlanishining oldini olish masalasi juda munozarali bo'lib qolmoqda, chunki qaysi usullar eng samarali ekanligi haqida aniq fikr yo'q. Tug'ruq paytida oraliq sohasi yirtilishlarini oldini olish uchun ko'plab turli usullar ishlab chiqilgan. Masalan, oraliq sohasi shikastlanishining oldini olishda zamonaviy akusherlikda eng ko'p qo'llaniladigan usul sifatida

epiziotomiya katta rol o'ynaydi. "Epiziotomiya" atamasining o'zi tug'ruq paytida bola boshining o'z-o'zidan yorishi va travmatik miya shikastlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun oraliq va qinning orqa devorini kesishni anglatadi [1]. Turli mamlakatlarda epiziotomiyaning tarqalishi 10 dan 75% gacha ekanligi aniqlangan. Global ma'lumotlar epiziotomiya tarqalishida sezilarli o'zgaruvchanlikni ko'rsatadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tug'ruqning atigi 10 foizida oraliq sohasini jarrohlik yo'li bilan kesish kerak, deb ta'kidlaydi. Ammo bu yondashuv faqat oz sonli mamlakatlarda qo'llanilgan (Shvetsiya (6,6%), Islandiya (7,2%) va Daniya (4,9%)). Boshqa mamlakatlarda epiziotomiyaning quyidagi ko'rsatkichlari juda baland, masalan, Avstraliya (26,2%), Kanada (27,0%), AQSh (45,6%), Buyuk Britaniya (15,2%), Xitoy (75,5%), Tayvan (91,0%) [24, 29, 35, 64]. Rossiya Federatsiyasida oraliq sohasi disseksiyasi barcha tabiiy tug'ruqlarning 21,0-36,0 foizida amalga oshiriladi. O'zbekistomda esa aniq ko'rsatkichlar keltirilmagan, lekin kam sonli tadqiqotlar 25-40% atrofidagi ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu topilma epiziotomiyani amalga oshirish sabablarini qayta ko'rib chiqish va chuqurroq tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi. Epiziotomiyaning maqsadi homila boshining o'tishini osonlashtirish uchun qin teshigining diametrini oshirish va ideal holda qin yirtilishining oldini olishdir. Akusherlik holatiga qarab, epiziotomiya kesmalarining bir nechta turlari qo'llanilishi mumkin: o'rta, o'rta-lateral, lateral [35]. Ko'pgina mamlakatlarda "oltin" standart o'rta-lateral epiziotomiya hisoblanadi, ammo onaning oraliq sohasi shikastlanishining oldini olishda o'rta-lateral epiziotomiyaning himoya xususiyatlari haqida hali ham aniq fikr mavjud emas. Shmidt P. va hammualliflarining ma'lumotlariga ko'ra (2024) [55], o'rta-lateral epiziotomiya oraliq sohasi yorilishlarini kamaytiradi. Xu B. va hammualliflar tomonidan o'tkazilgan tadqiqot (2022) [63], aksincha, qarama-qarshi tendentsiyani ko'rsatib, o'rta-lateral epiziotomiyadan foydalanganda oraliq sohasi shikastlanishlarining ortishini, ayniqsa, uchinchi va to'rtinchi darajali oraliq sohasi yirtilishlarining sonining ko'payishini aniqlashgan edi. Epiziotomiyani yorilishlar oldini olishning odatiy usuli sifatida qo'llashning maqsadga muvofiqligi masalasi ham ochiq qolmoqda. Selektiv epiziotomiya qin va oraliq sohasi jarohatlarining 30,0% ga kamayishiga olib kelishi mumkin [64]. Optimal epiziotomiya ko'rsatkichi (10,0%) bilan uchinchi va to'rtinchi darajali oraliq sohasi yirtilishlarining past darajasi asoratlanmagan qin orqali tug'ruq uchun akusherlik yordamining tegishli sifatini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar sifatida ko'rib chiqish kerak [17, 35].

Profilaktik maqsadlarda epiziotomiya jarrohlik usuli bilan tug'ruqni tugatish paytida (vakuum ekstraktori yoki akusherlik qisqichlari yordamida), yelkachalar distotsiyasida, oraliq sohasining qo'pol chandiqli deformatsiyasida tavsiya etiladi [23, 38]. Aquino C. va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotda (2020) [17], tug'ruq vaqtida oraliq sohasini himoya qilishning profilaktik usullarining samaradorligini baholadi. Oraliq sohasi massaji va iliq kompresslarni qo'llash, shuningdek, oraliq sohasini himoya qilish uchun akusherlik yordamini ko'rsatish bilan jarohatlar sonini kamaytirishning ijobiy tendensiyasi qayd etildi. Goh Y. va boshqalar (2021) ta'kidlaganidek, perineal massaj uchinchi va to'rtinchi darajali oraliq sohasi yirtilishlari sonining kamayishiga, shuningdek epiziotomiyalar sonining kamayishiga yordam berdi. Tug'ruqning ikkinchi bosqichida oraliq sohasi massajining himoya xususiyatlari bir qator boshqa tadqiqotlarda ham qayd etilgan [13, 18, 19]. Tug'ruq ikkinchi bosqichining mexanizmi homila boshining tug'ilish kanali orqali bosqichma-bosqich, silliq va uzluksiz harakatlanishini o'z ichiga oladi. Tug'ruqning tabiiy mexanizmidan og'ish bo'lsa, turli og'irlikdagi oraliq sohasi shikastlanishlari va homila gipoksiyasi kabi asoratlar muqarrar bo'ladi. Homilaning boshi bilan kelishida klassik qo'l yordamini ko'rsatish ushbu asoratlar xavfini kamaytiradi. Bir qator mualliflar akusherlik klassik qo'l yordamidan oraliq sohasi jarohatlariga qarshi profilaktika chorasi sifatida samarali foydalanish haqida xabar berishadi [15, 48]. Pirs-Williams R. va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotda (2020) [53], qarama-qarshi ma'lumotlarni ko'rsatdi: ular tug'ruqni boshqarishning ikkita usulini solishtirdilar - perineal himoya yordami bilan "hands on»" va "hands off" yordamisiz, oraliq sohasi jarohatlar chastotasi "hands off (qo'llarsiz)" guruhida (24,0% ga nisbatan 45,0%) nisbatan sezilarli darajada past edi. "Kechiktirilgan kuchanchiqlar" texnikasi ham oraliq sohasi shikastlanishiga (OSSh) nisbatan himoya xususiyatlariga ega. Bir nechta tadqiqotlar "kechiktirilgan kuchanchiqlar" dan foydalanish bilan 3 va 4 darajali jarohatlarning sezilarli darajada kamayishini tasvirlab berdi.

OSSh ning asosiy oqibatlari tug'ruqdan keyin turli vaqtlarda sodir bo'ladi. Ular odatda tug'ruqdan keyin 1 yil ichida shakllanadigan "erta" va 15-20 yildan keyin shakllanadigan "uzoq" ga bo'linadi. OSShning asoratlari quyidagilardan iborat: tos bo'shlig'i mushaklarining yetishmovchiligi, siydik va najasni ushlab turolmaslik, dispareuniya, tos a'zolarining tushishi (TAT) [16, 21]. Tug'ruqdan bir yil o'tgach, OSShning ushbu asoratlari o'rtacha 7,0-10,0% ni tashkil qiladi, 15 yildan keyin tarqalish sezilarli darajada oshadi va 12,0 dan 59,0% gacha o'zgaradi [4, 58].

Epidemiologik tadqiqotlarga ko'ra, OSShning eng ko'p uchraydigan asoratlari tos bo'shlig'i mushaklari yetishmovchiligi va tos a'zolari tushishi hisoblanadi [29]. Åkervall S. va boshqalar tomonidan o'tkazilgan tadqiqot (2020) tug'magan va kesarcha kesish yo'li bilan tug'gan ayollarda simptomatik prolapsning tarqalishi nisbatan o'xshashligini va 40 yoshdan 64 yoshgacha bo'lgan ayollarda 5,0% dan kam ekanligini ko'rsatdi. Aksincha, tabiiy tug'ruqdan keyin ayollarda 65 yoshga to'lgunga qadar simptom beruvchi jinsiy a'zolarning prolapsi ko'paygan. Shunday qilib, 40-64 yoshdagi odamlarda tabiiy tug'ruqning salbiy ta'siri sifatida simptom beruvchi jinsiy a'zolar prolapsi ehtimoli kesarcha kesish yo'li bilan tug'ganlar bilan solishtirganda 12 baravar yuqori (13,4% ga nisbatan 1,1%) [16].

Oraliq sohasi yirtilishining keyingi keng tarqalgan asoratlari siydik tutolmaslik 25,0% holatlari OSSh bilan bog'liq [31, 39].

Von Aarburg N. va boshqalar (2021) homiladorlik davrida stressli siydik tutolmaslik epizodlari ham paydo bo'lishi mumkinligini ko'rsatishdi [60]. Tug'ruqdan keyin siydik tutolmaslikning tuzilishi quyidagicha: stressli siydik tutolmaslik - 44,9%, urgent siydik tutolmaslik - 38,2%, ayollarning 16,9 foizida aralash tipdagi siydik tutolmaslik holatlari kuzatiladi [60].

Anal sfinkterning akusherlik shikastlanishi bilan asoratlangan tabiiy tug'ruqdan keyin najasni ushlab turolmaslik xavfi ortadi. Tabiiy tug'ruqdan keyingi najasni ushlab turolmaslik uchun xavf omillari 35 yoshdan oshgan ona yoshi, 4000 gr dan ortiq bolaning vazni va instrumentlar qo'llanilgan tug'ruqdir [30, 50-52]. Sideris M. va boshqalar tomonidan o'tkazilgan tadqiqot (2020), tug'ruqdan keyingi dastlabki 12 oy ichida najasni ushlab turolmaslikning tarqalishi 13,0-19,0% ni tashkil qilganini aniqladi [58]. III va IV darajali oraliq sohasi yirtilishlari uzoq muddatli davrda tos bo'shlig'i mushaklari yetishmovchiligi va najasni ushlab turolmaslik xavfini deyarli 1,5 baravar oshiradi [16, 32].

Ayollarning 25,8 foizida tug'ruqdan keyingi jinsiy disfunksiya oraliq sohasi shikastlanishi bilan asoratlangan tug'ruqlarda kuzatiladi. Tabiiy tug'ruqdan keyin to'g'ri ichakni ko'taruvchi mushaklarning yirtilishi tug'ruqdan keyingi 6 oy ichida ayollarda jinsiy disfunksiyani sezilarli darajada oshiradi, hamda tug'ruqdan keyin 12 oy o'tgach, III-IV darajali yirtilish bo'lgan ayollarning yarmidan ko'pi dispareuniyadan aziyat chekishadi. Ushbu mushak yirtilishi bo'lgan ayollarda mushaklarning yirtilishi bo'lmagan ayollarga qaraganda, istak, qo'zg'alish, orgazm va qoniqish darajasi sezilarli darajada past bo'lgan [32, 34, 40].

Xulosa. Tos bo‘shlig‘i va oraliq sohasining shikastlanishlari tug‘ruq jarayonida keng tarqalgan muammo bo‘lib, ayollarning sog‘lig‘iga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Tos bo‘shlig‘i tuzilmalarining ko‘p qatlamli tuzilishi va tug‘ruq paytida homila boshining haddan tashqari bosimi natijasida yuzaga keladigan shikastlanishlar, ayniqsa birinchi marta tug‘uvchi ayollarda, ko‘plab asoratlarga olib keladi. Tos bo‘shlig‘ining birinchi, ikkinchi va uchinchi qatlamlaridagi shikastlanishlar jinsiy a’zolarning prolapsi, siydik tutolmaslik, najasni ushlab turolmaslik va jinsiy disfunksiya kabi jiddiy oqibatlarga sabab bo‘ladi.

Oraliq sohasining shikastlanishi mexanik va gistopatik sabablarga ko‘ra yuzaga keladi. Mexanik sabablar orasida homila vazni, tug‘ruqning ikkinchi bosqichining cho‘zilishi, homila boshining noto‘g‘ri joylashishi kabi omillar mavjud. Gistopatik sabablar esa oraliq sohasi to‘qimalari elastikligining pasayishi, yallig‘lanish kasalliklari va trofizmning buzilishi bilan bog‘liq.

Oraliq sohasining shikastlanishini oldini olish uchun epiziotomiya, oraliq sohasi massaji, iliq kompresslar va tug‘ruq paytida to‘g‘ri

akusherlik yordami ko‘rsatish kabi usullar qo‘llaniladi. Biroq, epiziotomiyaning samaradorligi va zarurligi haqida hali ham munozaralar mavjud. Ba’zi tadqiqotlar epiziotomiyani oraliq sohasining shikastlanishini kamaytirishda samarali deb hisoblasa, boshqalar esa uchinchi va to‘rtinchi darajali yorilishlar xavfini oshirishi mumkinligini ta’kidlaydi.

Tug‘ruqdan keyin oraliq sohasining shikastlanishi bilan bog‘liq asoratlar uzoq muddatli davrda tos bo‘shlig‘i mushaklarining yetishmovchiligi, siydik va najasni ushlab turolmaslik, jinsiy disfunksiya va tos a’zolarining tushishi kabi muammolarni keltirib chiqaradi. Bu asoratlar ayollarning hayot sifatini sezilarli darajada pasaytiradi va ularning jismoniy va psixologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shuning uchun, tug‘ruq paytida oraliq sohasining shikastlanishini oldini olish, shikastlanishlarni to‘g‘ri tashxislash va davolash, shuningdek, tug‘ruqdan keyin yuzaga keladigan asoratlarni minimallashtirish uchun samarali profilaktika va davolash usullarini ishlab chiqish zarur. Bu borada ko‘proq tadqiqotlar olib borish va klinik amaliyotda zamonaviy usullarni joriy etish orqali ayollarning sog‘lig‘ini yaxshilash mumkin.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Акушерская агрессия v. 2.0 / под ред. В. Е. Радзинского – М. : StatusPraesens, 2017. – 695 с.
2. Доброхотова, Ю. Э. Алгоритм ведения пациенток с дисфункцией тазового дна в послеродовом периоде / Ю. Э. Доброхотова, Т. С. Нагиева, И. Ю. Ильина // Акушерство и гинекология. – 2020. – № S6. – С. 28–31.
3. Жаркин, Н. А. Нейросетевое моделирование в прогнозировании и профилактике перинеальной травмы в родах / Н. А. Жаркин, П. М. Васильев, А. Е. Мирошников [и соавт.] // Акушерство и гинекология. Новости. Мнения. Обучение. – 2024. – Т. 12, № S. – С. 34–39.
4. Казанцев, А. А. Хирургическая коррекция опущения передней стенки влагалища и шейки матки при помощи сетчатых титановых имплантов / А. А. Казанцев, Л. С. Александров, А. И. Ищенко [и соавт.] // Вестник Российской академии медицинских наук. – 2020. – Т. 75, № 1. – С. 18–26.
5. Лологаева, М. С. Пролапс тазовых органов в XXI в. / М. С. Лологаева, М. Р. Оразов, Л. Р. Токтар [и соавт.] // Акушерство и гинекология: новости мнения, обучение. – 2019. – Т. 3, № 3. – С. 76–82.
6. Микробиота влагалища: возможности коррекции дисбиотических состояний: учебное пособие / Е.С. Ворошилова, Е.Э. Плотко, Д.И. Исламиди [и соавт.] // Екатеринбург: УГМУ, 2022. – 162 с.
7. Перинеология. Эстетическая гинекология / под ред. В. Е. Радзинского, М. Р. Оразова, Л. Р. Токтар [и соавт.] – М. : Редакция журнала Status Praesens, 2020. – 416 с.
8. Радзинский, В. Е. Профилактика дисбиоза вагинального биотопа после рассечения промежности в родах. / В. Е. Радзинский, И. М. Ордиянц, О. С. Побединская // Российский вестник акушера-гинеколога. – 2015. – Т. 15, № 6. – С. 100–103.
9. Токтар, Л. Р. Женская пролаптология: от патогенеза к эффективности профилактики и лечения / Л. Р. Токтар / Акушерство и гинекология: новости, мнения, обучение. – 2017. – № 3 (17) – С. 98–105.
10. Токтар, Л. Р. Ранняя диагностика интранатальных травм промежности как первый шаг к решению проблемы / Л. Р. Токтар // Status Praesens. – 2012. – Т. 5, № 11. – С. 61– 67.
11. Токтар, Л. Р. Травма промежности в родах и ее последствия / Л. Р. Токтар, М. Р., Оразов К. И. Ли [и соавт.] // Акушерство и гинекология: новости, мнения, обучение. – 2020. – Т. 8, № 3. – С. 94–99.
12. Щукина, Н. А. Способ хирургического лечения пациенток со средним и/или высоким ректоцеле / Н. А. Щукина, М. В. Мгелиашвили, С. Н. Буянова // Российский вестник акушера-гинеколога. – 2022. – Т. 22, № 5. – С. 87–91.
13. Abdelhakim, A. Antenatal perineal massage benefits in reducing perineal trauma and postpartum morbidities: a systematic review and meta-analysis of randomized controlled trials / A. Abdelhakim, E. Eldesouky, I. Elmagd [et al.] // Urogynecol J. – 2020. – Vol. 31, № 9. – P. 1735–1745.
14. Abntunes, B. Upright positions in childbirth and the prevention of perineal lacerations: a systematic review and meta-analysis / B. Abntunes, B. Rocha, C. Zamberlan [et al] // Rev Esc Enferm USP. – 2020. – Vol.54. - e03610
15. Aboseif, C. Pelvic Organ Prolapse / C. Aboseif, P. Liu. – Treasure Island (FL): StatPearls Publishing, 2020. – PMID: 33085376.
16. Åkervall, S. Symptomatic pelvic organ prolapse in middle-aged women: a national matched cohort study on the influence of childbirth / S. Åkervall, J. Al-Mukhtar Othman, M. Gyhagen [et al.] // Am. J. Obstet. Gynecol. – 2020. – Vol. 222, № 4. – P. 356.
17. Aquino, C. Perineal massage during labor: a systematic review and meta-analysis of randomized controlled trials / C. Aquino, M. Guida, G. Saccone [et al.] // J. Matern. Fetal. Neonatal. Med. – 2020. – Vol. 33, № 6. – P. 1051–1063.
18. Arnold, M. Obstetric Lacerations: Prevention and Repair / M. Arnold, K. Sadler, K. Leli // Am. Fam. Physician. – 2021. – Vol. 103, № 12. – P. 745–752.
19. Azarkish, F. Effect of lubricant gel on the length of the first stage of labour and perineal trauma in primiparous women / F. Azarkish, R. Janghorban, S. Bozorgzadeh [et al.] // J. Obstet. Gynaecol. – 2022. – Vol. 42. – P. 867–871.
20. Bączek, G. Spontaneous Perineal Trauma during Non-Operative Childbirth-Retrospective Analysis of Perineal Laceration Risk Factors / G. Bączek, E. Rzońca, D. Sys [et al.] // Int. J. Environ. Res. Public. Health. – 2022. – Vol. 23. – P. 7653.
21. Ballesteros, R. Repair of Traumatic Urethral Strictures: La Paz University Hospital Experience / R. Ballesteros, C. Toribio-Vázquez, E. Fernández-Pascual [et al.] // J. Clin. Med. – 2022. – Vol. 12, № 1. – P. 54.
22. Blomquist, J. Pelvic floor muscle strength and the incidence of pelvic floor disorders after vaginal and cesarean delivery / J. Blomquist, M. Carroll, A. Muñoz, V. Handa // Am. J. Obstet. Gynecol. – 2020. – Vol. 222, № 1. – P. 1– 62.
23. Borges, A. Pelvic floor dysfunction after vaginal delivery: MOODS-a prospective study / A. Borges, N. Sousa, R. Sarabando [et al.] // Int. Urogynecol. J. – 2022. – Vol. 33, № 6. – P. 1539–1547.
24. Bornstein, E. Risk factors associated with third- and fourth-degree perineal lacerations in singleton vaginal deliveries: a comprehensive United States population analysis 2016-2020 / E. Bornstein, S. Gobioff, E. Lenchner [et al] // J Perinat Med. – 2023. – Vol. 51(8). – P. 1006-1012.
25. Borrman, M. The effects of a severe perineal trauma prevention program in an Australian tertiary hospital: An observational study / M. Borrman, D. Davis, A. Porteous [et al.] // Women Birth. – 2020. – Vol. 33, № 4. – P. 371– 376.
26. Beck, C. Complications 8 weeks after an obstetric second-degree perineal laceration in relation to body mass index / C. Beck, M. Otterheim, M. Blomberg [et al.] // Int Urogynecol J. – 2024. – Vol. 35(1). – P. 77-84.
27. Berg, M. Follow-up of postpartum anal sphincter injuries / M. Berg, Y. Sahlin // Tidsskr. Nor. Laegeforen. – 2020. – PMID: 32026869.

28. Bellussi, F. Postpartum ultrasound for the diagnosis of obstetrical anal sphincter injury / F. Bellussi, H. Dietz // Am. J. Obstet. Gynecol .MFM. – 2021. – Vol. 3, № 3. – P. 100421.
29. Dieter, A. Pelvic Organ Prolapse: Controversies in Surgical Treatment / A. Dieter // Obstet. Gynecol. Clin. North Am. – 2021. – Vol. 48, № 3. – P. 437–448.
30. Diz-Teixeira, P. Update on Physiotherapy in Postpartum Urinary Incontinence / P. Diz-Teixeira, A. Alonso-Calvete, L. Justo-Cousiño [et al.] // Arch. Esp. Urol. – 2023. – Vol. 76, № 1. – P. 29–39.
31. Doumouchtsis, S. Patient-reported outcomes and outcome measures in childbirth perineal trauma research: a systematic review / S. Doumouchtsis, J. Loganathan, J. Fahmy [et al.] // Int. Urogynecol. J. – 2021. – Vol. 32, № 7. – P. 1695–1706.
32. Fatton, B. Pelvic organ prolapse and sexual function / B. Fatton, R. de Tayrac, V. Letouzey, S. Huberlant // Nat. Rev. Urol. – 2020. – Vol. 17, № 7. – P. 373–390.
33. Flores-DelaTorre, M. Magnetic resonance imaging to evaluate anterior pelvic prolapse: H line is the key / M. Flores-DelaTorre, K. Rechi-Sierra, F. Sánchez-Ballester [et al.] // Neurourol Urodyn. – 2021. – Vol. 40(4). – P. 1042-1047.
34. García-Mejido, J. Association between sexual dysfunction and avulsion of the levator ani muscle after instrumental vaginal delivery / J. García-Mejido, I. Idoia-Valero, I. Aguilar-Gálvez [et al.] // Acta. Obstet. Gynecol. Scand. – 2020. – Vol. 99, № 9. – P. 1246–1252.
35. Ghulmiyyah, L. Episiotomy: history, present and future – a review / L. Ghulmiyyah, S. Sinno, A. Nassar [et al.] // J. Matern. Fetal. Neonatal. Med. – 2022. – Vol. 35, № 7. – P. 1386–1391.
36. Gondim, E. Women know about perineal trauma risk but do not know how to prevent it: Knowledge, attitude, and practice / E. Gondim, M. Moreira, P. de Aquino [et al.] // Int. J. Gynaecol. Obstet. – 2023. – Vol. 161, № 2. – P. 470–477.
37. Gupta, S. Crosstalk between Vaginal Microbiome and Female Health: A review / S. Gupta, V. Kakkar, I. Bhushan // Microb. Pathog. – 2019. – Vol. 136. – P. 103696.
38. Hagen, S. Urinary incontinence, faecal incontinence and pelvic organ prolapse symptoms 20–26 years after childbirth: A longitudinal cohort study / S. Hagen, C. Sellers, A. Elders [et al.] // BJOG. – 2024. – PMID: 39079703
39. Höder, A. Pelvic floor muscle training with biofeedback or feedback from a physiotherapist for urinary and anal incontinence after childbirth – a systematic review / A. Höder, J. Stenbeck, M. Fernando, E. Lange // BMC Womens Health. – 2023. – Vol. 23, № 1. – P. 618.
40. Jurczuk, M. OASI2: a cluster randomised hybrid evaluation of strategies for sustainable implementation of the Obstetric Anal Sphincter Injury Care Bundle in maternity units in Great Britain / M. Jurczuk, P. Bidwell, D. Martinez [et al.] // Implement. Sci. – 2021. – Vol. 16, № 1. – P. 55.
41. Karaca, S. Obstetric Perineal Tears in Pregnant Adolescents and the Influencing Factors / S. Karaca, M. Adıyeke, A. İleri [et al.] // J. Pediatr. Adolesc. Gynecol. – 2022. – Vol. 35, № 3. – P. 323–328.
42. Klokk, R. Modifiable and non-modifiable risk factors for obstetric anal sphincter injury in a Norwegian Region: a case-control study / R. Klokk, K. Bakken, T. Markestad [et al.] // BMC Pregnancy Childbirth. – 2022. – Vol. 22, № 1. – P. 277.
43. Leombroni, M. Post-partum pelvic floor dysfunction assessed on 3D rotational ultrasound: a prospective study on women with first- and second-degree perineal tears and episiotomy / M. Leombroni, D. Buca, M. Liberati [et al.] // J. Matern. Fetal. Neonatal. Med. – 2021. – Vol. 34, № 3. – P. 445–455.
44. Lever, G. Perineal Outcomes After Delivery in 179 Mothers with Inflammatory Bowel Disease Compared to 31 258 Controls: A Single-Centre Cohort Study / G. Lever, H. Chipeta, T. Glanville [et al.] // J. Crohns. Colitis. – 2022. – Vol. 16, № 3. – P. 511–514.
45. Losdyck, A. Accouchement par voie basse et traumatisme périnéal: quand vient le temps de la reconstruction = Vaginal delivery and perineal trauma: it's time to repair / A. Losdyck, J. Meyer, G. Meurette [et al.] // Rev. Med. Suisse. – 2024. – Vol. 20, № 878. – P. 1145–1150.
46. Lucena da Silva, M. The effectiveness of interventions in the prevention of perineal trauma in parturients: A systematic review with meta-analysis / M. Lucena da Silva, T. Andressa Bastos Primo de Sousa Santos, L. Wane Carvalho Leite [et al.] // Eur. J. Obstet. Gynecol. Reprod. Biol. – 2023. – Vol. 283. – P. 100–111.
47. Marnn, G. Documenting Perineal and Obstetrical Anal Sphincter Injury Care at Childbirth: A Cross-Sectional Study / G. Marnn, N. Koenig, R. Geoffrion [et al]. // J. Obstet. Gynaecol. Can. – 2021. – Vol. 43, № 10. – P. 1164–1169.
48. Milka, W. Antenatal perineal massage – risk of perineal injuries, pain, urinary incontinence and dyspereunia – a systematic review / W. Milka, W. Paradowska, D. Kołomańska-Bogucka [et al.] // J. Gynecol. Obstet. Hum. Reprod. – 2023. – Vol. 52, № 8. – P. 102627.
49. Molyneux, R. The effects of perineal trauma on immediate self-reported birth experience in first-time mothers / R. Molyneux, G. Fowler, P. Slade // J. Psychosom. Obstet. Gynaecol. – 2022. – Vol. 43, № 2. – P. 228–234.
50. Moura, R. A biomechanical perspective on perineal injuries during childbirth / R. Moura, D. Oliveira, M. Parente [et al.] // Comput. Methods Programs Biomed. – 2024. – Vol. 243. – P. 107874.
51. O'Leary, B. Underdiagnosis of internal anal sphincter trauma following vaginal delivery / B. O'Leary, L. Kelly, M. Fitzpatrick [et al.] // Ultrasound Obstet Gynecol. – 2023. – Vol. 61, № 2. – P. 251–256.
52. Opondo, C. The relationship between perineal trauma and postpartum psychological outcomes: a secondary analysis of a population-based survey / C. Opondo, S. Harrison, J. Sanders [et al.] // BMC Pregnancy Childbirth. – 2023. – Vol. 23, № 1. – P. 639.
53. Pierce-Williams, R. Hands-on versus hands-off techniques for the prevention of perineal trauma during vaginal delivery: a systematic review and meta-analysis of randomized controlled trials / R. Pierce-Williams, G. Saccone, V. Berghella // J. Matern. Fetal. Neonatal. Med. – 2021. – Vol. 34, № 6. – P. 993–1001.
54. Ramar, C. Perineal Lacerations / C. Ramar, E. Vadakekut, W. Grimes // Int. Urogynecol. J. – 2024. – PMID: 32644494.
55. Schmidt, P. Repair of episiotomy and obstetrical perineal lacerations (first-fourth) / P. Schmidt, D. Fenner // Am. J. Obstet. Gynecol. – 2024. – Vol. 230, № 3S. – P. 1005–1013
56. Senkaya, A. How does the type of delivery affect pelvic floor structure? MRI parameter-based anatomical study / A. Senkaya, E. Ismailoglu, S. Ari [et al.] // Ginekol Pol. – 2023. – Vol. 94, № 1. – P. 57–63.
57. Shewarega, E. Prevalence of symptomatic pelvic organ prolapse and associated factors in Southern Nations, Nationalities, People's Region referral hospitals, Ethiopia / E. Shewarega, A. Geremew, E. Fentie // Int. Urogynecol. J. – 2023. – Vol. 34, № 1. – P.125–134.
58. Sideris, M. Risk of obstetric anal sphincter injuries (OASIS) and anal incontinence: A meta-analysis / M. Sideris, T. McCaughey, J. Hanrahan [et al.] // Eur. J. Obstet. Gynecol. Reprod. Biol. – 2020. – Vol. 252. – P. 303–312.

59. Taithongchai, A. The consequences of undiagnosed obstetric anal sphincter injuries (OASIS) following vaginal delivery / A. Taithongchai, S. Veiga, A. Sultan [et al.] // Int. Urogynecol. J. – 2020. – Vol. 31, № 3. – P. 635–641.

60. Von Aarburg, N. Physical activity and urinary incontinence during pregnancy and postpartum: A systematic review and meta-analysis / N. Von Aarburg, N. Veit-Rubin, M. Boulvain [et al.] // Eur. J. Obstet. Gynecol. Reprod. Biol. – 2021. – P. 262–268.

61. Wakefield, B. Accuracy of obstetric laceration diagnoses in the electronic medical record / B. Wakefield, S. Diko, R. Gilmer [et al.] // Int. Urogynecol. J. – 2021. – Vol. 32, №7. – P. 1907–1915.

62. Wu, J, Benefits and risks of upright positions during the second stage of labour: An overview of systematic reviews. J. Wu, Y. Zang, H. Lu [et al.] // Int J Nurs Stud. – 2021.- P. 114:103812.

63. Xu, B. Perineal stress as a predictor of performing episiotomy in primiparous women: a prospective observational study / B. Xu, Q Luo, Y. Lu [et al.] // BMC Pregnancy Childbirth – 2022. – Vol. 22, № 1. – P. 793.

64. Zaami, S. Episiotomy: a medicolegal vicious cycle / S. Zaami, E. Zupi, L. Lazzeri [et al.] // Panminerva. Med. – 2021. – Vol. 63, № 2. – P. 224–23

65. Goh, Y. Combined massage and warm compress to the perineum during active second stage of labor in nulliparas: A randomized trial / Y. Goh, P. Tan, J. Hong [et al.] // Int. J. Gynaecol. Obstet. – 2021. – Vol. 155, № 3. – P. 532–538.

ISSN: 2181-0990
www.tadqiqot.uz
JOURNAL OF REPRODUCTIVE HEALTH AND URO-NEPHROLOGY RESEARCH
ЖУРНАЛ РЕПРОДУКТИВНОГО ЗДОРОВЬЯ И УРО-НЕФРОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

UDK 616.74-007.23:616.61]-092

Gadaev Abdugaffor Gadayevich
t.f.d., professor
Toshkent Tibbiyot akademiyasi
Toshkent, O`zbekiston
Xusinova Shoira Akbarovna
t.f.n., dotsent
Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti
Samarqand, O`zbekiston
Suleymanova Nilyufar Ergashevna
Katta o'qituvchi
Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti
Samarqand, O`zbekiston

SURUNKALI BUYRAK KASALLIGIDA SARKOPENIYANING UCHRASHI VA UNING TURLI HOLATLARDA RIVOJLANISH MEXANIZMLARI (ADABIYOTLAR TAHLILI)

For citation: Gadaev Abdugaffor Gadayevich, Xusinova Shoira Akbarovna, Suleymanova Nilyufar Ergashevna, Frequency of sarcopenia in chronic kidney disease and mechanisms of its development in various conditions, Journal of reproductive health and uro-nephrology research 2025, vol. 6, issue 1, pp

https://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15478239

Гадаев Абдугаффор Гадаевич
д.м.н., профессор
Ташкентская медицинская академия
Ташкент, Узбекистан
Хусинова Шоира Акбаровна
к.м.н., доцент
Самаркандский государственный медицинский университет
Самарканд,Узбекистан
Сулейманова Нилюфар Эргашевна
Старший преподаватель
Самаркандский государственный медицинский университет
Самарканд,Узбекистан

ВСТРЕЧАЕМОСТЬ САРКОПЕНИИ ПРИ ХРОНИЧЕСКОЙ БОЛЕЗНИ ПОЧЕК И МЕХАНИЗМЫ ЕЕ РАЗВИТИЯ В РАЗЛИЧНЫХ СОСТОЯНИЯХ (ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ)

Gadaev Abdugaffor Gadayevich
Professor
Tashkent Medical Academy
Tashkent, Uzbekistan
Xusinova Shoira Akbarovna
docent
Samarkand State Medical University
Samarkand, Uzbekistan
Suleymanova Nilyufar Ergashevna
Assistent
Samarkand State Medical University
Samarkand, Uzbekistan

FREQUENCY OF SARCOPENIA IN CHRONIC KIDNEY DISEASE AND MECHANISMS OF ITS DEVELOPMENT IN VARIOUS CONDITIONS (LITERATURE REVIEW)

Surunkali buyrak kasalligi (SBK) XXI asr pandemiyasi ko‘rinishini olib, hayot sifatining keskin yomonlashishi va o‘limning asosiy sabablaridan biriga aylandi. Yer kurrasida, shu jumladan Respublikamizda, semiz va qandli diabetga uchragan bemorlar sonining tobora oshib borishi SBK bilan og‘rigan hastalarning ham ko‘payishiga olib kelmoqda. 2017 yilda dunyoda taxminan 843,6 million kishi bu og‘ir asoratdan aziyat chekkan [21]. Ba'zi ma'lumotlarga ko‘ra, buyrak yetishmovchiligining so‘nggi bosqichi (BESB) bilan og‘rigan bemorlarda o‘lim ko‘rsatkichi pasaygan bo‘lsa ham, Global Burden of Disease (GBD) tadqiqotlari SBK butun dunyo bo‘ylab o‘limning yetakchi sabablaridan biriga aylanganini ko‘rsatmoqda [14, 29].

2019 yilda chop etilgan boshqa bir maqolada dunyoda taxminan 850 million kishi SBK ga chalinganligi ko‘rsatilgan. Ularning aksariyati past va o‘rtachadan past daromadli mamlakatlarda istiqomat qiluvchi insonlardir. Bemorlarning katta qismi buyrak kasalligini aniqlash, oldini olish yoki davolash imkoniyatiga ega emas [21].

Afsuski, SBK tarqalishini dinamikada o‘rganadigan tadqiqotlar sezilarli darajada kam. Chunki bu bir xil aholi guruhini o‘xshash usullar yordamida qayta baholashni talab qiladi. Amerika Qo‘shma Shtatlarida kasalliklarni nazorat qilish va oldini olish markazlarida olib borilgan SBK kuzatish tizimi ma'lumotlariga ko‘ra, 1988-1994 yillarda SBK ning 1-4 bosqichlari tarqalishi 11,8% ni tashkil etgan bo‘lsa, 2015-2016 yillarga kelib bu ko‘rsatkich 14,2% gacha oshgan [5]. Milliy sog‘liq va ovqatlanish tekshiruvi ma'lumotlarini tahlil qilgan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, bu o‘sish chiziqli bo‘lmay, SBK 3-4 bosqichining tarqalishi 1990 yillardan 2000 yillargacha oshgan bo‘lsa ham, undan keyin barqaror holda qolganligi ko‘rsatilgan [23]. Norvegiyada ham 1995-2008 yillar oralig‘ida 1-5 bosqich SBK ning shunga o‘xshash barqaror tarqalishi qayd etilgan [18]. Ulardan farqli o‘laroq, Buyuk Britaniyaning milliy vakillik sog‘liq tekshiruvi ma'lumotlariga ko‘ra, 3-5 bosqichdagi SBK ning tarqalishi 7 yil ichida sezilarli darajada pasaygan. Ushbu tadqiqotda 2003 yilni 2009/2010 yil bilan taqqoslaganda hisoblangan koptokchalar filtratsiyasi tezligi (hKFT) 1 daqiqada 1,73 m2 tana sathiga 60 ml dan kam bo‘lishi uchun moslashtirilgan imkoniyatlar nisbati 0,73 ni (95% ishonch intervali (II), 0,57-0,93) tashkil etgan [1]. So‘nggi yillarda ayrim mamlakatlarda kuzatilayotgan SBK tarqalishining barqarorlashishi yoki yaxshilanish sabablari noaniqligicha qolmoqda. Bunday moyilliklar qandli diabet va semizlik kabi SBK ning keng tarqalgan xavf omillarining ko‘payishiga qaramay kuzatilmoqda. Lekin ushbu davrda arterial gipertenziyani nazorat qilish ijobiy tomonga o‘zgarganini ta'kidlash lozim [1].

Nashr etilgan tadqiqotlar natijalarini turli aholi guruhlari va turli davrlarda o‘tkazilgan tarqalishni baholash nuqtai nazaridan talqin qilish murakkab, chunki yosh, jins va irq kabi xususiyatlar kasallanish ko‘rsatkichlariga katta ta'sir ko‘rsatadi [17]. Shuningdek, tarqalish va omon qolish darajasidagi o‘zgarishlar yoki tashxis qo‘yilgan SBK ning uzoqroq davom etishi sababli farq qilishi mumkin (masalan, ob'ektiv skrining natijasida). SBK tarqalishining umumiy o‘zgarishlari bir necha omillarning birgalikdagi ta'siri natijasida yuzaga kelish ehtimoli mavjud.

Mushak massasining yo‘qotilishi SBK bilan og‘rigan bemorlarda, ayniqsa uning so‘nggi bosqichlarida keng tarqalgan asorat hisoblanadi [28]. Buning sabablari turli xil bo‘lib, kasallik pirovardida oqsil parchalanishining kuchayishi va uning sintezining pasayishiga olib keladi, natijada uning muvozanati salbiy tomonga buziladi [33]. Bu holat oqibatda uzoq vaqt davomida asosan to‘yib ovqatlanmaslik bilan bog‘liq deb hisoblangan oqsil-energiya tanqisligi deb ataladigan ovqatlanishning buzilishiga olib keladi [13]. OET yoki to‘yib ovqatlanmaslikdan tashqari, sarkopeniya va kaxeksiya atamalari ko‘pincha SBK da kuzatiladigan mushak massasining yo‘qotilishi bilan bog‘liq ovqatlanish buzilishlarini anglatadi. Ushbu holatlar umumiy mezonlar va klinik natijalarga ega. Sof to‘yib ovqatlanmaslik - bu energiya va ozuqa moddalarini yetarli darajada qabul qilmaslik natijasida tana vazni, mushak massasi va tana yog‘ining yo‘qotilishi, OET esa shunga o‘xshash mezonlarga ega, ammo qo‘shimcha etiologik omil sifatida past darajadagi yallig‘lanish bilan kechadi [13]. Sarkopeniya esa qarish bilan birga kuzatiladigan mushak massasi va kuchining yo‘qolishi sifatida tushuniladi.

Mushak yo‘qotilishi SBK da ko‘p uchraydigan holat bo‘lib, ayniqsa uning og‘ir bosqichlaridagi, shu jumladan gemodializ (GD) qabul qilayotgan BESB bilan og‘rigan bemorlarda kuzatiladi [28].

Shuningdek, umumiy aholidagi sarkopeniyaning ta'riflarini aniqlab olish muhimdir. Ushbu ta'riflar dastlab keksa yoshdagi insonlarda harakatchanlikni yo‘qotish xavfini va funksional holatning pasayishini bashorat qilish uchun ishlab chiqilgan. Biroq, keksa yoshdagilarning 92% da kamida bitta surunkali kasallik mavjudligini hisobga olgan holda, sarkopeniyani aniqlashda qarish va ularning birgalikdagi ta'sirini hisobga olish zarur [20]. SBK ko‘pincha “tezlashgan qarish” modeli deb ham ataladi [34]. Shu sababli sarkopeniyaning tarkibiy qismlari (past mushak massasi, kuchi va faoliyati) va nogironlik hamda o‘lim bilan bog‘liqlik natijalari o‘rtasidagi aloqa yo‘nalishi umumiy aholi bilan bir xil bo‘lishi mumkin. Shunga qaramay, ushbu bog‘liqliklarning darajasi, ehtimol, SBK da uning mushaklarga mustaqil ta'siri tufayli kuchliroq va yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Amalda, gemodializ olayotgan bemorlarda mushaklarning yo‘qotilishi yosh bemorlarda sodir bo‘ladi va unga mos keladigan nazorat guruhlariga nisbatan sezilarli darajada kuchliroq kechadi [25]. Shu sababli, hozirda umumiy aholida sarkopeniyani klinik jihatdan aniqlash uchun qo‘llaniladigan chegaraviy qiymatlar SBK, shu jumladan dializ olayotgan bemorlar uchun mos kelmasligi mumkin. Tana tarkibining past oziqaviy ko‘rsatkichi qanday ekanligini aniqlash vakillik populyasiyasida uning me'yoriy taqsimlanishiga bog‘liq.

Yuqorida aytilganidek, SBK bilan og‘rigan bemorlarda tezlashgan qarish fenotipi namoyon bo‘lganligi sababli, keksalarda kuzatilgan o‘zgarishlarga o‘xshab, mushak kuchi va faoliyatining pasayishi uning massasining yo‘qotilishi bilan namoyon bo‘ladi [16]. Zo‘rayib boruvchi SBK ning hayvon modelidan foydalangan holda o‘tkazilgan tadqiqotda, nazorat guruhi bilan taqqoslaganda, ushbu asorat mavjud kalamushlarning mushak massasi o‘zgarmagan bo‘lsa ham, uning faoliyati pasayganligi ko‘rsatilgan. Buning o‘rniga, mushaklar sifatining o‘zgarishi va uning tolalari atrofiyasining kuchayishi kuzatilgan [24]. Fahal va hammualliflar dializ bilan davolanayotgan bemorlarda mushak kuchsizligidagi o‘zgarishlarni o‘rganishgan [11]. Ular to‘rt boshli mushak kuchi va qisqarish xususiyatlarini tekshirish bilan birga, gemodializ va peritoneal dializ qabul qilayotgan bemorlar hamda sog‘lom nazorat guruhlarida mushak biopsiyasi yordamida tolalar turlarini miqdoriy baholaganlar. Unda dializ olayotgan bemorlarda mushak kuchi sog‘lom nazorat guruhidagilarga nisbatan pastligi va to‘yib ovqatlanmaganlarida yaxshi ovqatlanganlarga qaraganda quvvatsizroq bo‘lgani aniqlangan. Shuningdek, dializ va nazorat guruhi o‘rtasidagi eng sezilarli farq mushakning sekinroq bo‘shashishi hisoblanib, bu uning massasidan qat'iy nazar, kuchi va qisqarishiga salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Yuqoridagilar bilan bir qatorda dializ olayotgan bemorlarining 78% da mushak biopsiyalarida ba'zi morfologik o‘zgarishlar kuzatilgan, bunda I turdagi tolalar atrofiyasi bemorlarning 45% da va II turdagi tolalar atrofiyasi 40% da qayd etilgan. Bundan tashqari, to‘yib ovqatlanmagan dializ guruhida II turdagi tolalar maydoni yaxshi ovqatlangan guruhga nisbatan sezilarli darajada kichik bo‘lgan [11]. Ushbu natijalar mushak kuchining yagona belgilovchisi uning massasi emas, balki bo‘shashishi va atrofiyasi kabi boshqa omillar ham uning kuchini pastligini izohlashini tasdiqlaydi.

Darhaqiqat, tobora ko‘payib borayotgan dalillar SBK bosqichlari va sarkopeniya tarqalishi o‘rtasidagi ijobiy bog‘liqlikni ko‘rsatmoqda. Umuman olganda, SBK ning butun manzarasida sarkopeniyaning tarqalishi 4% dan 42% gacha kuzatiladi [6]. Avvalgi tadqiqotlarda dializ va buyrak transplantasiyasi o‘tkazgan bemorlarda sarkopeniyaning tarqalganligi haqida ma'lumot berilgan bo‘lsa ham, hozirgi kunda SBK aholisining butun qamrovini hisobga olgan holda uning tarqalishi haqida ishonchli ma'lumotlar mavjud emas [40]. Amaliyotga sarkopeniyaning og‘irlik darajasi tushunchasi ham kiritilgan bo‘lib, uning og‘ir shaklida barcha belgilari (ya'ni mushak kuchi, massasi va jismoniy faolligining pastligi) mavjudligi bilan tavsiflanadi [8]. SBK bilan og‘rigan bemorlarda sarkopeniya bilan bog‘liq belgilar va uning og‘ir kechishi kuzatiladigan holatlar soni klinik hamda ilmiy tadqiqotlar uchun qimmatli ma'lumot berar edi. Lekin qayd etilgan holatlar hali to‘liq o‘rganilmagan. Sarkopeniya va tananing ortiqcha yog‘liligining birgalikda kuzatilishi sarkopenik

semizlik deb ataladi. Bu holat turli aholi qatlamlari, shu jumladan SBK bilan og‘rigan bemorlar orasida sog‘liqni saqlashning muhim muammosi sifatida tan olingan [3]. Biroq, ushbu aholi guruhida ham sarkopenik semizlik kuzatiladigan bemorlar soni to‘g‘risida yetarli darajada ma'lumotlar mavjud emas.

Sarkopeniya hozirda kasallik sifatida qaralayotgani uchun, uning og‘irlik bosqichlarini aniqlash klinik natijalarga qanday ta'sir ko‘rsatishi mumkinligini tushunish uchun juda muhimdir [2]. SBK mavjud bo‘lmagan kattalarda o‘tkazilgan tizimli tahlil sarkopeniyaning global tarqalishi 10% dan 27% gacha, og‘ir sarkopeniya esa 2% dan 9% gacha o‘zgarib turishini ko‘rsatdi [26]. Marvery P. Duarte va hammualliflar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda sarkopeniya (1 dan 83% gacha) va uning og‘ir darajasi (1% dan 75% gacha) umumiy aholiga nisbatan biroz yuqoriroq tarqalganligi aniqlangan [10]. SBK da sarkopeniyaning tarqalishini umumlashtiruvchi tizimli sharhlar va meta-tahlillar kam uchraydi va asosan dializ olayotgan bemorlar hamda buyrak transplantasiyasi o‘tkazgan shaxslar bilan cheklangan. Wathanavasin va hammualliflar dializ olayotgan bemorlarda sarkopeniyaning umumiy tarqalishi 25,6% (95% II: 22,1 dan 29,4 gacha) ekanligini aniqlaganlar [37]. Bu ko‘rsatkich Marvery P. Duarte va hammualliflar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotdagi (27%, 95% II: 24 dan 31 gacha) hamda Shu va hammualliflarning kuzatuvidagi (29%, 95% II: 23 dan 34 gacha) dializ natijalari bilan o‘xshash [10, 31]. Zhang va hamkasblar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda buyrak transplantasiyasi amalga oshirilgan bemorlarda 26% (95% II: 20 dan 34 gacha) sarkopeniyaning umumiy tarqalishi kuzatilgan. Biroq, ko‘pchilik tadqiqotlarda sarkopeniyani faqat past mushak massasi nuqtai nazaridan tashxislangan. Shu o‘rinda bunday yondoshish hozircha ekspert guruhlari (sarkopeniya ta'rifi va natijalari konsorsiumi (SDOC), milliy sog‘liqni saqlash institutlari biomarkerlari konsorsiumi fondi sarkopeniya loyihasi (FNIH) va EWGSOP) tomonidan tavsiya etilmaydi [40]. Mualliflar mushak massasi va kuchi past yoki kamaygan jismoniy ko‘rsatkichlar birgalikda kelgan holatlardan foydalangan holda sarkopeniyani aniqlaydigan tadqiqotlar bo‘yicha qo‘shimcha tahlil o‘tkazganlar. Unda kuzatilgan tarqalish 21% (95% II: 15 dan 28 gacha) ni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich ushbu tadqiqotdagi buyrak transplantasiyasi o‘tkazgan bemorlar kichik guruhidagi natijaga (21%, 95% II: 14 dan 28 gacha) o‘xshash bo‘lgan.

Marvery P. Duarte va hammualliflar o‘z tadqiqotlarida dializ olayotgan bemorlarda og‘ir sarkopeniyaning sezilarli darajada yuqoriroq tarqalishini aniqlaganlar. Ushbu kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, garchi sarkopeniyaning tarqalishi dializ holatiga ko‘ra farq qilmasa ham, uning og‘ir shakli va u bilan bog‘liq oqibatlarning soni dializ olayotgan bemorlar orasida yuqoriroq ekanligi qayd etilgan [10]. Og‘ir sarkopeniya uning yengil shakliga nisbatan ancha yomon oqibatlar bilan bog‘liq [38]. Dializ jarayoni o‘zining oqsil parchalanishini rag‘batlantirishi va uning sinteziga salbiy ta'sir ko‘rsatishi, bu esa mushaklarning tezroq yo‘qotilishiga olib kelishi mumkinligi aniqlangan [36]. Shunday qilib, jismoniy ko‘rsatkichlarning pasayishi dializ olmayotgan bemorlarga nisbatan ertaroq sodir bo‘lishi mumkin. Bu dializ olayotgan bemorlarda sarkopeniyaning og‘irlik darajasini baholash uchun tez-tez nazorat tekshirishlari o‘tkazish zarurligini ko‘rsatadi, chunki bunday yondoshish davolash strategiyalarini erta boshlash imkonini beradi.

Yuqorida bayon qilinganidek, mushak kuchi, massasi va jismoniy faolligining pastligi sarkopeniya belgilari sifatida tan olingan. SBK bilan og‘rigan bemorlarning deyarli yarmida mushak kuchi past bo‘lib, faqat har to‘rtinchisida uning massasi kamligi aniqlangan. Mushak kuchining pastligi uning massasining kamligiga nisbatan ko‘proq salbiy oqibatlar bilan bog‘liqligi qayd etilgan. Past mushak kuchining yuqori darajada tarqalishi SBK bilan og‘rigan bemorlar uchun muhim klinik ahamiyatga ega [27]. Darhaqiqat, EWGSOP 2 sarkopeniyaning asosiy xususiyati deb past mushak kuchi belgilangan va asosiy omil sifatida kam mushak massasining o‘rnini egallaydi [8]. Dializdagi va dializsiz guruhlarni taqqoslash natijalari shuni ko‘rsatdiki, birinchi guruh bemorlarda past mushak kuchi ko‘proq aniqlanadi, mushak massasi va jismoniy faollik ko‘rsatkichlari esa farq qilmaydi. Bu ma'lumotlar dializdagi bemorlarda kuzatilayotgan surunkali katabolik holat sarkopeniyaning asosiy belgisi bo‘lgan mushak kuchiga salbiy ta'sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Shu bilan bir qatorda Marvery P. Duarte va hammualliflarining natijalaridan farqli o‘laroq, adabiyotlarda jinsni sarkopeniya bilan bog‘liq xususiyatlarga, jumladan, qo‘l panjalarining past kuchining og‘irligiga ta'sir qilishi mumkinligi ta'kidlanadi va uremik holatdagi erkaklarda ishtahaning yo‘qolishi, yallig‘lanish va keyinchalik tayanch-harakat tizimi muvozanatining buzilishiga moyillik kuchayishi mumkinligi taxmin qilinadi [10, 12]. Geografik mintaqalar solishtirilib o‘rganilganda, Osiyo va undan tashqari mamlakatlar o‘rtasida sezilarli farqlar aniqlanmagan. Garchi ovqatlanish odatlari va jismoniy faollik xulq-atvori kabi turmush tarzi omillari sarkopeniyaning muhim bashoratchilari bo‘lsa va mamlakatlar o‘rtasida farq qilsa ham, yuqoridagi mualliflarning natijalari SBK bo‘lmagan insonlarda sarkopeniyaning tarqalishini o‘rgangan oldingi tadqiqotlarga mos keladi [26].

O‘tkazilgan adabiyotlar taxlili sarkopeniya skriningini SBK klinik nazoratiga joriy etish zarurligini ko‘rsatadi. Buning uchun Respublikamizdagi nefrologiya bo‘limlaridagi gemodializ va buyrak ko‘chirib o‘tkazilgan bemorlarda qimmatbaho asbob-uskunalardan foydalanmasdan jismoniy faoliyatlarni o‘lchash imkoniyati mavjudligini inobatga olib, ularni kundalik klinik amaliyotga keng joriy etish lozim. Shuningdek, sarokpeniyani aniqlashda foydalaniladigan umume'tirof etilgan so‘rovnomalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, ushbu guruh bemorlarda sarkopeniyaga qarshi ta'sir ko‘rsatish imkoniyati bo‘lgan, jumladan, jismoniy mashqlar va yetarli kaloriya hamda oqsil iste'molini buyurish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aitken GR, Roderick PJ, Fraser S, et al. Change in prevalence of chronic kidney disease in England over time: comparison of nationally representative cross-sectional surveys from 2003 to 2010. BMJ Open. 2014;4:e005480.
2. Anker SD, Morley JE, von Haehling S. Welcome to the ICD-10 code for sarcopenia. J Cachexia Sarcopenia Muscle 2016;7: 512–514.
3. Barreto Silva MI, Picard K, Klein MRST. Sarcopenia and sarcopenic obesity in chronic kidney disease: update on prevalence, outcomes, risk factors and nutrition treatment. Curr Opin Clin Nutr Metab Care 2022;25:371–377.
4. Çelik G, Oc B, Kara I, Yılmaz M, Yuceaktas A, Apiliogullari S (2011) Comparison of nutritional parameters among adult and elderly hemodialysis patients. Int J Med Sci.
5. Centers for Disease Control and Prevention. Chronic kidney disease (CKD) surveillance system: 2021. Accessed September 30, 2021.
6. Chatzipetrou V, Bégin M-J, Hars M, Trombetti A. Sarcopenia in chronic kidney disease: a scoping review of prevalence, risk factors, association with outcomes, and treatment. Calcif Tissue Int 2021;110: 1–31.
7. Cohen S, Nathan JA, Goldberg AL (2015) Muscle wasting in disease: molecular mechanisms and promising therapies. Nat Rev Drug Discov 14(1):58–74.
8. Cruz-Jentoft AJ, Bahat G, Bauer J, Boirie Y, Bruyère O, Cederholm T, et al. Sarcopenia: revised European consensus on definition and diagnosis. Age Ageing 2019;48:16–31.
9. D’Alessandro C, Piccoli G, Barsotti M, Tassi S, Giannese D, Morganti R, Cupisti A (2018) Prevalence and correlates of sarcopenia among elderly CKD outpatients on tertiary Care. Nutrients.

10. Duarte MP, Almeida LS, Neri SGR, Oliveira JS, Wilkinson TJ, Ribeiro HS, Lima RM. Prevalence of sarcopenia in patients with chronic kidney disease: a global systematic review and meta-analysis. J Cachexia Sarcopenia Muscle. 2024 Apr;15(2):501-512.
11. Fahal I, Bell G, Bone J, Edwards R (1997) Physiological abnormalities of skeletal muscle in dialysis patients. Nephrol Dial Transplant.
12. Fahal IH. Uraemic sarcopenia: aetiology and implications. Nephrol Dial Transplant 2014;29:1655–1665.
13. Fouque D, Kalantar-Zadeh K, Kopple J, Cano N, Chauveau P, Cuppari L, Franch H, Guarnieri G, Ikizler TA, Kaysen G, Lindholm B, Massy Z, Mitch W, Pineda E, Stenvinkel P, Treviño-Becerra A, Trevinho-Becerra A, Wanner C (2008) A proposed nomenclature and diagnostic criteria for proteinenergy wasting in acute and chronic kidney disease. Kidney Int 73(4):391–398.
14. GBD Mortality Causes of Death Collaborators. Global, regional, and national age-sex specific all-cause and cause-specific mortality for 240 causes of death, 1990-2013: a systematic analysis for the Global Burden of Disease Study 2013. Lancet. 2015;385:117–171.
15. Gould D, Watson E, Wilkinson T, Wormleighton J, Xenophontos S, Viana J, Smith A (2019) Ultrasound assessment of muscle mass in response to exercise training in chronic kidney disease: a comparison with MRI. J Cachexia Sarcopenia Muscle.
16. Gracia-Iguacel C, Qureshi A, Avesani C, Heimbürger O, Huang X, Lindholm B, Bárány P, Ortiz A, Stenvinkel P, Carrero J (2013) Subclinical versus overt obesity in dialysis patients: more than meets the eye. Nephrol Dial Transplant 28(Suppl):4.
17. Grams ME, Chow EK, Segev DL, et al. Lifetime incidence of CKD stages 3- 5 in the United States. Am J Kidney Dis. 2013;62:245–252.
18. Hallan SI, Ovrehus MA, Romundstad S, et al. Long-term trends in the prevalence of chronic kidney disease and the influence of cardiovascular risk factors in Norway. Kidney Int. 2016;90:665–673.
19. Hanatani S, Izumiya Y, Onoue Y, Tanaka T, Yamamoto M, Ishida T, Yamamura S, Kimura Y, Araki S, Arima Y, Nakamura T, Fujisue K, Takashio S, Sueta D, Sakamoto K, Yamamoto E, Kojima S, Kaikita K, Tsujita K (2018) Non-invasive testing for sarcopenia predicts future cardiovascular events in patients with chronic kidney disease. Int J Cardiol.
20. Hung W, Ross J, Boockvar K, Siu A (2011) Recent trends in chronic disease, impairment and disability among older adults in the United States. BMC Geriatr.
21. Jager KJ, Kovesdy C, Langham R, et al. A single number for advocacy and communication-worldwide more than 850 million individuals have kidney diseases. Kidney Int. 2019;96:1048–1050.
22. Lamarca F, Carrero J, Rodrigues J, Bigogno F, Fetter R, Avesani C (2014) Prevalence of sarcopenia in elderly maintenance hemodialysis patients: the impact of diferent diagnostic criteria. J Nutr Health Aging.
23. Murphy D, McCulloch CE, Lin F, et al. Trends in prevalence of chronic kidney disease in the United States. Ann Intern Med. 2016;165:473– 481.
24. Organ J, Srisuwananukorn A, Price P, Joll J, Biro K, Rupert J, Chen N, Avin K, Moe S, Allen M (2016) Reduced skeletal muscle function is associated with decreased fber cross-sectional area in the Cy/+ rat model of progressive kidney disease. Nephrol Dial Transplant.
25. Ozkayar N, Altun B, Halil M, Kuyumcu ME, Arik G, Yesil Y, Yildirim T, Yilmaz R, Ariogul S, Turgan C (2014) Evaluation of sarcopenia in renal transplant recipients. Nephrourol Mon 6(4):e20055.
26. Petermann-Rocha F, Balntzi V, Gray SR, Lara J, Ho FK, Pell JP, et al. Global prevalence of sarcopenia and severe sarcopenia: a systematic review and meta-analysis. J Cachexia Sarcopenia Muscle 2022;13:86–99.
27. Ribeiro HS, Neri SGR, Oliveira JS, Bennett PN, Viana JL, Lima RM. Association between sarcopenia and clinical outcomes in chronic kidney disease patients: a systematic review and meta-analysis. Clin Nutr 2022;41:1131–1140.
28. Sabatino A, Regolisti G, Delsante M, Di Motta T, Cantarelli C, Pioli S, Grassi G, Batini V, Gregorini M, Fiaccadori E (2019) Noninvasive evaluation of muscle mass by ultrasonography of quadriceps femoris muscle in end-stage renal disease patients on hemodialysis. Clin Nutr 38(3):1232–1239.
29. Saran R, Robinson B, Abbott KC, et al. US Renal Data System 2019 annual data report: epidemiology of kidney disease in the United States. Am J Kidney Dis. 2020;75:A6–A7.
30. Sharma D, Hawkins M, Abramowitz MK (2014) Association of sarcopenia with eGFR and misclassifcation of obesity in adults with CKD in the United States. Clin J Am Soc Nephrol 9(12):2079–2088
31. Shu X, Lin T, Wang H, Zhao Y, Jiang T, Peng X, et al. Diagnosis, prevalence, and mortality of sarcopenia in dialysis patients: a systematic review and meta-analysis. J Cachexia Sarcopenia Muscle 2022;13: 145–158.
32. Slee A, McKeaveney C, Adamson G, Davenport A, Farrington K, Fouque D, Kalanter-Zadeh K, Mallett J, Maxwell A, Mullan R, Noble H, O'Donoghue D, Porter S, Seres D, Sheilds J, Witham M, Reid J (2019) Estimating the prevalence of muscle wasting, weakness, and sarcopenia in hemodialysis patients. J Ren Nutr.
33. Stenvinkel P, Carrero J, von Walden F, Ikizler T, Nader G (2016) Muscle wasting in end-stage renal disease promulgates premature death: established emerging and potential novel treatment strategies. Nephrol Dial Transplant.
34. Stenvinkel P, Larsson T (2013) Chronic kidney disease: a clinical model of premature aging. Am J Kidney Dis; Kooman J, Kotanko P, Schols A, Shiels P, Stenvinkel P (2014) Chronic kidney disease and premature ageing. Nat Rev Nephrol.
35. Studenski S, Peters K, Alley D, Cawthon P, McLean R, Harris T, Ferrucci L, Guralnik J, Fragala M, Kenny A, Kiel D, Kritchevsky S, Shardell M, Dam T, Vassileva M (2014) The FNIH sarcopenia project: rationale, study description, conference recommendations, and fnal estimates. J Gerontol A Biol Sci Med Sci.
36. Wang XH, Mitch WE, Price SR. Pathophysiological mechanisms leading to muscle loss in chronic kidney disease. Nat Rev Nephrol 2022;18:138–152.
37. Wathanavasin W, Banjongjit A, Avihingsanon Y, Praditpornsilpa K, Tungsanga K, Eiam-Ong S, et al. Prevalence of sarcopenia and its impact on cardiovascular events and mortality among dialysis patients: a systematic review and metaanalysis. Nutrients 2022;14:4077.
38. Wilkinson TJ, Miksza J, Yates T, Lightfoot CJ, Baker LA, Watson EL, et al. Association of sarcopenia with mortality and end-stage renal disease in those with chronic kidney disease: a UK Biobank study. J Cachexia Sarcopenia Muscle 2021;12:586–598.
39. Windahl K, Faxén Irving G, Almquist T, Lidén M, van de Luijtgaarden M, Chesnaye N, Voskamp P, Stenvinkel P, Klinger M, Szymczak M, Torino C, Postorini M, Drechsler C, Caskey F, Wanner C, Dekker F, Jager K, Evans M (2018) Prevalence and risk of protein-energy wasting assessed by subjective global assessment in older adults with advanced chronic kidney disease: results from the EQUAL study. J Ren Nutr.

40. Zhang J, Shi W, Zou M, Zeng QS, Feng Y, Luo ZY, et al. Diagnosis, prevalence, and outcomes of sarcopenia in kidney transplantation recipients: a systematic review and meta-analysis. J Cachexia Sarcopenia Muscle 2023;14:17–29.

41. Хусинова, Ш. А., Н. А. Нармухамедова, and Н. Э. Юлдашова. "СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРОФИЛАКТИКИ НЕИНФЕКЦИОННЫХ ЗАБОЛЕВАНИЙ: Хусинова ША, Нармухамедова НА, Юлдашова НЭ." *Лучшие интеллектуальные исследования* 22.2 (2024): 70-76.

42. Akbarovna, Khusinova Shoira, and Narmukhamedova Nazira Azizovna. "Increasing the Adherence of Patients with Arterial Hypertension to Treatment." *NATURALISTA CAMPANO* 28.1 (2024): 3043-3047.

43. Xusinova S. A., Xakimova L. R. Bolalarda urolitiazni epidemiologiyasini o'rganish (adabiyotlar sharhi) //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 10. – С. 111-121.

44. Хакимова, Л. Р., Юсупов, Ш. А., Хусинова, Ш. А., & Шамсиев, Ж. А. (2022). Болаларда уролитиаз ривожланишига генетик омилларнинг таъсири. *Научный журнал «Проблемы биологии и медицины». Самарканд, выпуск*, (2), 135.

45. Khakimova L. R. Yusupov Sh. A., Xusinova Sh. A., Shamsiev DA //Urolithiasis in Children (Literature Review)//American Journal of Medicine and Medical Sciences. – 2022. – Т. 12. – №. 1. – С. 18-25.

46. Khakimova L. R., Khusinova S. A. MH Ablakulova Results of the implementation of a clinical protocol for the integrated management of patients with arterial hypertension and diabetes mellitus in primary health care. 2018 //Journal Health, demography, ecology of the Finno-Ugric peoples. – №. 4. – С. 66-68.

ISSN: 2181-0990
www.tadqiqot.uz
JOURNAL OF REPRODUCTIVE HEALTH AND URO-NEPHROLOGY RESEARCH
ЖУРНАЛ РЕПРОДУКТИВНОГО ЗДОРОВЬЯ И УРО-НЕФРОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

УДК 316.36; 618.51:616-089.844

Nasimova Nigina Rustamovna
Tibbiyot fanlari doktori, docent
Samarqand davlat tibbiyot universitet
Samarqand, O'zbekiston
Davronova Lobar Saidovna
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Samarqand, O'zbekiston

PERI- VA POSTMENOPAUZA DAVRIDAGI AYOLLARDA TOS A'ZOLARINING PROLAPSI VA JINSIY DISFUNKTSIYANI JARROHLIK YO'LI BILAN KORREKSIYA QILISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI (ADABIYOTLAR TAHLILI)

For citation: Nasimova Nigina Rustamovna, Davronova Lobar Saidovna, Modern approaches to surgical correction of pelvic organ prolapse and sexual dysfunction in peri- and postmenopausal women, Journal of reproductive health and uro-nephrology research 2025, vol. 6, issue 2, pp

https://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15478252

Насимова Нигина Рустамовна
Доктор медицинских наук, доцент
Самаркандский Государственный медицинский университет
Самарканд, Узбекистан
Давронова Лобар Саидовна
Самаркадский государственный медицинский университет
Самарканд, Узбекистан

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ХИРУРГИЧЕСКОЙ КОРРЕКЦИИ ПРОЛАПСА ТАЗОВЫХ ОРГАНОВ И СЕКСУАЛЬНОЙ ДИСФУНКЦИИ У ЖЕНЩИН В ПЕРИ- И ПОСТМЕНОПАУЗАЛЬНЫЙ ПЕРИОД (ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ)

Nasimova Nigina Rustamovna
Doctor of Medical Sciences
Samarkand State medical university
Samarkand, Uzbekistan
Davronova Lobar Saidovna
Samarkand State medical university
Samarkand, Uzbekistan

MODERN APPROACHES TO SURGICAL CORRECTION OF PELVIC ORGAN PROLAPSE AND SEXUAL DYSFUNCTION IN PERI- AND POSTMENOPAUSAL WOMEN (LITERATURE REVIEW)

Dolzarblik: Xar bir ayollarning uylagani , pre- va menopauza yoshidagi ayollar sog'lom bo'lishni, jismoniy va ma'naviy jihatdan yaxshi holatda turishi, chiroyli, seksual va go'zal ko'rinishda bo'lishni xoxlaydi. Ba'zan barcha ayollar ham klimakterik davrga xos bo'lgan holatlar — ya'ni, ayollar seksual disfunksiyasi (ASD), kin prolapsini va boshqa bir qator somatik kasalliklar haqida tulik ma'lumotga ega emas. Bugungi kunda statistik taxlillarga kura 2030 yilga kelib, xozirgi kunga nisbatan 80 yoshli ayollarda 4 baravarga oshadi. Bu esa, ayollar seksual disfunksiyasi, genital prolapsi, osteoporoz va menopauzaga bog'liq boshqa qator holatlarning ko'payishiga olib keladi. Perimenopauza va menopauza davriga kirgan ayolning seksual sog'ligi uning shaxsiy hayotida muhim o'rin tutadi, jamiyat, oila va atrofdagilarga bo'lgan munosabatiga turli jihatdan ta'sir ko'rsatadi. Menopauzadagi ayollarda jinsiy aloqalarda og'riq his qilishdan qo'rqish, ularni seksdan butunlay voz kechishga olib kelishi mumkin. Lekin ayollarning perimenopauza va menopauza davrida jinsiy faolligini davom ettirishi sog'liq va hayot sifatini saqlab qolishda juda muhim ahamiyatga ega. Jinsiy hayotdagi "yosh chegarasi" degan tushuncha yo'q – yillar o'tishi bilan ayol tanasining tashqi ko'rinishi o'zgarishi mumkin, ammo uning seksual qobiliyati emas.

Jinsiy hayot ayolning gullab-yashnagan davridagidek bo'lmasligi mumkin, lekin insonlar o'rtasidagi samimiy munosabatlar haqidagi misollar bugungi kunda yetarlicha ko'p – ularning aksariyati hayotning uzoq yillarida ham uyg'unlik va baxtni namoyon etmoqda. Tibbiyot amaliyotida kup mutaxassislar uchun ayollardagi seksual salomatlik yukolishlarning xususiyatlarini aniq va ravshan tushunish oson emas. Bu, avvalo, ayollarning intim shikoyatlar bilan shifokorga murojaat qilishdan iborat. Pre- va menopauza davrida ayolning seksual xolatini uning hayotida juda muhim jihat bo'lib, faqat jinsiy sohada emas, balki umuman hayot sifatini ham salbiy ta'sirga uchratadi. Ayollar ushbu

davrda ro‘y beradigan kasalliklarning zamonaviy klinik ko‘rinishlari, ularni davolash va tiklovchi reabilitasiya imkoniyatlari haqida xabardor bo‘lishi kerak fizioterapevtik va psixoseksual reabilitasiya usullari haqida ma'lumotga ega bo‘lishi, ko‘plab oilaviy intim hayotda yuzaga keladigan murakkab holatlarni oldini olishga yordam beradi [1, 2, 4, 14]. Ayollarda menopauzada yuzaga keladigan seksual disfunksiya bilan bog‘liq muammolarning aksar qismi hali ham yechimini topmagan.

Shu bilan birga, ushbu muammo bilan aynan kim shug‘ullanishi kerakligi ham aniq emas — urologlarmi, ginekologlarmi, psixopatologlar yoki seksopatologlarmi? Yoki, balki, bu sohada yangi avlod mutaxassislarini tayyorlash kerakmi? [4]. Bugungi kunda 50 yoshdan katta bo‘lgan ayollar orasida urogenital buzilishlar yoki seksual disfunksiya belgilariga duch kelmaganini uchratish juda qiyin. Premenopauza va menopauza davrida urogenital tizimdagi yoshga bog‘liq o‘zgarishlar yengil belgilanarli bo‘lsa-da, postmenopauza davri cho‘zilishi bilan bu o‘zgarishlarning nafakat uchrashi, balki og‘irligi ham ortib boradi. Ayollarning ko‘pchiligi genital atrofiya, aellarda seksual disfunksiya kabi muammolarni menopauza va qarishning tabiiy qismi deb hisoblab, ularni yashirishga harakat qilishadi [2, 4, 14, 18].

Pre- va menopauzada genital qarish va aellarda seksual disfunksiya atrofik hamda distrofik o‘zgarishlar bilan bog‘liq simptomlar majmuini tashkil etadi. Bu o‘zgarishlar estrogenlarga bog‘liq to‘qima va tuzilmalarda — siydik qopchasi, uretra, qin, yuz beradi. Bu simptomlar kompleksi menopauzadagi ko‘p ayollarda atrofik vaginit va sistouretrit holatlarining rivojlanishiga olib keladi. Agar menopauza 10 yildan ortiq davom etsa, urogenital buzilishlar, atrofik vaginit va ASD holatlari 73% gacha ortishi mumkin [2, 4, 14]. Estrogen garmoning kamligidan atrofik vaginit, sistouretrit va boshqa kindagi uzgarishlarni rivojlanishidagi roli yaqqol namoyon bo‘ladi. Menopauzada estrogen va boshqa gormonlar kamligigi tufayli fiziologik o‘zgarishlar — jinsiy faollik va ASDning kamayishi, dispareuniya (og‘riqli jinsiy aloqa), klimakterik surunkali siydik chiqarishdagi muammolar, jinsiy xohish va orgazmning yo‘qolishiga sabab bo‘ladi [10, 11, 12, 13, 14].

Tadqiqot maqsadi – pre- va menopauza davridagi ayollarda jinsiy a'zolar prolapsini zamonaviy jismoniy, fizioterapevtik, psixologik, gormonal va jarrohlik usullari orqali korreksiya qilish imkoniyatlarini ishlab chiqish va aniqlash.

Ayollardagi seksual disfunksiya (ASD) ko‘p hollarda turli urogenital buzilishlar, jumladan, giperaktiv siydik qopchasi, interstisial sistit, stress va imperativ siydik ushlab tuta olmaslik holatlari bilan bog‘liqdir. Interstisial sistit (IS) tashxisi qo‘yilgan bemor ayollarda jinsiy hayotni sezilarli darajada buzadigan asosiy simptomlardan biri — dispareuniya (ya'ni jinsiy aloqa vaqtidagi doimiy yoki takrorlanuvchi og‘riq). Ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, IS tashxisi qo‘yilgan ayollarning 80–90% ushbu og‘riqni boshdan kechirishadi, bu esa jinsiy faollikdan qo‘rqish tufayli uning oldini olishga olib keladi. Bunday holatda xoxishni pasayishi, jinsiy hayajon va orgazmga erishishda qiyinchiliklar ro‘y beradi, bu esa ayolning hayot sifatini jiddiy ravishda pasaytiradi [1, 2, 13, 14]. Seksual disfunksiya fonida shakllanadigan psixoseksual va shaxsiy buzilishlar ASD patogenezidagi asosiy zvenolardan biri sifatida qaraladi [13, 14, 19]. Klinik amaliyotda menopauzadagi ayollarda ichki jinsiy a'zolar prolapsi bilan bog‘liq holatlar tadqiq etilganda, 83,8% holatda ginekologik buzilishlar aniqlangan. Asosiy simptomlar — pollakiuriya (siydik chiqarishning kun davomida tez-tez bo‘lishi), nikturiya (tungi siydik chiqarish), sistalgiya (siydik yo‘llarida og‘riq), imperativ siydik chiqarish ehtiyoji, giperaktiv siydik qopchasi va interstisial sistit belgilari [4, 13, 14]. II–III darajadagi jinsiy a'zolar prolapsi aniqlangan ayollarning ikkidan uch qismidan ortig‘ida yuqori siydik yo‘llari urodinamikasida buzilishlar kuzatilgan, bu esa yuqorilab boruvchi infeksiyalar rivojlanishiga olib kelgan. Tekshirilgan ayollarning 75% da plakiuriya kuzatilgan bo‘lib, bu yallig‘lanish jarayonini tasdiqlaydi. Stress siydik ushlab tuta olmasligi bemorlarning uchdan bir qismidan ortig‘ida uchragan va bu holat tampon-proba kabi klinik usullar orqali tasdiqlangan. Shunday qilib, menopauzada stress siydik ushlab tuta olmasligi holati har uchinchi ayolda kuzatilgan [10,11]. Ko‘pgina mualliflar pollakiuriya, nikturiya, sistalgiya va ASD simptomlarini menopauza davridagi estrogen tanqisligi va u bilan bog‘liq atrofik o‘zgarishlar bilan izohlashadi. Bu o‘zgarishlar asosan genital qon tomir tizimida namoyon bo‘ladi [1,2,4,15].

Anatomik va funksional darajada isbotlanganki, proksimal uretra, Lieto uchburchagi, qin, distal uretra va parauretral bezlar embriologik, anatomik va funksional jihatdan yaqin bog‘langan. Endoskopik tekshiruvlarda uretra, siydik qopchasi va qin shilliq qavatining oqsargan, yupqalashgan, kapillyarlar bilan to‘yingan, yengil teginishda qon ketishiga moyil holati kuzatiladi. [1,2,10,11]. Klimakteriy davridagi estrogen tanqisligi to‘qimalarning biokimyoviy tarkibi va tuzilishiga salbiy ta'sir ko‘rsatadi. Estrogen darajasining bosqichma-bosqich pasayishi ichki jinsiy a'zolarning prolapsi, urogenital buzilishlar va ASDning to‘liq klinik manzarasi bilan namoyon bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Garchi o‘rinli qo‘llanilgan zaminlashtiruvchi gormonal terapiya (ZGT) ayrim funksiyalarni tiklash imkoniyatiga ega bo‘lsa-da, uning samaradorligi vaqt o‘tishi bilan kamayadi. ZGTning kechiktirilgan qo‘llanilishi to‘qimalarda qaytarib bo‘lmas metabolik o‘zgarishlarga olib keladi, shu sababli uni o‘z vaqtida boshlash muhim hisoblanadi. Qator ayollarda siydik qopchasi to‘lish fazasida detruzorning irodasiz qisqarishi — giperaktiv detruzor funksiyasi rivojlanadi, bu esa siydikni o‘z-o‘zidan yoki turtki bilan chiqib ketishiga olib keladi (masalan, xaqirish, tez yurish, xarakat yoki pog‘onalardan chiqish paytida) [13]. Keyingi menopauza bosqichida og‘ir urologik buzilishlarda siydik chiqarish ustida nazorat deyarli yo‘qoladi. Tizza tagi mushaklarining bo‘shashishi hatto uxlash vaqtida yoki jinsiy aloqa kabi yengil jismoniy faoliyat paytida ham sodir bo‘ladi. Jinsiy a'zolar prolapsi, ASD, kognitiv va psixoseksual buzilishlar kabi ginekologik muammolarning yig‘indisi menopauzadagi ayollarning 78% da kuzatiladi [10,11]. Urogenital buzilishlar ko‘pincha ichki jinsiy a'zolarning turli darajada tushib ketishi bilan bog‘liq bo‘ladi va bemorning yoshi ortishi bilan bu holatlar soni ortib boradi [10,11,13,14].

Menopauzadagi ayollarning ⅔ qismida qinning old qism anatomiyasi buzilishi, siydik qopchasi bilan bog‘liq holatlar va 83% holatda siydik chiqarish tizimida funksional buzilishlar kuzatilgan. Agar menopauza 10 yildan ortiq davom etsa, urogenital buzilishlar va atrofik vaginit holatlari 73% gacha yetishi mumkin. vaginoplastika sistosele va qin old segmenti anatomiyasi buzilishlarida, xirurgik korreksiyaning zamonaviy usuli sifatida, menopauzadagi ayollarda ushbu buzilishlar rivojlanishining oldini olishda samarali ekanligi isbotlangan. Bizning klinik va reabilitasion tajribamizga ko‘ra, jinsiy a'zolar prolapsining boshlang‘ich bosqichidagi ayollarning 62% i zamonaviy jarrohlik, ginekologik massaj, jismoniy va gormonal reabilitasiya usullariga muhtoj. Bu esa urogenital buzilishlar va ASD rivojlanish xavfini 2,5 baravarga kamaytirishga hamda menopauzada hayot sifatini saqlab qolishga yordam beradi [10, 11].

Kam harakatlilik — o‘zini o‘zi cheklash, og‘riqdan qo‘rqish sababli ayollarning jismoniy faolligini pasaytiradi, bu esa uzoq muddatda passiv turmush tarziga, jismoniy mashqlardan tiyilishga olib keladi. Bunga qarshi ravishda jismoniy faol ayollar uroginekologik buzilishlar va ASD belgilariga kamroq duch kelishadi. Menopauzadagi gipodinamiya semirish, osteoporoz, oraliq mushaklarining sezuvchanligi pasayishi, ichki jinsiy a'zolar tushishi va seksual disfunksiya rivojlanishiga zamin yaratadi. Agar jismoniy holat yaxshi bo‘lsa va salomatlikka zid ko‘rsatmalar (yuqori qon bosimi, EKGda patologiya va h.k.) mavjud bo‘lmasa, menopauzadagi ayollarga jismoniy reabilitasiya dasturlarida faol ishtirok etish tavsiya etiladi.

Tonggi gigienik gimnastikani tura holda yoki to‘shakda yotgan holda ham bajarish mumkin, bunda barcha mushak guruhlari faoliyatini qamrab olish tavsiya etiladi. Jismoniy mashqlar yengil shaklda, ehtiyotkorlik va o‘zini sug‘urta qilish qoidalariga rioya qilgan holda amalga oshirilishi lozim. Mashqlar majmuasiga qo‘l va yelka kamari, bosh, bo‘yin, tan, oyoq, oyoq panjalari va barmoqlari mushaklari uchun kuchga mos jismoniy mashqlar kiritilishi zarur. Mashqlar albatta K. P. Buteyko usuli bo‘yicha nafas gimnastikasi (VPGD) [17] va samomassaj bilan birgalikda olib borilishi maqsadga muvofiq. So‘nggi yillarda keng tarqalgan va ommalashib borayotgan yo‘nalishlardan biri — bu tanseval fizioterapiya, ya'ni raqsli jismoniy terapiya hisoblanadi. Raqsli terapiya demokratik xususiyatga ega — raqsga tushish uchun maxsus tayyorgarlik yoki muayyan yosh shart emas. Bunda jins yoki yosh cheklovi yo‘q — har kim raqsli harakatlar orqali o‘zini erkin ifoda etishi mumkin. Raqsli terapiyada tana harakatlari ob'ekt sifatida emas, balki

jarayon sifatida qabul qilinadi. U orqali inson o‘z tanasi ustidan nazorat o‘rnatishni o‘rganadi — bu esa zamonaviy jamiyatdagi axloqiy qoidalar talabiga mos keladi. Raqs insonning qalbida his etilgan, ammo hayotda amalga oshirolmagan harakatlarni namoyon etish imkonini beradi. Musiqa qo‘shing va raqsga tushing — yolg‘iz, sevgan insoningiz bilan yoki farzandlaringiz bilan! Bu — yangilangan hayot sari tashlangan ilk qadamingiz bo‘lsin [10, 13].

Jismoniy xarakat, faol turmush tarzi, kurortlar rejimi va davolash jarayoni gormonal terapiyani jismoniy, fizioterapevtik davolash va reabilitasiya tadbirlari bilan muvaffaqiyatli uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Bu jarayonda ginekolog, urolog, psixonevrolog, reabilitolog mutaxassislar hamda sanatoriy shifokori va o‘rta tibbiy xodimlarining ruhiy jihatdan qo‘llab-quvvatlovchi va yordam ko‘rsatuvchi munosabati muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv klimakterik sindrom bilan kechuvchi ayollarda uroginekologik buzilishlar va ayollar seksual disfunksiyasini samarali davolash va reabilitasiya qilishga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. Sanator-kurortda davolanish jarayonida muhitning o‘zgarishi, turmush tarzidagi yangiliklar, uy va oila muhitidagi ayrim salbiy omillardan vaqtincha xoli bo‘lish ayolga to‘liq ravishda davolash-tiklanish jarayoniga e'tibor qaratish va zamonaviy sog‘lomlashtirish usullarini o‘zlashtirishga yordam beradi [7, 10, 11, 12]

Xulosa: Pre- va postmenopauzal davrda ayollarda uchraydigan jinsiy a'zolar prolapsi, urogenital buzilishlar va seksual disfunksiya murakkab patogenetik mexanizmga ega bo‘lib, ularning rivojlanishi estrogen tanqisligi, trofik o‘zgarishlar va tana tuzilmasidagi yoshga bog‘liq atrofik-distrofik jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq. Menopauza davri 10 yildan ortiq bo‘lgan ayollarda genital kasalliklarning og‘ir shakllari (atrofik vaginit, interstisial sistit, sistouretrit, dispareuniya va boshqalar) 73% holatda uchraydi. Urogenital sohadagi o‘zgarishlarni bartaraf etishda, jumladan, jinsiy a'zolar prolapsini zamonaviy jarrohlik yo‘li bilan to‘g‘rilash, fiziologik va psixoemosional holatni barqarorlashtirish, turmush tarzini isloh qilish, jismoniy faollikni oshirish, hamda sanator-kurort sharoitida reabilitasiyani kompleks ravishda olib borish katta ahamiyat kasb etadi. Keyingi tadqiqotlar ushbu muolajalarning uzoq muddatli natijalarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Adabiyotlar ro’yxati:

1.Насимова Н. Р. Диагностика, лечение, реабилитация и хирургическая коррекция генитального пролапса и сексуальной дисфункции у женщин // Новый день в медицине. – 2023. – №8(58). – С. 64–68.

2. Насимова Н. Р. Добровольная хирургическая контрацепция женщин репродуктивного возраста, страдающих пролапсом тазовых органов // Наука и Мир. – 2015. – Т. 2. – №1. – С. 95–97.

3. Насимова Н. Р. Результаты лечения и реабилитации женщин с пролапсом гениталий // Вестник Ташкентской медицинской академии. – 2024. – №1. – С. 143–145.

4. Насимова Н. Р. Роль генетического полиморфизма гена рецептора прогестерона PGR (rs1042838) в механизмах формирования различных форм пролапса гениталий // Проблемы биологии и медицины. – 2023. – №4(146). – С. 83–87.

5. Негмаджанов Б. Б., Насимова Н. Р., Ганиев Ф. И. Хирургическое лечение пролапса гениталий женщин репродуктивного возраста // Достижения науки и образования. – 2019. – №10(51). – С. 31–36.

6. Негмаджанов Б. Б., Насимова Н. Р., Жалолова И. А. Роль эстрогенного дефицита в развитии и прогрессировании пролапса гениталий // Журнал репродуктивного здоровья и уронефрологических исследований. – 2023. – Т. 4. – №3.

7.Bozorov A. G., Ikhtiyarova G. A., Davlatov S. S. Biochemical markers for prediction of premature labor in urogenital infections // International Journal of Pharmaceutical Research. – 2020. – Т. 12. – №3.

8. Ikhtiyarova G. A., et al. Pathomorphological changes of the placenta in pregnant women infected with Coronavirus COVID-19 // International Journal of Pharmaceutical Research. – 2020. – Т. 12. – №3.

9. Kudratova D. S. H., Ikhtiyarova G. A., Davlatov S. S. Medical and social problems of the development of congenital malformations during a pandemic // International Journal of Pharmaceutical Research. – 2021. – Т. 13. – №1.

10. Rogers R. G., Kammerer-Doak D., Darrow A., Murray K., et al. Sexual function after surgery for stress urinary incontinence and/or pelvic organ prolapse: A multicenter prospective study // American Journal of Obstetrics and Gynecology. – 2004. – Vol. 191. – P. 206–210.

ISSN: 2181-0990
www.tadqiqot.uz
JOURNAL OF REPRODUCTIVE HEALTH AND URO-NEPHROLOGY RESEARCH
ЖУРНАЛ РЕПРОДУКТИВНОГО ЗДОРОВЬЯ И УРО-НЕФРОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

UDK 618.1-007.17-055.9-053.4:

Todjiyeva Nigina Iskandarovna
Assistent
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Samarqand, O'zbekiston

TUG'RUQ TRAVMASINING ZAMONAVIY JIHATLARI VA UNING OQIBATLARI: EPIZIOTOMIYA, VAGINAL DISBIOZ VA TOS BO'SHLIG'I YETISHMOVCHILIGI (ADABIYOTLAR TAHLILI)

For citation: Todjiyeva Nigina Iskandarovna, Modern aspects of birth trauma and its consequences: episiotomy, vaginal dysbiosis and pelvic floor failure (literature review), Journal of reproductive health and uro-nephrology research 2025, vol. 6, issue 2, pp

https://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15478256

Тоджиева Нигина Искандаровна
ассистент
Самаркадский государственный медицинский университет
Самарканд, Узбекистан

СОВРЕМЕННЫЕ АСПЕКТЫ РОДОВОГО ТРАВМАТИЗМА И ЕГО ПОСЛЕДСТВИЙ: ЭПИЗИОТОМИЯ, ДИСБИОЗ ВЛАГАЛИЩА И НЕСОСТОЯТЕЛЬНОСТЬ ТАЗОВОГО ДНА (ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ)

Todjiyeva Nigina Iskandarovna
Assistant
Samarkand State medical university
Samarkand, Uzbekistan

MODERN ASPECTS OF BIRTH TRAUMA AND ITS CONSEQUENCES: EPISIOTOMY, VAGINAL DYSBIOSIS AND PELVIC FLOOR FAILURE (LITERATURE REVIEW)

Kirish. Zamonaviy akusherlikda tos bo'shlig'iga bog'liq xavflar tufayli epiziotomiyadan muntazam foydalanishni qayta ko'rib chiqish tendentsiyasi mavjud. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oraliq sohasi shikastlanishi, shu jumladan epiziotomiya va yirtilishlar tos diafragmasining yaxlitligini buzishi mumkin, bu esa tos churrasining shakllanishiga olib keladi.

Epiziotomiyalar va oraliq sohasi yirtilishlari bo'yicha statistik ma'lumotlar turli mamlakatlarda sezilarli darajada farq qiladi, bu esa tug'ruqni boshqarishga yondashuvlardagi farqlarni ko'rsatadi. Qo'shma Shtatlarda epiziotomiya 20% dan 73% gacha, uchinchi va to'rtinchi darajali yirtilishlar 4% dan 13% gacha uchraydi. Evropada bu ko'rsatkichlar ham farq qiladi: Shvetsiya va Buyuk Britaniyada tug'ruq jarohati mos ravishda 9,7% va 15% ni tashkil qiladi, Italiyada esa 58% ga yetadi. Lotin Amerikasi mamlakatlarida epiziotomiya 69,2-96,2% hollarda, Turkiyada esa birinchi tug'ruqlarda 93,3% hollarda yuzaga keladi. Afrikada epiziotomiya ko'rsatkichlari paritet bo'yicha o'zgaradi: janubiy Efiopiyada 68% va Zimbabveda o'rtacha 27%, birinchi tug'uvchi va qayta tug'uvchi ayollar o'rtasidagi farqlar bo'ladi. Nigeriyada epiziotomiya qo'llanilishi 21% dan 40,4% gacha, I-II darajali yorilishlar esa 18,2% ni tashkil qiladi, oraliq sohasi yarasining asoratlar bilan bitishi esa tug'ruqdagi har ikkinchi ayolda (52,1%) kuzatiladi.

Epiziotomiyaning keng qo'llanilishiga qaramay, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ba'zi hollarda u kafolatlangan bo'lishi mumkin. Misol uchun, Ankarcrona V. va boshqalarning tadqiqoti (2021) lateral yoki mediolateral epiziotomiya birinchi tug'uvchi ayollarda homilaning vakuum ekstraktsiyasi paytida III va IV darajali yorilish xavfini kamaytirishi mumkinligini aniqladi [1,5].

Ukrainada tug'ruq muddatining shikastlanishlar chastotasiga ta'siri ham qayd etilgan: homiladorlik muddati oshgan sari jarohatlar ko'payadi. Epiziotomiya bilan jarohatlanish 35,6% ni, choklarning infeksiyasi esa 17,7% ni tashkil qiladi.

Rossiyada oraliq sohasi yorilish holatlari 4,6% -11%, epiziotomiyalar - 16% -25% va umumiy travma - 21% -36% ni tashkil qiladi.

JSSTning joriy ko'rsatmalari epiziotomiya uchun ko'rsatmalarni cheklaydi, bu faqat asoratlangan vaginal tug'ruq va homilaning distress holatlarida tavsiya etiladi. Ushbu tavsiyalarning amalga oshirilishi Frantsiya va Kanadada epiziotomiyadan foydalanishning kamayishiga olib keldi [5].

Biroq, Franchi M. (2020) tadqiqotida ko'rsatilgandek, "cheklovchi" epiziotomiya birinchi va ikkinchi darajali oraliq sohasi yirtilishlarining ko'payishiga olib kelishi mumkin. Boshqa tomondan, norvegiyalik shifokorlar bu yondashuv bilan anal sfinkter shikastlanishining kamayishini qayd etdilar. Rossiyada ham oraliq sohasi jarohatlarning kamayishi kuzatildi. Rossiyalik mualliflarning ma'lumotlari 2012 yilda 21% dan 2016 yilda 6,1% gacha bo'lgan oraliq sohasi shikastlanishining kamayganligini ko'rsatadi. Zamonaviy nuqtai nazar, tos a'zolarining yetishmovchiligini sindromli tabiati, namoyon bo'lish va kechishining o'zgaruvchan davrlari, shuningdek, yuqori darajadagi fenotipik geterogenlik bilan multifaktorial holat deb hisoblanadi. Ushbu geterogenlik genetik omillar va atrof-muhit ta'sirining murakkab o'zaro

ta'siridan kelib chiqadi, bu ayollarning hayot sifatini sezilarli darajada yomonlashtiradi hamda jarrohlik yo'li bilan tuzatishni talab qiladi [3, 4, 10,14]. Tos bo'shlig'i mushaklarining yetishmovchiligi (TBMY) surunkali va progressiv holat bo'lib, ichki jinsiy a'zolarning tushishi, siydik tutolmaslik, defekatsiya buzilishi va jinsiy disfunksiya bilan tavsiflanadi, bu bemorlarning hayot sifatini sezilarli darajada pasaytiradi [6, 9, 11, 17].

Jahon statistikasi shuni ko'rsatadiki, ayollarning 2,9% dan 53% gacha tos bo'shlig'i disfunktsiyasining turli ko'rinishlari haqida xabar berishadi, ularning 47% gacha mehnatga layoqatli yoshdagi ayollar. Tos a'zolarining disfunktsiyasi 30 yoshgacha bo'lgan ayollarning 10 foizida, 30 yoshdan 45 yoshgacha bo'lgan ayollarning 40 foizida va 50 yoshdan oshgan ayollarning yarmida uchraydi, ularning har beshdan biri jarrohlik yo'li bilan davolashni talab qiladi. TBMY ning yuqori tarqalishiga qaramay, ushbu holatning patogenetik mexanizmlari yetarlicha o'rganilmagan [1, 5, 7, 16].

Genital organ prolapse (GOP) continues to pose a significant global health challenge by substantially reducing the quality of life for countless women [3,6,9]. In recent years, an increasing number of cases have been diagnosed among women younger than 45 [4,2]. Currently, the sole definitive treatment for GOP is surgical, with numerous surgical strategies—vaginal approaches, abdominal laparotomy, and laparoscopic techniques—documented in the literature [1,6,7]. Over time, evolving perspectives on GOP pathogenesis have prompted shifts in treatment methods. Nonetheless, no procedure has yet established itself as the "gold standard," since none have shown distinctly superior long-term results [9,1].

The limited success of procedures that rely solely on the patient's own tissues, coupled with high recurrence rates, led to the development of alternative strategies involving synthetic materials that form a supportive structure for the pelvic organs [4,6]. Published data indicate that GOP repair using mesh implants may succeed in up to 90–95% of cases [1]. However, even though mesh use has enhanced treatment outcomes, it has also introduced new complications, predominantly attributed to the "blind" component of the procedure [2,6]. The choice between using native tissue repair or mesh implants for GOP correction remains under active debate, as high complication rates and the scarcity of robust randomized clinical trials have sparked concerns regarding the long-term safety of mesh-based interventions [5,8].

Given that GOP affects 28–39% of women, often manifests early, and exhibits high recurrence following surgical intervention, it remains one of the most urgent issues facing modern gynecology. Despite technical advancements, the overall incidence of GOP has yet to show a meaningful decline [A.I. Ishchenko, T.V. Gavrilova, A.A., Questions of Gynecology, Obstetrics, and Perinatology, 2020].

Moreover, recent observations point to GOP occurring in younger patients, with severe forms frequently involving dysfunction of nearby organs. In advanced stages (III–IV), GOP commonly coincides with urogenital and anorectal disturbances, causing changes in the vaginal topography and microbiota. These disruptions can trigger bacterial vaginosis, cervical inflammation (cervicitis), trophic ulcerations of the vaginal walls, cervical elongation, and chronic endocervicitis; in many instances, multiple such conditions appear simultaneously [B.B. Negmadjanov, H.Sh. Shavkatov, American Journal of Medicine and Medical Sciences, 2021].

Studies indicate that pelvic floor prolapse is particularly common in reproductive-aged women with a history of complicated obstetric events, with prevalence reaching up to 39.5% [Negmadjanov B.B., Shavkatov H.Sh., 2022]. GOP is recognized as a serious issue affecting reproductive-aged women, impacting both their quality of life and reproductive health. Research suggests that pregnancy, childbirth, congenital connective tissue disorders, obesity, and hormonal imbalances are key contributing factors to GOP development [Barber MD, Maher C., Pelvic Organ Prolapse, The Lancet, 2022]. Early-stage GOP is often undiagnosed, leading to a greater need for surgical intervention in later stages.

Surgical treatment remains the primary approach to managing GOP, yet it continues to present challenges due to its recurrence rates and the need for individualized surgical planning. According to L.V. Adamyan (2006), GOP is a complex condition due to its widespread occurrence, early onset, multifaceted impact on pelvic organ function, associated extragenital pathologies, and high recurrence risk following surgical correction [1,6,8].

Data from Krasnopolsky indicate that GOP affects 15-30% of reproductive-aged women, with prevalence rising to 40% among women over 50 years old. Recent studies have shown that traditional vaginal surgical techniques are no longer the dominant approach for GOP correction. There has been a growing trend toward minimally invasive techniques using synthetic, non-absorbable materials. Various modifications of surgical techniques, including laparovaginal approaches, have been described in the literature. However, despite the abundance of surgical options, no universally effective method has been identified. Additionally, there is no standardized approach for selecting the optimal surgical technique, primarily due to the risk of recurrence and the incomplete resolution of functional disorders.

Among GOP patients, those with coexisting uterine pathology represent a unique subset. Hysterectomy remains one of the most commonly performed gynecological procedures, yet long-term outcomes highlight the importance of evaluating the risk of vault prolapse recurrence. The question of determining the extent of surgical intervention during hysterectomy remains unresolved. While some researchers advocate for total uterine extirpation [9,7,2], others suggest that subtotal hysterectomy may be preferable due to potential adverse effects on women's health [Askolskaia S.I., 1998; Makarov O.V. et al., 2000].

References:

1. Allayarova, V.F., Nikitin, N.I., Ishmuratov, N.A. (2020). "Microecosystem status of the vagina in norm and pelvic floor muscle insufficiency." Medical Bulletin of Bashkortostan, 15(6), 123-127.
2. Bychenko, V.V. (2021). "Pelvic organ prolapse in women: A hidden threat (literature review)." Bulletin of Syktyvkar University, Series 2: Biology, Geology, Chemistry, Ecology, 2(18), 73-80.
3. Lazukina, M.V., Michelson, A.A., Bashmakova, N.V., et al. (2020). "Preoperative preparation effects on vaginal architecture in severe genital prolapse in postmenopausal women." Gynecology, 22(4), 33-38.
4. Petrosyan, E.I., Puchkova, N.V., Mgelashvili, M.V., et al. (2021). "Possibilities of organ-preserving correction of pelvic floor muscle insufficiency combined with cervical elongation in reproductive-aged women." Russian Journal of Obstetrics and Gynecology, 21(3), 79-84.
5. Goncharova, E.P., Zarodnyuk, I.V. (2020). "Magnetic resonance defecography in pelvic floor prolapse syndrome (literature review)." Coloproctology, 19(1), 117-130.
6. Gustovarova, T.A., Kirakosyan, L.S., Framuzova, E.E. (2021). "Postoperative results of surgical treatment of genital prolapse." Kuban Medical Bulletin, 28(1), 43-52.
7. Dikke, G.B. (2017). "Pathogenetic approaches to selecting treatment methods for pelvic floor dysfunction." Pharmateka, 12, 30-36.
8. Dobrokhotova, Y.E., Ilyina, I.Y. (2017). "Effectiveness of conservative treatment of postpartum genital prolapse using vaginal training devices." RMJ. Mother and Child, 25(26), 1908-1912.
9. Ibragimova, E.E., Yakubova, E.F., Yakubova, Z.A. (2018). "Assessment of smoking effects on visceral organs and regulatory functions of the body." Population Health and Environment, 3(300), 51-54.
10. Krasnopolskaya, I.V. (2018). "Pelvic floor dysfunction in women: Pathogenesis, clinical aspects, diagnosis, treatment principles, and preventive strategies." Doctoral dissertation summary, Moscow, 41 pages.
11. Лисиця В. Проблема генітального пролапса у жінок. Майстер-клас «Пролапс 2014» / В. Лисиця // Медицинские аспекты здоровья женщины. – 2015. – № 1 (87). – С. 85–87.
12. Subak L. L. Cost of pelvic organ prolapse surgery in the United States / L. L. Subak, L. E. Waetjen, S. Van den Eaden [et al.] // Obstet. Gynecol. – 2001. – № 98. – P. 646–651.
13. Шкарупа Д. Д. Основные проблемы, ассоциированные с применением синтетических сетчатых эндопротезов во влагалищной хирургии недержания мочи и тазового пролапса на современном этапе / Д. Д. Шкарупа, Е. С. Шпиленя, Н. Д. Кубин // Медицинский вестник Башкортастана. – 2013. – Т. 8, № 3. – С. 172 175.

ISSN: 2181-0990
www.tadqiqot.uz
JOURNAL OF REPRODUCTIVE HEALTH AND URO-NEPHROLOGY RESEARCH
ЖУРНАЛ РЕПРОДУКТИВНОГО ЗДОРОВЬЯ И УРО-НЕФРОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ОРИГИНАЛЬНЫЕ СТАТЬИ/ ORIGINAL ARTICLES

УДК: 618.514.8-07

Шавази Наргиз Нуралиевна
Самаркандский Государственный Медицинский Университет
Самарканд, Узбекистан

РЕТРОСПЕКТИВНЫЙ АНАЛИЗ ЖЕНЩИН С ПРЕЖДЕВРЕМЕННЫМИ РОДАМИ, ОСЛОЖНЁННЫМИ АКУШЕРСКИМ КРОВОТЕЧЕНИЕМ

For citation: Shavazi Nargiz Nuraliyevna, Retrospective analysis of women with premature birth complicated by obstetric bleeding, Journal of reproductive health and uro-nephrology research 2025, vol. 6 , issue 2 pp

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15478429

АННОТАЦИЯ

Решение проблемы преждевременных родов (ПР) является сложной медико-социальной проблемой, связанной с улучшением качества последующей жизни детей, родившихся раньше срока, а также с сопряженными с этим финансовыми проблемами. Преждевременные роды увеличивают риск осложнений, связанных с недоношенностью. В настоящее время перед акушерами стоят две основные задачи: выявление потенциально опасных преждевременных родов, чтобы избежать неправильных операций, и подготовка плода к преждевременному рождению с помощью достаточного количества безопасных медикаментов. Большинство осложнений, связанных с материнством, проявляются во время беременности, и многие из них можно предотвратить или вылечить.
Ключевые слова: амниотическая жидкость, плод, плацента, перинатальная патология, преждевременные роды.

Shavazi Nargiz Nuraliyevna
Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti
Samarqand, Uzbekistan

AKUSHERLIK QON KETISHI BILAN ASORATLANGAN MUDDATDAN OLDIN TUG'GAN AYOLLARNING RETROSPEKTIV TAHLILI

ANNOTATSIYA

Muddatdan oldingi tug’ruq -bu erta tug'ilgan va tegishli moddiy-iqtisodiy xarajatlar bilan tug'ilgan bolalarning keyingi hayot sifatini yaxshilash muammolarini hal qilish bilan bog'liq murakkab tibbiy va ijtimoiy muammo. Erta tug'ilish bilan bog'liq asoratlarning og'irligi erta tug'ilishning homiladorlik davriga mutanosibdir. Hozirgi vaqtda akusherlar oldida ikkita asosiy vazifa turibdi: noo'rin aralashuvlarning oldini olish uchun xavfli erta tug'ilishni aniqlash va homilani etarli va shu bilan birga xavfsiz dorilar yordamida erta tug'ilishga tayyorlash. Onalik asoratlarining aksariyati homiladorlik paytida rivojlanadi va ularning ko'pini oldini olish yoki davolash mumkin.
Kalit so'zlar: muddatdan oldingi tug’ruq, amniotik suyuqlik, homila, platsenta, perinatal patologiya.

Nargiz Nuraliyevna Shavazi
Samarkand State Medical University
Samarkand, Uzbekistan

RETROSPECTIVE ANALYSIS OF WOMEN WITH PREMATURE BIRTH COMPLICATED BY OBSTETRIC BLEEDING

ABSTRACT

Premature birth (PB) is a complicated medical and social issue that involves addressing issues to enhance the quality of life for children born before their due dates as well as the related financial and material expenses. The gestational age of premature delivery is directly correlated with the severity of prematurity-related problems. Obstetricians currently have two primary responsibilities: identifying potentially dangerous preterm births to prevent inappropriate interventions and preparing the fetus for preterm birth with the use of appropriate and safe drugs. Pregnancy causes the majority of maternal problems, many of which are preventable or curable.
Keywords: perinatal pathology, fetus, placenta, amniotic fluid, premature birth.

Введение. Исследования результатов родов ретроспективной группы, проведенные в филиале Республиканского специализированного научно-практического медицинского центра здоровья матери и ребенка г. Самарканда (главный врач Хамраева Л.К., г. Самарканд), были использованы для определения факторов риска преждевременных родов.

При выборе историй родов обращали внимание на исход родов (осложнения в виде кровотечений). Изучено 171 история

преждевременных родов, которые осложнились патологической кровопотерей в сроках гестации 28-34 недель беременности.

Средний возраст женщин варьировал от 17 до 37 лет (рис 1).



Рисунок 1. Возраст женщин ретроспективной группы.

У женщин возраст 18–25 лет составил 14 женщин (28%), возраст 26–30 лет составил 5 женщин (10%), возраст 31–35 лет составил 18 женщин (36%), возраст 36–40 лет составил 10 женщин (20%), а возраст более 40 лет составил 3 женщин (6%). В зависимости от социального статуса преобладали домохозяйки (46,0%), работающие (39,4%) и студенты (14,5%).

В результате исследования менструальной функции было обнаружено, что средний возраст менархе составил 12 плюс-минус 3 года, продолжительность менструаций составила 5,07 плюс-минус 2,1 дня, а возраст начала половой жизни составил 18 плюс-минус 3,1 года. Возраст наступления менархе, продолжительность менструации, количество теряемой крови и жалобы на боль использовались для оценки менструальной функции беременных (рис. 2).



Рисунок 2. Характеристика менструальной функции.

Примечание. ВМ – возраст менархе, ПМ – продолжительность менструации, ХМВ – характер менструальных выделений, ХЦ – характер цикла

При беременности женщины чаще жаловались на следующие проблемы: частый стресс, вредные привычки, профессиональные вредности, угроза прерывания беременности, преэклампсия или эклампсия в анамнезе, маловодие или многоводие и соматическая патология (рис. 3.3). Наличие и частота ЭГЗ у обследованных женщин имели решающее значение для развития осложнений. У 61 % женщин в анамнезе были воспалительные заболевания в детстве, такие как ОРВИ (98%), болезни органов дыхания, уха, горла и носа (85%), заболевания почек (56%), и анемия (61,4%), которые могли повлиять на состояние различных органов и систем, пока будущая женщина развивается в репродуктивном возрасте. Воспалительные заболевания полового тракта были основной проблемой, обнаруженной при сборе гинекологического анамнеза; наиболее распространенными из них были кольпиты (61,4%), воспалительные заболевания матки (39,3%) и нарушения менструальной функции (16,2%).

Немаловажное значения для текущей беременности имели исходы предыдущих беременностей.



Рисунок 3. Анализ факторов риска ретроспективной группы.

У беременных с прерыванием беременности акушерский анамнез отличается высоким уровнем абортов (42,6%), риском преждевременных родов (95,9%), отслойкой нормально расположенной плаценты (2,9%) и гипертензией (19,3%) (рис. 3).

Среди обследованных первородящих было 30%, а среди повторнородящих 70% по паритету (рис. 3.4). Изучение паритета женщин показало:



Рисунок 4. Паритет женщин с ПР, осложненном атоническим кровотечением.

1-е роды — (30%), 2–3-и роды — (25%), 4-е и более роды — (45%). Большинство женщин с ПР осложнёнными кровотечением были повторнородящими (63,1%), первородящие составили 36,9% (рис.5).



Рисунок 5. Количество ПР и атонических кровотечений при ПР

В Самаркандской области по данным согласно данным, за период с 2016 по 2018 гг., как и по всей стране в целом сохраняется общая тенденция к увеличению частоты преждевременных родов и атонических кровотечений при ПР. Согласно данным представленном на рисунке 3.5., видно, что из года в год увеличивается частота атонических кровотечений во время родов и в послеродовом периоде при преждевременных родах. Это, несомненно, ведет к увеличению социальной проблемы и акушерских осложнений.

Анализируя исход родов ретроспективной группы выявлено, что роды закончились через естественные родовые пути в 74% (127) случаев и путем операции кесарево сечение в 26 % (44) (рис.6).

Рисунок 6. Методы родоразрешения в ретроспективной группе.

По данным литературы установлено, что физиологической кровопотерей считается кровопотеря до 10% ОЦК (до 500мл) при родоразрешении через естественные родовые пути, и до 1000мл – при кесаревом сечении, патологической – 10-30% ОЦК (>500 мл) – ЕРП, >1000мл КС, массивной более - 30% ОЦК.

Было установлено, что патологическая кровопотеря встречалось в 100% случаев, учитывая специальный выбор историй.

Объем кровопотери в ретроспективной группе, при ЕР был 1223,04±43,2мл, при КС был в среднем 1199,12±52,1 мл.

При анализе причин кровотечений было установлено, что частыми причинами кровотечений явились: ПОНРП 3,3%, атония матки 28,9%, дефекты последа 9,5%, травмы 11,4%, изменения в системе гемостаза 54,7%. В некоторых случаях отмечались сочетанные причины ПК.

Для лечения ПК проводили медикаментозное и хирургическое вмешательство (таб.1).

Таблица 1.

Методы остановки кровотечения (по данным ретроспективной группы)

Количество больных	Консервативная остановка ПК		Хирургическое остановка ПК	
171 – 100 %	158	92,4%	13	7,6%

Как видно из таблицы консервативная остановка ПК составил 92,4 %, хирургическая 7,6% случаев.

Перед нами встал вопрос: Какие дополнительные мероприятия могли предотвратить ПК во время родов и в послеродовом периоде? Для ответа на вопрос мы произвели дополнительные методы исследования. Учитывая, что одной из причин ПК является нарушение гемостаза в 54,7 % случаев, мы изучили гемостазиологические показатели как триггерного механизма ПК (таб.2).

Анализ коагулограммы ретроспективной группы (до родов)

Таблица 2.

Показатель (n=171)	**Значение**	**%**
АЧТВ (сек.)	**38,12±4,41**	59,1%
Протромбиновый индекс (%)	**90,6±7,47**	62,5%
Фибриноген (г\л)	**4,1±0,91**	57,3%
Протромбиновое время (сек.)	**14±0,2**	53,8%
МНО	**1,83±0,1**	67,2%

Как видно из таблицы, почти 50% случаев имели изменения в системе гемостаза в виде нарушений свёртывания. Это подтверждает вышеизложенные предположения.

У беременных с преждевременными родами уровень протромбина повышается, что свидетельствует о том, что внешний путь свертывания расширился. Улучшение АЧТВ указывает на активизацию внутреннего пути свертывания. Беременные страдают гиперкоагуляционным синдромом, что приводит к преждевременным родам, согласно исследованиям, которые показывают, что повышение уровня фибриногена в сочетании с вышеуказанной активностью процессов свертывания приводит к гиперкоагуляционному синдрому у беременных [1; 5].

Таким образом, основным направлением современного акушерства является изучение нарушений свертывающей системы при беременности и методов ее лечения.

Изучая данные системы гемостаза при патологической кровопотере у преждевременно родивших женщин, можно сделать вывод, что изучение биохимических маркеров системы гемостаза недостаточно, и что дисфункция эндотелия может играть роль в возникновении этих осложнений. Разработка эффективных методов лечения гиперкоагуляционного синдрома у беременных на ранних сроках также поможет предотвратить преждевременные роды.

Использованная литература:

1. Ахтамова Н. А., Шавази Н. Н. PREDICTION OF OBSETRIC BLOOD LOSS IN WOMEN WITH PRETERM BIRTH (LITERATURE REVIEW) //УЗБЕКСКИЙ МЕДИЦИНСКИЙ ЖУРНАЛ. – 2022. – Т. 3. – №. 5.
2. Ахтамова О. Ф. Антифосфолипидный синдром и выкидыш //УЗБЕКСКИЙ МЕДИЦИНСКИЙ ЖУРНАЛ. – 2022. – Т. 3. – № 4.
3. Тилявова С. А. СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ДИАГНОСТИКЕ И ЛЕЧЕНИЮ НАРУШЕНИЙ МОЧЕПИСАНИЯ У ЖЕНЩИН В ПРЕМЕНОПАУЗЕ //УЗБЕКСКИЙ МЕДИЦИНСКИЙ ЖУРНАЛ. – 2022. – Т. 3. – №3.
4. Фозиловна А. О., Рахимовна Х. Д. АНТИФОСФОЛИПИДНЫЙ СИНДРОМ И МИССИЯ БЕРЕМЕННОСТИ //УМУМИНСОНИЙ ВА МИЛЛИЙ КАДРИЯТЛАР: ТИЛЬ, ТАЛИМ ВА МАДАНИЯТ. – 2022. – Т. 1. – С. 13-15.
5. Худоярова Д. Р., Шопулотова З. А. ОПТИМИЗАЦИЯ ВЕДЕНИЯ БЕРЕМЕННЫХ С ХРОНИЧЕСКИМ ПИЕЛОНЕФРИТОМ //УЗБЕКСКИЙ МЕДИЦИНСКИЙ ЖУРНАЛ. - 2022. – Т. 3. – НЕТ. 3.
6. Шавази Н.Н., Алимова П.Б. СОВРЕМЕННЫЕ АСПЕКТЫ АКУШЕРСКИХ КРОВОТЕЧЕНИЙ (ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ) //ЖУРНАЛ РЕПРОДУКТИВНОГО ЗДОРОВЬЯ И УРОН-НЕФРОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ. – 2022. – Вып. 3. – № 2.
7. Эл Ваттар Б.Х., Тэмблин Дж.А., Парри-Смит В. и др. Ведение акушерских послеродовых кровотечений: оценка национальной службой текущей практики в Великобритании // Risk Manag Healthc Policy. — 2017. — №10. — С. 1-6.
8. Шавази Н. Н., Бабамурадова З. Б. Соотношение про-и Антиангиогенных факторов в патогенезе преждевременных родов у беременных на фоне недифференцированной дисплазии соединительной ткани //European Research: innovation in science, education and technology. – 2020. – С. 93-96.

9. Ахтамова Н. А., Шавази Н. Н. PREDICTION OF OBSETRIC BLOOD LOSS IN WOMEN WITH PRETERM BIRTH (LITERATURE REVIEW) //УЗБЕКСКИЙ МЕДИЦИНСКИЙ ЖУРНАЛ. – 2022. – Т. 3. – №. 5.

10. ШАВАЗИ Н. Н. и др. TOTAL GISTEREKTOMIYANING SUBTOTAL GISTEREKTOMIYADAN USTUNVORLIGINI TAHLILLASH //ЖУРНАЛ БИОМЕДИЦИНЫ И ПРАКТИКИ. – 2022. – Т. 7. – №. 3.

11. Nasyrovich S. S. et al. PREDICTORS OF BLEEDING IN PRETERM LABOR: RETROSPECTIVE OBSERVATIONAL //Journal of Modern Educational Achievements. – 2023. – Т. 5. – №. 5. – С. 185-196.

12. Nuraliyevna S. N., Dilshodovna J. M. MORPHOFUNCTIONAL STRUCTURE OF THE PLACENTA IN PREMATURE LABOR //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – №. 4. – С. 381-384.

13. Nuralievna S. N., Akbarjonovna A. N., Farkhodovna R. N. Management of the Reatening Preterm Birth //Texas Journal of Medical Science. – 2023. – Т. 17. – С. 25-38.

14. Nuralievna S. N., Akbarovna A. N. FETAL STANDING AND PERINATAL OUTCOMES OF PREMATURE BIRTH //Confrencea. – 2023. – Т. 10. – №. 1. – С. 14-16.

15. Shavazi N., Akhtamova N., Katkova N. Perinatal risk of premature birth: New obstetric opportunities //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 413. – С. 03035.

ISSN: 2181-0990
www.tadqiqot.uz
JOURNAL OF REPRODUCTIVE HEALTH AND URO-NEPHROLOGY RESEARCH
ЖУРНАЛ РЕПРОДУКТИВНОГО ЗДОРОВЬЯ И УРО-НЕФРОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

УДК 616.69-008.8: 616.98:615.37

Akramov Axtam Rabimovich
t.f.n., dotsent
Samarkand Davlat tibbiyot universiteti
Samarqand, O‘zbekiston
Rizaev Tohir Abdujalolovich
vrach ordinator
Respublika ixtisoslashtirilgan Onkologiya va Radiologiya Ilmiy-Amaliy Tibbiyot Markazi Samarqand filiali
Samarqand, O‘zbekiston

SUT BEZI RAKI GORMONAL TERAPIYASIDA ESTROGEN GORMON SINTEZINI TO’XTATISH ORQALI DAVOLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

For citation: Akramov Axtam Rabimovich, Rizaev Tohir Abdujalolovich, Improving the effectiveness of hormone therapy in breast cancer patients by blocking estrogen synthesis, Journal of reproductive health and uro-nephrology research 2025, vol.6 , issue 2 pp

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15478439

ANNOTATSIYA

Maqolada ko'krak bezi saratoni bilan og'rigan bemorlarda tamoksifen bilan taqoslanganda aromataza ingibitorlari bilan o'tkazilgan adyuvant gormon terapiyasining samaradorligini baholash natijalari keltirilgan. Taqoslangan bemorlar guruhlarida residivssiz yashash ko’rsatgichi va kasallikning qaytalanish xavfi nisbati baholandi.

Kalit so'zlar: ko'krak bezi saratoni, gormon terapiyasi, aromataza ingibitorlari, tamoksifen.

Акрамов Ахтам Рабимович
К.м.н., доцент
Самаркандский Медицинский университет
Самарканд, Узбекистан
Ризаев Тохир Абдужалолович
врач-ординатор
Самаркандский филиал Республиканского специализированного научно-практического медицинского центра онкологии и радиологии
Самарканд, Узбекистан

УЛУЧШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ГОРМОНОТЕРАПИИ БОЛЬНЫХ РАКОМ МОЛОЧНОЙ ЖЕЛЕЗЫ ПУТЕМ БЛОКАДЫ СИНТЕЗА ЭСТЕРОГЕНОВ

АННОТАЦИЯ

В статье представлены результаты по оценке эффективности адъювантной гормона терапии, проводимой ингибиторамы ароматазы в сравнении с тамоксифеном больным раком молочной железы. Оценены безрецидивная выживаемость, отношение рисков возврата болезни в сравниваемых группах больных.

Ключевые слова: рак молочной железы, гормон терапия, ингибиторы ароматазы, тамоксифен.

Akramov Axtam Rabimovich
Dr.Sc. Associate Professor of the Department of Oncology
Samarkand State Medical University
Samarkand, Uzbekistan
Rizaev Tohir Abdujalolovich
resident physician
Samarkand branch of the Republican Specialized Scientific and Practical Medical Center of Oncology and Radiology
Samarkand, Uzbekistan

IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF HORMONE THERAPY IN BREAST CANCER PATIENTS BY BLOCKING ESTROGEN SYNTHESIS

ANNOTATION

The article presents the results of the evaluation of the effectiveness of adjuvant hormone therapy, conducted with aromatase inhibitors in comparison with tamoxifen in patients with breast cancer. Relapse-free survival, the risk ratio of disease recurrence in the compared groups of patients are estimated.

Key words: breast cancer, hormone therapy, aromatase inhibitors, tamoxifen.

Esterogen gormoniga sezgir sut bezi o‘smalarida gormonoterapiya asosiy davolash usullaridan biridir. Tamoksifen preparati 1971 yilda tavfsiya qilingan bo‘lib, hozirgacha sut bezi rakini ad'yuvant gormon terapiyasida, hamda sut bezi rakini tarqalgan disseminatsiya holatlarida davolash uchun asosiy preparat bo‘lib qolmoqda [2,4,6].

Hozirgi vaqtda sut bezi rakini gormonal davolashda klinik amaliyotga ko‘plab dori vositalari kirib kelmoqda. Bularga ikkinchi va uchinchi avlod aromataza ingibitorlari, yangi avlod antiestrogenlar, estrogen retseptorini regulyatorlari, molekulyar onkologiya yutuqlari natijasida siklinga bog‘liq kinazalar ingibitorlari 4/6 va hakozalar kiradi.

Sut bezi o‘smalarining paydo bo‘lishi va rivojlanishida ko‘plab omillar orasida eng muhimi endokrin muvozanatning nomutanosibligi hisoblanadi. Sut bezi raki bilan og‘rigan bemorlarda o‘smani o‘sishi, metastazlar berishishi va tarqalishida asosiy omil sifatida tuxumdonlarda, qisman buyrak usti bezlarida, shuningdek, yog‘, suyak va mushak to‘qimalarida sintez qilinadigan estrogenlardir [1,2,5].

Ayollarda jinsiy gormonlar hosil bo‘lishida asosiy ferment aromataza hisoblanadi. Aromataza sut bezi o‘smasining o‘zida hamda, mushak, yog va jigar to‘qimalarda ham aniqlanadi [4,5,12].

Aromataza fermenti sut bezi rakini gormonal davolashda ishlatiladigan preparatlar - aromataza ingibitorlari uchun farmakologik “nishon” hisoblanadi. Bu preparatlarning ta'sir qilish mexanizmi sitoxrom R-450 bir nechta fermentlarini, shu jumladan aromatazani inaktivatsiya qilishdan iborat. Aromatazaning inaktivatsiyasi esterogen gormoni hosil bo‘lishini kamayishiga olib keladi, natijada sut bezi raki o‘sishi, rivojlanishi to‘xtatiladi va o‘smani o‘zi va metastazlarida regressiya kuzatiladi.

Hozirda sut bezi rakini gormonga moyil turlarini davolashda eng ko‘p o‘rganilgan va klinik amaliyotda qo‘llaniladigan preparatlar: anastrozol 1mg (Arimideks), letrozol 2,5mg (Femara) va eksemestan 25mg (Aromazin) dori vositalari hisoblanadi. Ushbu preparatlar selektiv ta'sirga ega bo‘lib, faqat aromatazaga ta'sir qiladi va buyrak usti bezlari funktsiyasini buzilishiga olib kelmaydi [3,5,9].

Letrozol sutkada 2,5mg berilganda sut bezi raki bilan postmenopauzadagi ayollarda aromatizatsiya jarayonini 80% dan ko‘proq darajada to‘xtatadi. Ko‘p qirrali tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, letrozol bilan davolangan bemorlarda, tamoksifen qabul qilgan bemorlarga qaraganda, sut bezi raki rivojlanish xavfi sezilarli darajada past bo‘lgan va bemorlarni yashovchanligi tamoksifen guruhiga qaraganda ancha yuqori bo‘lgan [7].

Anastrazol 1mg (Arimideks) ham klinik amaliyotda keng qo‘llaniladi. Anastrozol 24 soat davomida estradiol sintezi darajasini tez pasayishiga olib keladi. Shu bilan birga, estradiol sintezi darajasini eng past qiymatlarda doimiy va stabil pasayib turishini ta'minlaydi[10].

Keyingi preparat, eksemestan 25mg (Aromazin), juda ko‘p o‘rganilgan va metastatik sut bezi rakida qo‘llaniladi. Periferik to‘qimalarda va o‘smaning o‘zida aromataza faolligini to‘liq to‘xtatib qo‘yadi. Eksemestan ikkinchi liniyadagi terapiyada femara va arimideksdan foydalangandan keyin ham samarali samarali natijalar beradi [11,13].

Shunday qilib, periferik to‘qimalarda va o‘smaning o‘zida aromataza fermentini faolligini to‘xtatish uchun aromataza ingibitorlarini qo‘llash natijasida estrogen ishlab chiqarishni kamaytirish menopauzadagi ayollarda gormonga moyil sut bezi rakini davolashda ratsional yondashuv hisoblanadi [5,8,9].

Tadqiqot maqsadi: aromataza ingibitorlari samaradorligini estrogen gormonlar sintezini to‘xtatish orqali sut bezi raki ad'yuvant gormon terapiyasida antiesterogen tamoksifen preparati bilan taqoslash.

Tadqiqot materiallari va usullari: Tadqiqot Respublika ixtisoslashtirilgan Onkologiya va Radiologiya Ilmiy-Amaliy Tibbiyot Markazi Samarqand filialida 2021 yildan 2024 yilgacha davolangan 300 nafar bemorlarni kasallik tarixi va dispanser kuzatuvi ambulator kartalari ma’lumotlariga asoslandi. Tadqiqotga esterogen gormonlarga ijobiy retseptorlarga ega bo‘lgan statusdagi 300 ta operatsiyadan keyingi postmenopauzadagi sut bezi raki bilan bemorlar ishtirok etdi. Barcha bemorlarga o‘smani trepan biopsiyasi va morfologik tekshiruvlar o‘tkazildi, shuningdek, rak jarayonning differentsiatsiya darajasi baholandi (G-gradatsiyasi). Tadqiqotga qatnashgan ayollar 46 yoshdan 85 yoshgacha bo‘lgan. Bemorlarning o‘rtacha yoshi 65,5 yoshni tashkil etdi.

Barcha bemorlar klinik, laborator, UZD, mamografiya, morfologik tekshirishlardan o‘tqazilib, kasallikni bosqichlari (TNM) qo‘yilgandan keyin birinchi etapda jarrohlik amaliyoti: radikal mastektomiya; kvadrantektomiya limfadissektsiya bilan (qo‘ltiq osti - o‘mrov osti - kurak osti) bajarildi. Ikkinchi etapda radioterapiya: sut bezlari va regionar metastaz joylarini nurlantirish gamma-terapevtik apparat yordamida amalga oshirildi. Operatsiyadan so‘ng radioterapiya regionar metastaz joylariga bir martalik doza - 2Grey; Umumiy dozada - 50Grey o‘tqazilgan. Organ saqlovchi jarrohlik amaliyoti o‘tkazgan bemorlarga, sut beziga umumiy dozasi - 50 Greygacha nur berilgan.

O‘smadagi gormon retseptorlar holati immunogistoximiyaviy tekshirishlarda ijobiy natijalar olingandan so‘ng, bemorlar ikki guruhga ajratildi.

Birinchi guruhga klassik standart antiestrogen gormoni tamoksifen ad'yuvant rejimda kuniga 20 mg dozada berildi; Ikkinchi guruhdagi bemorlarga antiestrogen gormonlar aromataza ingibitorlari: anastrozol (Arimidex) 1 mg yoki letrozol (Femara) 2,5 mg yoki eksemestan (Aromazin) kuniga 25mg berildi. Bemorlar dori vositalarini yashash joyida ambulatoriya sharoitida qabul qilishdi.

Birinchi guruhdagi bemorlarning yoshi: 49 yoshdan 84 yoshgacha, o‘rtacha ko‘rsatkich - 67,9 yosh. Ikkinchi guruhdagi bemorlarning yoshi: 46 dan 85 yoshgacha, o‘rtacha ko‘rsatkich 66,5 yosh. Bemorlar guruhlari o‘rtasida yosh bo‘yicha statistik jihatdan ahamiyatli farqlar qayd etilmadi. Ikkala guruhdagi yosh ko‘rsatgichi normal taqsimot qonuniga mos keladi (birinchi guruhda: $p = 0,21$; ikkinchi guruhda: $p = 0,17$, Shapiro-Uilk mezoni). Parametrik Stьyudent mezoni qo‘llanilishini ikkinchi sharti - umumiy dispersiya bajarilgan, $p > 0,05$, Fisher mezoni. Guruhlardagi taqsimotlarni yoshga qarab solishtirish: $p = 0,12$ (Stьyudent mezoni). Taqqoslangan guruhlardagi bemorlarda sut bezi raki jarayonining bosqichlar darajasiga qarab taqsimlanishi 1 - jadvalda keltirilgan.

Jadval.1.

Bemorlarda sut bezi rakini bosqichlar darajasida taqsimlanishi

Bosqich	Tamoksifen	Aromataza ingibitorlari
I	47	37
IIa	54	55
IIb	21	24
IIIa	4	2
IIIb	24	32

Jami	150	150

Bosqichlar o‘rtasida statistik jihatdan muhim farqlar yo‘q (p = 0,52).

Operatsiyadan so‘ng o‘smalarning gistologik tekshiruvi o‘tkazilgan. Rak jarayonini differentsiatsiyasi (G-gradatsiya) darajasi va regionar limfa tugunlardagi metastazlar xususiyati aniqlandi. Tamoksifen guruhida 21 (14%) bemorda birinchi (G1); 93 (62%) bemorda ikkinchi (G2) va 36 (24%) bemorda uchinchi (G3) gistologik differentsiatsiya darajasi kuzatildi. Aromataza ingibitorlari guruhida G1 gradatsiyasi 16 (10,7%) bemorda, G2 gradatsiyasi 93 (62%) bemorda va G3 gradatsiyasi 41 (27,3%) bemorda aniqlandi. Tadqiqotga kiritilgan bemorlar guruhlari o‘rtasida "rak jarayonining differentsiatsiyasi darajasi" mezonga ko‘ra (p=0,61, x2 mezoni) statistik jihatdan farqlanmadi.

Ad'yuvant maqsadda tamoksifen olgan 72 (48%) bemorda hosila o‘ng sut bezida joylashuvi qayd etild; 78 (52%) bemorda hosila chap sut bezida joylashgan.

Aromataz ingibitorlari bilan davolangan 84 (56%) bemorlarda rak o‘simtasi o‘ng sut bezida, 66 (44%) bemorda – chap chap sut bezida joylashgan. Ushbu mezon bo‘yicha guruhlar ham solishtirilganda: p=0,20, x2 statistik jihatdan farqlar aniqlanmadi.

Muhim prognostik belgilardan biri regionar limfa tugunlarda metastazlarning mavjudligidir. Tadqiqotimizda regionar limfa tugunlarining holatiga qarab bemorlarning taqsimlanishi (1-rasm).



N- (limfa tugunlar negativ) - 65,3%
N+ (limfa tugunlar pozitiv) - 34,7%
N- (limfa tugunlar negativ) - 60%
N+ (limfa tugunlar pozitiv) - 40%

Rasm.1. Regionar limfa tugunlarining holatiga qarab bemorlarning taqsimlanishi.

Tamoksifen qabul qilgan guruhda 52 (34,7%) bemorda pozitiv - metastaz limfa tugunlarda kuzatildi, 98 (65,3%) bemorda negativ - limfa tugunlarda metastaz kuzatilmadi. Aromataza ingibitorlari qabul qilgan guruhda 60 (40%) bemorda pozitiv - limfa tugunlarda metastaz borligi, 90 (60%) bemorda negativ - metastaz aniqlanmadi. Ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha guruhlar o‘rtasida statistik jihatdan farqlar aniqlanmadi (p=0,40, x2).

Shunday qilib, o‘rganilayotgan bemorlarning guruhlari quyidagi asosiy mezonlarga ko‘ra: bemorlarni yoshi, kasallikning bosqichi, o‘smaning differentsivtsiya darajasi va regionar limfa tugunlarning zararlanishiga qarab taqqoslanishi mumkin.

Tadqiqot natijalari va ularni muhokamasi. Bemorlarning o‘rtacha kuzatuvi 29,8 va 32,6 oyni tashkil etgan, mos ravishda (p>0,05). Kuzatish davrida tadqiqot guruhlaridagi bemorlarda kasallikning qaytalanish belgilari (retsidivlar) qayd etildi. Tamoksifen ad'yuvant maqsadda qabul qilgan bemorlarda 25 (16,7%) holatda o‘smaning progresiyasi kuzatildi. 2-jadvalda birinchi guruhdagi bemorlarda metastazlarning qayd qilinishi to‘g‘risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Jadval 2.

Ad'yuvant maqsadda tamoksifen qabul qilgan bemorlarda metastazlanish xususiyatlari

Metastazlar	Absoluyt son	%
Vitseral organlarga	9	36
Yumshoq to’qimalarga	12	48
Suyaklarga	1	4
Yumshoq to’qimalar va Vitseral organlarga	1	4
Vitseral organlar va suyaklarga	2	8
Jami	25	100

Shunday qilib, bemorlarning aksariyatida yumshoq to‘qimalarda metastazlar, shuningdek, ichki organlarning zararlanishini namoyon bo‘ldi. Suyak va vistseral metastazlarning kombinatsiyasi faqat 2 ta bemorda qayd etildi.

Ad'yuvant maqsadlarda aromataza ingibitorlarini qabul qilgan bemorlarda progressiya faqatgina 12 (8%) bemorda kuzatildi. 3-jadvalda ikkinchi guruhdagi bemorlarda rivojlangan metastazlar to‘g‘risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Jadval 3.

Ad'yuvant maqsadda aromataza ingibitorlari qabul qilgan bemorlarda metastazlanish xususiyatlari

Metastazlar	Absoluyt son	%
Vitseral organlarga	4	33,3
Yumshoq to’qimalarga	2	16,7
Suyaklarga	1	8,3

Suyaklar va yumshoq to'qbmalarga	2	16,7
Yumshoq to'qimalar va Vitseral organlarga	2	16,7
Vitseral organlar va suyaklarga	1	8,3
Jami	12	100

Bemorlarning ko'pchiligida vistseral metastazlar tashxisi qo'yilgan. Faqat 2 bemorda operatsiyadan keyingi chandiq sohasida mahalliy retsidiv paydo bo'lgan.

Shunday qilib, aromataza ingibitorlari operatsiya qilinadigan sut bezi raki bilan bemorlarda uzoq metastazlar va mahalliy retsidivlar sonini statistik jihatdan sezilarli (p = 0,035) kamaytirishga imkon beradi: 150 dan 12 (8%) va 150 dan 25 (16,7%) (2-3 jadvalga qarang).

Kasalliksiz yashovchanlik Kaplan-Meyer usuli yordamida baholandi. Ikki turdagi ad'yuvant gormon terapiyasini olgan bemorlar guruhlarida yashovchanlikni taqoslash uchun logarifmik test qo'lanildi [14,15]. Faqat kuzatish davri davomida dastlab belgilangan sxema bo'yicha davolangan bemorlar haqidagi ma'lumotlar hisobga olindi.

Ad'yuvant maqsadlarda tamoksifen qabul qilgan bemorlar guruhida 14 bemorda uning ta'siridan kelib chiqqan jiddiy nojo'ya asoratlar rivojlanishi sababli preparat to'xtatildi. Aromataza ingibitorlari guruhida hech bir bemorda nojo'ya ta'sir tufayli preparatni qabul qilish to'xtatilmadi. 4-jadvalda taqqoslangan guruhlardagi bemorlarning retsidivsiz yashovchanligi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Jadval 4.

Bemorlarning retsidivsiz yashovchanligi

Guruhlar	Bemor Soni	Yashovchanlik (%), +/- (%)					
		1 yil		2 yil		3 yil	
Tamoksifen	136	94,1	2,	87,2	2,9	75,6	4,3
Aromataza ingibitorlari	150	96,7	1,	93,9	2,0	86,5	3,1

Bemorlar guruhlarini taqqoslash natijasida aromataza ingibitorlari guruhida sut bezi raki bilan og'rigan bemorlarning 3 yillik retsidivsiz yashovchanligi tamoksifen guruhiga qaraganda statistik jihatdan sezilarli darajada (c = 0,012) yuqori ekanligi aniqlandi.

Biz tomondan, shuningdek, tamoksifen bilan antiestrogen terapiya va aromataza ingibitorlari bilan estrogen sintezini to'xtatishda paytida kasallik qaytalanishining nisbiy xavfi o'rganildi.

Ad'yuvant maqsadlarda tamoksifen olgan bemorlar guruhida kasallik progressiyasining nisbiy xavfi 2,5 baravar yuqori ko'rsatkichni tashkil qildi (5-jadval).

Jadval 5.

Kasallik progressiyasini nisbiy xavfi

Nisbiy xavf	95% ishonchli interval	P
2,48	1,25-4,94	0,010

Tamoksifen qabul qilgan guruhda mahalliy retsidiv rivojlanishini nisbiy xavfi ham yuqori edi (6-jadval).

Jadval 6.

Mahalliy retsidivlar nisbiy xavfi

Nisbiy xavf	95% ishonchli interval	P
5,96	1,31-27,2	0,021

Eksemestan (Aromazin) qabul qilgan guruhdagi uzoq metastazlarning nisbiy xavfi tamoksifen guruhidagi bilan taqoslanganda statistik jihatdan farqlar aniqlanmadi,

7-jadval.

Jadval 7.

Uzoq metastazlar paydo bo'lish nisbiy xavfi

Nisbiy xavf	95% ishonchli interval	P
1,79	0,84-3,82	0,13

Ushbu metodikani onkologik muassasalar klinik amaliyotida keng qo'llash sut bezi raki bilan bemorlarni davolash natijalarini sezilarli darajada yaxshilash mumkin bo'ladi.

Xulosalar

1. Sut bezi raki bilan bemorlarni ad'yuvant gormon terapiyasida aromataza ingibitorlarini qo'llash, antiestrogen terapiya - tamoksifen bilan taqoslaganda retsidivlar va uzoq metastazlarni statistik jihatdan sezilarli darajada kamaytirishga imkon beradi: mos ravishda 8% va 16,7%.

2. Aromataza ingibitorlari qabul qilgan guruhdagi bemorlarda mahalliy retsidivlarning rivojlanish nisbiy xavfi tamoksifen qabul qilgan guruhga nisbatan statistik jihatdan sezilarli darajada past.

3. Aromataza ingibitori va tamoksifen qabul qilgan guruhlarda uzoq metastazlarning rivojlanishi nisbiy xavfi statistik ahamiyatga ega emas.

4. Aromataza ingibitorlari qabul qilgan guruhdagi bemorlarda kasallikning qaytalanishining nisbiy xavfi (uzoq metastazlar va mahalliy retsidivlar) tamoksifen guruhiga qaraganda statistik jihatdan sezilarli darajada past.

5. Sut bezi raki bilan bemorlarni ad'yuvant gormonal terapiyasida aromataza ingibitorlari va antiesterogen tamoksifen preparati bilan taqoslaganda, aromataza ingibitorlari 3 yillik retsidivsiz yashovchanlikni statistik jihatdan sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Акрамов А.Р. Злокачественное новообразование грудной железы. Прогностические значения клинических, морфологических и молекулярно - генетических факторов. Монография. Самарканд: 2025г. Стр.152

2. Бондарь Г.В., Т.Л.Сколичяс, И.Е.Седаков. Гормонотерапия рака молочной железы. Медународный медицинский журнал. №2, 2003, Стр.108-111..

3. Воротников В.В., Р.А. Пахомова, А.В. Сойнов, А.С. Гунина, И.В. Копытич, М.Г. Цой, С.А. Абдугаффоров. Роль неоадъювантной гормонотерапии в лечении рака молочной железы: что мы знаем на данный момент? Креативная хирургия и онкология, Том 12,№3,2022, Стр.199-204.

4. Мурзина Ю.А., Демидов С.М., Демидов Д.А. Гормонотерапия - как один из методов лечения пациенток с раком молочной железы старше 70 лет. Уральский медицинский журнал. №2, (116), 2014, Стр.13-18.

5. Семиглазов В.Ф., Г.А. Дашян, В.Г. Иванов, В.С. Аполлонова, Н.Ю. Бараш, Е.К. Жильцова, К.С. Николаев,А.В. Комяхов, А.В. Петрова, Л.П. Гиголаева, Т.Ю. Семиглазова, В.Ю. Лифанова. Гормонотерапия рака молочной железы. Рекомендации для врачей по ведению пациентов с раком молочной железы. ООО «Группа ремедиум», 2017 Стр.136-167.

6. Семиглазов В.Ф., В.В. Семиглазов, Г.А. Дашян, В.Г. Иванов, А.Е. клетсель, Е.К.Жильцова, Р.В.Донских, Т.Ю. Семиглазова,Д.Е. Мацко, Ж.В.Брянцева, И.В.Никитина, Д.Е.Щедрин,Л.М. Берштейн. Эффективная фармакотерапия. 6/2013,Стр.18-23.

7. Davies C, Godwin J, Gray R et al. Early Breast Cancer Trialists' Collaborative Group (EBCTCG). Relevance of breast cancer hormone receptors and other factors to the efficacy of adjuvant tamoxifen: patient-level meta-analysis of randomised trials. Lancet, 2011, 378: 771-784.

8. Fontein DB, Houtsma D, Hille ET. Relationship between specific adverse events and efficacy of exemestane therapy in early postmenopausal breast cancer patients. Ann Oncology, 2012, 23: 3091-3097.

9. Fontein DB, Seynaeve C, Hadji P. Specific adverse events predict survival benefit in patient treated with tamoxifen or aromatase inhibitors:
An international tamoxifen exemestane adjuvant multinational trial analysis. J Clin Oncology, 2013: 2257-2264.

10. Irwin ML, Cartmel B, Gross C. Randomised trial of exercise versus usual care on aromatase inhibitor associated arthralgias in women with breast cancer: The hormones and physical exercise (HOPE) study.Breast Cancer Symposium. December 2013.San Antonio, Texas. Abstract S3-03.

11. Ma CX, Sanchez C, Gao F. A phase I study of the AKT inhibitor MK-2206 in combination with hormonal therapy in postmenopausal women with estrogen receptor positive metastatic breast cancer. Clin Cancer Res, 2016.

12. Nardone A, De Angelis C, Trivedi MV. The changing role of ER in endocrine resistance. Breast, 2015, 24(suppl 2): 60-66.

13. Osborne C, Schiff R. Estrogen-receptor biology: continuing progress and therapeutic implications. J Clin.Oncol, 2005, 23: 1616-1622.

14. Partriadge AH, LaFountain A, Mayer E. Adherence to initial adjuvant anastrozole therapy among women with early – stage breast cancer. J.Clinical Oncology, 2008, 26: 556-562.

15. Rugo HS, Vidula N, Ma C. Improving Response to Hormone Therapy in Breast Cancer: New Targets, New Therapeutic Options. Am Soc Clin Oncol Educ Book, 2016, 35: 40-54.

ISSN: 2181-0990
www.tadqiqot.uz
JOURNAL OF REPRODUCTIVE HEALTH AND URO-NEPHROLOGY RESEARCH
ЖУРНАЛ РЕПРОДУКТИВНОГО ЗДОРОВЬЯ И УРО-НЕФРОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

UDK: 618.2-06: 616-092:616.155.194.8

Axmedjanova N.I.
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Samarqand, O'zbekiston
Ismailova Z.A.
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Samarqand, O'zbekiston
Axmatova Yu.A.
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Samarqand, O'zbekiston
Izomiddinova M.K.
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Samarqand, O'zbekiston

BOLALARDA COVİD-19 FONIDA RIVOJLANGAN O'TKIR PYELONEFRITNING TAHLILLIK ASPEKTLARI

For citation: Axmedjanova N.I., Ismailova Z.A., Axmatova Yu.A., Izomiddinova M.K., Analytical aspects of acute pyelonephritis with covid-19 in children, Journal of reproductive health and uro-nephrology research 2025, vol. 6, issue 2 pp

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15478455

ANNOTATSIYA

Buyrak patologiyasi ko'proq yosh bolalarda va yuldosh kasalliklarda uchraydi. Tadqiqotning maqsadi. Bolalarda COVID-19 fonida va usiz rivojlangan o'tkir pielonefritning (O'P) klinik va laborator mezonlarining xususiyatlarini aniqlash va baholashdan iborat. Usullari. O'tkir pielonefrit bilan og'rigan 65 bolani kuzatuvchi kohort retrospektiv klinik tadqiqoti o'tkazildi. Natijalar va muhokama. O'P bo'lgan bolalarda quyidagi asosiy klinik belgilar aniqlandi: intoksikatsiya belgilari fonida 90% (27) va 100% (35) bolalarda isitma. Xulosa. Biz kasallikning klinik belgilari Covid-19 bo'lgan bemorlarda aniqroq ekanligini aniqladik, bu buyrak yallig'lanishi, qon tomirlari o'tkazuvchanligining oshishi, suyuqlik yo'qotilishi, qorin bo'shlig'i gipertenziyasi, gipovolemiya va keyingi shok. natijasida kelib chiqadigan o'tkir buyrak patologiyasida sezilarli intoksikatsiya mavjudligi bilan bog'liq.

Kalit so'zlar: COVID-19, o'tkir pielonefrit, siydikning bakteriologik profili.

Ахмеджанова Н.И.
Самаркандский Государственный медицинский университет
Самарканд, Узбекистан
Исмаилова З.А.
Самаркандский Государственный медицинский университет
Самарканд, Узбекистан
Ахматова Ю.А.
Самаркандский Государственный медицинский университет
Самарканд, Узбекистан
Изомиддинова М.К.
Самаркандский Государственный медицинский университет
Самарканд, Узбекистан

АНАЛИТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ОСТРОГО ПИЕЛОНЕФРИТА НА ФОНЕ COVID-19 У ДЕТЕЙ

АННОТАЦИЯ

Ренальная патология чаще встречалась у детей младшего возраста и у лиц с сопутствующими заболеваниями. Цель исследования — определить и оценить особенности клинико-лабораторных критерий острого пиелонефрита (ОП) у детей, развившегося на фоне COVID-19 и без него. Методы. Проведено обсервационное когортное ретроспективное клиническое исследование 65 детей с острым пиелонефритом. Результаты и обсуждение. У детей с ОП определены следующие основные клинические симптомы: лихорадка фебрильного характера у 90% (27) и у 100% (35) детей на фоне симптомов интоксикации. Заключение. Мы определили, что клинические признаки заболевания были более выраженными у больных имевших в анамнезе Covid-19, что связано с наличием более значимой интоксикации при острой почечной патологии возникающей из-за воспаления почек, повышенной проницаемости сосудов, потери жидкости, внутрибрюшной гипертензии, гиповолемии и последующего шока.

Ключевые слова: COVID-19, острый пиелонефрит, бактериологический профиль мочи.

Akhmedzhanova N.I.
Samarkand State medical University
Samarkand, Uzbekistan
Ismailova Z.A.
Samarkand State medical University
Samarkand, Uzbekistan
Akhmatova Yu.A.
Samarkand State medical University
Samarkand, Uzbekistan
Izomiddinova M.K.
Samarkand State medical University
Samarkand, Uzbekistan

ANALYTICAL ASPECTS OF ACUTE PYELONEPHRITIS WITH COVID-19 IN CHILDREN

ABSTRACT

Renal pathology was more common in young children and in individuals with concomitant diseases. The aim of the study was to determine and evaluate the features of clinical and laboratory criteria for acute pyelonephritis (AP) in children that developed against the background of COVID-19 and without it. Methods. An observational cohort retrospective clinical study of 65 children with acute pyelonephritis was conducted. Results and discussion. The following main clinical symptoms were identified in children with AP: febrile fever in 90% (27) and in 100% (35) of children against the background of intoxication symptoms. Conclusion. We found that clinical signs of the disease were more pronounced in patients with a history of Covid-19, which is associated with the presence of more significant intoxication in acute renal pathology arising from kidney inflammation, increased vascular permeability, fluid loss, intra-abdominal hypertension, hypovolemia and subsequent shock.

Key words: COVID-19, acute pyelonephritis, urine bacteriological profile.

O'tkir COVID-19 infektsiyasidan so'ng buyrak gistopatologiyasi bo'lgan kattalardagi epidemiologiya, patofiziologiya, xavf omillari va prognoziga oid ma'lumotlar hozirda yaxshi tasdiqlangan bo'lsa-da, o'tkir COVID-19 infektsiyasidan keyin bolalarda endogen buyrak patologik ko'rinishlarini o'rganishda sezilarli bo'shliq saqlanib qolmoqda [1, 3].

Bir qator Evropa mamlakatlari ma'lumotlari erkaklar va ayollar o'rtasida teng miqdordagi kasalliklarni ko'rsatdi, ammo erkaklarda og'irroq holatlar mavjud [2, 4].

Dong Y, Mo X, Xu Y, Qi X, Jiang F, Jiang Z tomonidan 287 nafar bemorda o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatdiki, Xankou kasalxonasiga yotqizilganlar, Uxan, Xitoy, COVID-19 bilan kasallangan bemorlarda o’tkir buyrak yetishmovchiligi (O’BY) bilan kasallanish (19,6%) va O’BY bo‘lmagan bemorlarga nisbatan o‘lim xavfi sezilarli darajada oshgan [16]. Bu, shuningdek, omon qolish va buyrak funktsiyasi o'rtasidagi muhim korrelyatsiyani ko'rsatadi [7, 8].

Tadqiqotning maqsadi bolalarda COVID-19 fonida va usiz rivojlangan o'tkir pielonefritning (O’P) klinik va laboratoriya mezonlarining xususiyatlarini aniqlash va baholashdan iborat.

Materiallar va tadqiqot usullari. O'tkir pielonefrit bilan og'rigan 65 bolani kuzatuvchi kohort retrospektiv klinik tadqiqoti o'tkazildi. Shuningdek, tadqiqotda 20 nafar sog'lom bola nazorat guruhi sifatida tekshirildi. Bemorlar O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligiga qarashli “Samarqand viloyati ko‘p tarmoqli bolalar tibbiyot markazi” Davlat byudjeti sog‘liqni saqlash muassasasi nefrologiya bo‘limida kuzatildi.

Tadqiqotning laborator tekshiruvlari O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining “Samarqand viloyat ko‘p tarmoqli bolalar tibbiyot markazi” davlat sog‘liqni saqlash muassasasi klinik diagnostika laboratoriyasi, “Innova” klinikasi laboratoriyasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi Immunologiya va inson genomikasi instituti markaziy ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi hamda «G’unchamed» ilmiy-tadqiqot laboratoriyasida o’tkazildi. Tekshiruv davri: 2020 yil yanvardan 2023 yil dekabrgacha. Ishtirokchilar COVID-19 anamnezida mavjudligi yoki yo'qligi asosida buyrak asoratlari uchun davolash boshlanishidan oldin turli taqqoslash guruhlariga jalb qilingan. Uchta guruh tuzildi: 1-guruhga COVID-19 anamnezida bo‘lmagan O’P bilan kasallangan 30 nafar bolalar, 2-guruhga COVID-19 fonida O’P bilan kasallangan 35 nafar bemor va 3-guruhga (nazorat guruhi) 20 nafar sog‘lom bolalar kiritilgan. Umumiy klinik siydik tahlili o'tkazildi (proteinuriya (mg / kun), leykotsituriya (ko'rish sohasidagi hujayralar), bakteriuriya (CFU / ml)); Nechiporenko bo'yicha testlar (hujayralar / ml); mikroflora uchun siydik ekmasi (>100 000 xuj./ ml).

Laboratoriya tadqiqotlaridan olingan ma'lumotlar statistik usullar yordamida qayta ishlandi. Hisob-kitoblar Excel (Microsoft Office, 2016, AQSH) va StatPlus 7 versiyasi (AnalystSoft Inc., AQSh) yordamida amalga oshirildi.

Natijalar va muhokama. Bemorlarni tanlash klinik ko'rsatmalarga muvofiq klinik va laboratoriya diagnostikasi asosida o'tkir pielonefrit tashxisini tasdiqlanishini o'z ichiga oladi. Bolalarni guruhlarga bo'lishning diagnostik mezonlari anamnezni o'rganish natijalari, bemorni ob'ektiv tekshirish, klinik va laboratoriya ma'lumotlari (shu jumladan siydikning umumiy tahlili, Nechiporenko testi, patogen aniqlangan bemorlarning siydigining bakterial ekmasi, siydikda leykotsitlarni aniqlash). O'rganilayotgan guruhlardagi bolalarda O’Pning klinik belgisi febril isitma (intoksikatsiya belgilari bilan birgalikda) edi. Ushbu ko'rinishlar siyish ritmidagi buzilishlar bilan birlashtirildi (imperativ chaqiruvlar, pallakiuriya, kamdan-kam siyish), og'riqli siyish. O'rganilayotgan O’P bilan og'rigan bolalarning anamnezida Covid-19 ni aniqlash qon zardobining IFT diagnostikasi yordamida amalga oshirildi, bu IgG (g/l) ning yuqori darajasi aniqlandi, bu anamnezda ushbu patologiyaning mavjudligini va Covid-19 remissiya bosqichining shakllanishini tasdiqladi.

2020-2023-yillarda Samarqand viloyat ko‘p tarmoqli bolalar tibbiyot markazi (SVKBITM) nefrologiya bo‘limida davolanayotgan 65 nafar o‘tkir pielonefrit (O’P) bilan og‘rigan bolalarni kuzatdik.

Bemorlar ikki guruhga bo'lingan. Birinchi guruhga Covid-19 anamnezida bo'lmagan o'tkir pielonefritli (n=65) 30 nafar bola, ikkinchi guruhga esa o'tkir pielonefrit va Covid-19 bilan kasallangan 35 nafar bemor kirdi. Qabul qilingan kundan boshlab anamnezda Covid-19 kasalligining davomiyligi 3 haftadan 2 oygacha bo'lgan.

O’P tashxisi nozologiya tasnifiga muvofiq o'rnatildi (Korovina N.A. 2002).

Tadqiqotlarimiz natijalari shuni ko'rsatdiki, O’P bilan og'rigan bemorlarimiz orasida 29 o'g'il (44,6%) va 36 qiz (55,4%) bo'lgan va shuni ta'kidlash kerakki, 4 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan O’P bilan og'rigan 13 (20%) o'g'il bolalar soni 9 (13,84%) qizlar sonidan ustundir. Holbuki, 12 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan 6 (9,23%) o'g'il bolalar (9,23%) va 6 (9,23%) o'g'il bolalar bir xil chastotada uchraydi (1-rasm).

Bizning bemorlarning asosiy kontingenti 7 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan 43 (32,5%) bolalardan iborat (1-rasm), bu yerda bemorlarning ko'pchiligi qizlar 21 (32,4%), o'g'il bolalar esa 10 (15,3%). Yosh guruhlari A.F. Tur tomonidan tavsiya etilgan bolalik davrlarining tasnifi bo'yicha tuzilgan. Qiz/o‘g‘il nisbati 1,24:1 edi.



Rasm -1. O'P bilan kasallangan bolalarning yoshi va jinsiga qarab taqsimlanishi



Rasm. 2. O'P bilan kasallangan bemorlarning yil fasllari bo'yicha taqsimlanishi

Covid -19 anamnezida bo'lmagan o'tkir piyelonefritning faol bosqichi bo'lgan bemorlarning kasalxonaga yotqizilish cho'qqisi mavsumga qarab qish-bahor davrida kuzatilgan, bu o'tkir respirator virusli infektsiyalarning tarqalishi, bolaning tanasining gipovitaminozi bilan bog'liq bo'lib, bu yilning shu davriga xos bo'lgan. Kasalxonaga Covid -19 anamnezida o'tkazgan O'Pli bolalar esa ko'proq yoz mavsumida yotqizilgan, bu holat ushbu davrda Covid-19 bilan kasallanish darajasi yuqori bo'lishi bilan bogliq (rasm-3).



Rasm. 3. Covid-19 tufayli o'tkir piyelonefrit bilan kasallangan bemorlarning yil fasllari bo'yicha taqsimlanishi

Klinik, laboratoriya va funktsional tadqiqot usullari natijalarini tahlil qilish asosida piyelonefritning ikkilamchi shaklining dismetabolik nefropatiya fonida tez-tez uchraganligi (n=42 (64,6%)) aniqlandi. Kasallikning o'tkir kechishi bilan og'rigan bemorlarning atigi 7,7 foizida (5) uning rivojlanishiga sabab bo'lgan sabablar aniqlanmagan, qolgan 27,7% (18) bemorlarda O'Pning birlamchi shakli aniqlangan.

Yallig'lanish jarayonining faollik darajasi tana haroratining ko'tarilishi, umumiy intoksikatsiya, dispeptik hodisalar, dizurik kasalliklar va og'riq sindromi kabi klinik belgilarning og'irligiga qarab belgilanadi. Bemorlarimiz orasida yallig'lanish jarayonining birinchi faolligi aniqlanmagan. Biz O'P bilan og'rigan, kasallikning 1-aktivlik darajasi bilan kasallangan bemorlarni kasalxonaga yotqizmadik, ular ambulator sharoitda davolandilar va shuning uchun umumiy ro'yxatga kiritilmadi, chunki COVID -19 bilan kasallangan bolalar faqat 2 va 3-bosqich faolligiga ega edi.

Bemorlarning 18,5 foizida (12) ikkinchi faollik darajasi, 81,5 foizida (53) uchinchi faollik darajasi aniqlangan. Yallig'lanish jarayonining 2-darajali faolligi kasallikning klinik belgilarining mo"tadil namoyon bo'lishi bilan tavsiflanadi: leykotsitoz (>12x10 / l), chapga siljish bilan neytrofiliya, EChT (>20 mm / soat), C-reaktiv oqsil ++, "siydik sindromi" va buyrak funktsiyasining o'zgarishi aniqlangan.

Patologik jarayonning faolligining 3-darajasi kasallikning aniq klinik belgilari, qondagi doimiy o'zgarishlar (>18x10/l), chapga siljish bilan neytrofiliya, EChT ortishi (>30 mm/soat), C-reaktiv oqsilning ++++ gacha, siydikda sezilarli leykotsituriya, proteinuriya, bakteriuriya, mikrogematuriya va buyraklarning funktsional holatining barqaror buzilishlari bilan tavsiflanadi.

O'P bo'lgan bolalarda quyidagi asosiy klinik belgilar aniqlandi: intoksikatsiya belgilari fonida 90% (27) va 100% (35) bolalarda isitma. Bu alomatlar 33,3% (10) va 48,5% (17) bolalarda 33,3% (9) va 25,7% (10) hollarda dizurik buzilishlar (imperativ chaqiriqlar, pollakiuriya, kam siyish) bilan birga uchragan. Bemorlarning 46,6% (14) va 71% (25) da mos ravishda ichak buzilishi (ich qotishi yoki diareya) kuzatilgan; Bemorlarning 50% (15) va 54% (19) da, mos ravishda, qorin og'rig'i qayd etilgan, biz buni bolaning tanasining intoksikatsiyasi bilan bog'laymiz (1-jadval).

Jadval-1

Etiologik omilga qarab O'Pning klinik belgilari

Shikoyatlar	1- guruh: O'P bolalari (n=30)	2- guruh: O'P bolalari Covid-19 fonida (n=35)
Ekstrarenal		
Bosh og'rig'i	16 (53%)	23 (65,7%)
Zaiflik, charchoq	20 (66,6%)	24 (68,5%)
Dispeptik hodisalar*	14 (46,6%)	25 (71%)
Febril isitma	27 (90%)	35 (100%)
Yomon ishtaha	22 (73,3%)	27 (77%)
Qorin og'rig'i	15 (50%)	19 (54%)
Renal		
Ertalab shishgan ko'z qovoqlari	22 (73%)	28 (80%)
Gipertenziyaga moyillik*	10 (33%)	28 (80%)
Buyrak sohasidagi og'riq*	17 (56,6%)	23 (65,7%)
Siydik chiqarishning buzilishi:	10 (33,3%)	17 (48,5 %)
Imperativ undovlar	10 (33,3%)	17 (48,5 %)
Kamdan-kam hollarda siydik chiqarish	10 (33,3%)	17 (48,5%)
Og'riqli siyish	9 (33,3%)	10 (25,7%)

Eslatma: * – p<0,05, 2-guruh – Covid-19 fonida APli bolalar.

Biz kasallikning klinik belgilari Covid-19ni boshdan kechirgan bemorlarda aniqroq ekanligini aniqladik, bu buyrak yallig'lanishi, qon tomirlari o'tkazuvchanligining oshishi, suyuqlik yo'qotilishi, qorin bo'shlig'i gipertenziyasi, gipovolemiya va keyingi shok natijasida kelib chiqadigan o'tkir buyrak patologiyasida sezilarli intoksikatsiya mavjudligi bilan bog'liq.

O'P bilan kasallangan bolalarning kasallik tarixida Covid-19 ni aniqlash uchun qon zardobining IFA- diagnostikasi o'tkazildi, bu IgG darajasi yuqori bo'lganda, bu kasallik tarixida ushbu patologiyaning mavjudligini va Covid-19 remissiya bosqichining shakllanishini tasdiqlaydi (2-jadval).

Jadval-2

O'tkir pielonefritli bolalarning IFA- diagnostikasi natijalari

Ko'rsatkichlar	Covid-19 fonida O"P bo'lsa (n=35)	
	O'g'illar	qizlar
Immunoglobulin G darajasi, g/l	53,5±13,2 p≤0,001	50,8±15,6 p≤0,001
Sog'lomlarda	17,65±3,97	12,26±4,88

Eslatma: p – O"Pning faol bosqichida o'rganilayotgan ko'rsatkich va sog'lom bolalardagi ko'rsatkich o'rtasidagi farqlarning ishonchliligi.

XULOSA

1. Biz kasallikning klinik belgilari Covid-19 anamnezida bo'lgan bemorlarda aniqroq ekanligini aniqladik, bu buyrak yallig'lanishidan kelib chiqadigan o'tkir buyrak patologiyasida ko'proq sezilarli intoksikatsiya mavjudligi, qon tomirlari o'tkazuvchanligining oshishi, suyuqlik yo'qotilishi, qorin bo'shlig'i gipertenziyasi, gipovolemiya va keyingi shok bilan bog'liq.
2. Covid-19 fonida O'P bilan og'rigan bemorlarning 100 % va Covid-19 anamnezida bo'lmagan O'P bilan kasallangan bolalarning 40 % yallig'lanish jarayoni faolligining uchinchi darajasi qayd etilgan.
3. Covid-19 anamnezida bo'lmagan O'Pning faol bosqichi bo'lgan bemorlarni kasalxonaga yotqizishning eng yuqori darajasi mavsumga qarab qish-bahor davrida kuzatildi, kasalxonaga Covid -19 anamnezida o'tkazgan O'Pli bolalar esa ko'proq yoz mavsumida yotqizilgan, bu holat ushbu davrda Covid-19 bilan kasallanish darajasi yuqori bo'lishi bilan bogliq.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Axmedjanova N.I., Maxmudov X., Xusenova F. Новые методы диагностики и лечения хронического пиелонефрита у детей. European Science Review Austria/ -Vienna, 2019. -№9-10.–P.26-29.
2. Vyalkova A.A. Инфекция мочевой системы у детей в XXI веке // Orenburg tibbiy byulleteni.– 2016. – № 2 (14). – С. 49–56.
3. 3. Zaxarova N.B., Grajdanov R.A. Определение биомаркеров повреждения почечной паренхимы в моче пациентов с хроническим пиелонефритом методами ИФА и масс спектрометрии // Tibbiy immunologiya.- 2019. - № 2. - С. 341-350.

4. Smirnova N.N. Современные биомаркеры повреждения почек в педиатрии // Nefrologiya. - 23(4). -2019. -C. 112-118. https://doi.org/10.24884/ 1561-6274-2019-23-4-112-118.

5. Alobaidi R, Morgan C, Basu RK, Stenson E,Featherstone R, Majumdar SR, et al. Associations between fluid balance and outcomes in critically Ill children: a protocol for a systematic review and meta-analysis. Can J Kidney Health Dis. 2018 Mar 1; 4(3): 2054358117692560.

6. Basiratnia M., Derakhshan D., Yeganeh B.S., Derakhshan A. Acute necrotizing glomerulonephritis associated with COVID-19 infection: Report of two pediatric cases. Pediatr. Nephrol. 2021, 36, 1019–1023.

7. Chin J. Expert consensus on diagnosis and treatment of 2019 novel coronavirus (2019 - nCoV) infection with acute kidney injury. Nephrol. 2020;3. https://doi.org/10.3760/cma.j.cn441217-20200222-00035.

8. Duell B.L., Carey A.J., Tan C.K., Cui X., Webb R.I., Totsika M., et al. Innate transcriptional networks activated in bladder in response to uropathogenic Escherichia coli drive diverse biological pathways and rapid synthesis of IL-10 for defense against bacterial urinary tract infection // J Immunol. - 2012. № 188. P.781-792.

ISSN: 2181-0990
www.tadqiqot.uz
JOURNAL OF REPRODUCTIVE HEALTH AND URO-NEPHROLOGY RESEARCH
ЖУРНАЛ РЕПРОДУКТИВНОГО ЗДОРОВЬЯ И УРО-НЕФРОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

UDC: 578.834.11-618.3. 576.8.097.34

Isroilova Guljannat Pardabayevna
3-son akusherlik va ginekologiya kafedrasi assistenti
Samarqand Davlat Tibbiyot universiteti
Samarkand, Uzbekistan

HOMILADOR AYOLLARDA VITAMIN D YETISHMOVCHILIGI, UNING ASORATLARI HAMDA TAHLILLARI

For citation: Isroilova Guljannat Pardabayevna, Vitamin d deficiency in pregnant women, its complications and analyses, Journal of reproductive health and uro-nephrology research 2025, vol. 6, issue 2 pp

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15478459

ANNOTATSIYA

Vitamin D tanqisligi butun dunyo bo'ylab, ayniqsa homilador ayollar orasida keng tarqalgan muammo hisoblanadi. Ushbu tadqiqotda vitamin D yetishmasligining homiladorlik davridagi salbiy oqibatlari (preeklampsiya, gestatsion diabet, erta tug'ish, homilaning kam vaznli) va ularning oldini olish usullari o'rganildi. Retrospektiv tadqiqot usuli yordamida 300 nafar homilador ayolning vitamin D darajasi, ovqatlanish odatlari va homiladorlik natijalari tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, vitamin D tanqisligi bo'lgan ayollarda asoratlar 2-3 baravar ko'p kuzatilgan ($p<0,01$). Homiladorlikdan oldin va homiladorlik davrida vitamin D miqdorini nazorat qilish, ovqatlanishni optimallashtirish va profilaktik maqsadda vitamin D qabul qilish tavsiya etish bilan xulosalandi.

Kalit so'zlar: Vitamin D, homiladorlik, erta tug'ish, suyak metabolizmi, immunitet, asoratlar.

Исроилова Гулжаннат Пардабаевна
ассистент кафедры акушерства и гинекологии №3
Самаркандский Государственный медицинский университет
Самарканд, Узбекистан

ДЕФИЦИТ ВИТАМИНА D У БЕРЕМЕННЫХ, ЕГО ОСЛОЖНЕНИЯ И АНАЛИЗЫ

АННОТАЦИЯ

Дефицит витамина D является распространенной проблемой во всем мире, особенно среди беременных женщин. В данном исследовании изучались негативные последствия дефицита витамина D во время беременности (преэклампсия, гестационный диабет, преждевременные роды, низкая масса тела при рождении) и способы их предотвращения. С помощью метода ретроспективного исследования были проанализированы уровни витамина D, пищевые привычки и исходы беременности у 300 беременных женщин. Результаты показали, что осложнения встречались в 2–3 раза чаще у женщин с дефицитом витамина D ($p < 0,01$). Сделан вывод о том, что рекомендуется контролировать уровень витамина D до и во время беременности, оптимизировать питание и рекомендовать прием витамина D в профилактических целях.

Ключевые слова: Витамин D, беременность, преждевременные роды, метаболизм костной ткани, иммунитет, осложнения.

Isroilova Guljannat Pardabayevna
assistant of the department of obstetrics and gynecology No.3
Samarkand State Medical University
Samarkand, Uzbekistan

VITAMIN D DEFICIENCY IN PREGNANT WOMEN, ITS COMPLICATIONS AND ANALYSES

ABSTRACT

Vitamin D deficiency is a widespread problem worldwide, especially among pregnant women. This study investigated the negative consequences of vitamin D deficiency during pregnancy (preeclampsia, gestational diabetes, premature birth, low birth weight) and methods for their prevention. Using a retrospective study method, vitamin D levels, dietary habits and pregnancy outcomes of 300 pregnant women were analyzed. The results showed that complications were observed 2-3 times more often in women with vitamin D deficiency ($p<0.01$). It was concluded that it is recommended to monitor vitamin D levels before and during pregnancy, optimize nutrition, and take vitamin D for preventive purposes.

Key words: Vitamin D, pregnancy, preterm birth, bone metabolism, immunity, complications.

Vitamin D - bu yog'da eriydigan vitamin bo'lib, asosan quyosh nuri ta'sirida terida ishlab chiqariladi va organizmda kaltsiy-fosfor almashinuvini tartibga soladi. U homilador ayollar uchun ayniqsa muhim, u nafaqat onaning suyak to'qimalarini mustahkamlaydi, balki homilaning skelet tizimining shakllanishida ham hal qiluvchi rol o'ynaydi. Kaltsiferol etishmovchiligi oqibatida immunitetning pasayishi virusli infektsiyalarga moyillikni keltirib chiqaradi. Nafas olish yo'llari zaiflashadi, ularning shikastlanishida bronxit va

pnevmoniya rivojlanadi. Inson tanasida natriy tuzlari to'planishi mumkin, ularning ortiqcha miqdori qon bosimini oshiradi. Kalsiferol bunga faol ravishda qarshi turadi va uning etishmovchiligi arterial gipertenziyaga tahdid soladi. Vitamin etishmasligi sog'lom uyquga ta'sir qiladi, bemorda kechalari uyqusizlik va buning natijasida kun davomida letargiya va yomon ishlash rivojlanadi. Asab tizimining buzilishi mumkin, kayfiyat o'zgarishi, depressiya kuzatiladi. Bu serotonin ishlab chiqarishning buzilishi bilan bog'liq. Yurak-qon tomir tizimi ishidagi muvaffaqiyatsizliklar: yurak urishi, og'riq, ritmning o'zgarishi, hamda soch to'kilishi va milklardan qon ketishi kuzatilishi mumkin.

Bugungi kunda vitamin D tanqisligi sog'liqni saqlashni global muammosiga aylangan. Ayniqsa, quyosh nuri kam mintaqalarda yashovchi ayollar, butun tanasini yopib yuradigan ayollar (yopiq kiyim kiyadiganlar), semizlik bilan og'riganlar va to'laqonli ovqatlanish odatlariga ega bo'lmagan homilador ayollar yuqorida nazarda tutilgan guruhiga kiradi. Tadqiqotning ahamiyati: Vitamin D tanqisligi homiladorlikdagi asoratlar bilan bog'liqligini aniqlash. Homilador ayollarda vitamin D darajasini oshirishning samarali usullarini taklif qilish. Asosiy simptomlar

Maqsad va vazifalar:

- Homilador ayollarda vitamin D tanqisligining tarqalish darajasini baholash.
- Vitamin D yetishmasligi bilan homiladorlik asoratlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash.
- Vitamin D darajasini oshirishning klinik va profilaktik usullarini tavsiya qilish.

Tekshirish usullari

Tadqiqot turi: Kogort usulida retrospektiv tekshirish.

Namuna hajmi: homilador ayolning 300 nafarida tekshirildi (I-trimesterda ro'yxatga olingan). *Guruhlar:* Asosiy guruh (n=150): 25(OH)D <20 ng/mL (tanqislik).

Nazorat guruhi (n=150): 25(OH)D ≥ 30 ng/mL (o'rtacha daraja).

Ma'lumot to'plash usullari

Biokimyoviy tahlillar: Qondagi 25-gidroksivitamin D [25(OH)D] darajasi. Kaltsiy, fosfor, paratireoid gormon (PTH) darajalari.

Klinik kuzatish: Preeklampsiya, gestatsion diabet, erta tug'ish holatlari qayd etildi.

So'rovnomalar: Ovqatlanish odatlari, quyoshga chiqish chastotasi. Statistik tahlil SPSS 26.0 dasturida t-test, ANOVA, x^2-test qo'llanildi. $P<0,05$ statistik ahamiyatga ega deb qabul qilindi.

Natijalar

1. Vitamin D tanqisligining tarqalishi

- Homilador ayollarning 52% (156/300) da vitamin D tanqisligi aniqlangan (<20 ng/mL).
- Eng yuqori tanqislik darajasi qish mavsumida (65%) kuzatildi.

2. Vitamin D tanqisligi va homiladorlik asoratlari

Asorat turi	Tanqislik guruhi (%)	Nazorat guruhi (%)	P qiymati
Preeklampsiya	24%	8%	<0,01
Gestatsion diabet	20%	7%	<0,05
Erta tug‘ish (<37 hafta)	18%	5%	<0,01
Kam vaznli bola (<2500 g)	15%	4%	<0,01

3. Homilaning rivojlanishiga ta'siri Vitamin D tanqisligi bo'lgan guruhda homilaning o'rtacha vazni 2700±300 g, nazorat guruhida esa 3300±250 g ($p<0,001$).

Vitamin D ning homiladorlikdagi ahamiyati

Vitamin D nafaqat suyak metabolizmi uchun muhim, balki immunitet tizimini mustahkamlaydi va yallig'lanishga qarshi kurashadi. Homiladorlik davrida bu vitamin homilaning miya va yurak rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, u platsenta funktsiyasini yaxshilash orqali homilaning o'sishini qo'llab-quvvatlaydi.

Risk guruhlari Quyidagi guruhdagi homilador ayollarda vitamin D tanqisligi ehtimoli yuqori: Kam quyoshli mintaqalarda yashovchilar. O'ranib kiyinadigan ayollar. Semizlik bilan og'riganlar. Vitamin D ga boy bo'lmagan ovqatlanish odatlariga ega bo'lganlar.

Profilaktika usullari Quyosh nuri: Kuniga 15-20 daqiqa quyoshga chiqish (teriga to'g'ridan-to'g'ri nur tushishi kerak).

Ovqatlanish: Yog'li baliqlar (losos, sardina), tuxum sarig'i, tabiiy sut mahsulotlari, vitamin D qo'shilgan yog'lar iste'mol qilish.

Dori-darmonlar: Homiladorlik davrida kunlik 600-2000 IU vitamin D preparatlari tavsiya etiladi (shifokor ko'rsatmasiga binoan).

Diagnostika Vitamin D darajasini aniqlash uchun qondagi 25(OH)D darajasi o'lchanadi:

Tanqislik: <20 ng/mL.

Yetarli daraja: 30-50 ng/mL.

Ortiqcha daraja: >50 ng/mL.

Global muammolar Vitamin D tanqisligi butun dunyo bo'ylab, ayniqsa kam quyoshli mamlakatlarda keng tarqalgan. Masalan, Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlarida homilador ayollarning 60-80% da vitamin D yetishmovchiligi aniqlangan.

Homiladorlikdan oldingi tashxis Homiladorlikni rejalashtirish davrida vitamin D darajasini tekshirish va kerak bo'lganda to'ldirish homiladorlikdagi asoratlarning oldini olishga yordam beradi.

Ijtimoiy masalalarga ta'siri Vitamin D tanqisligi homiladorlikdagi asoratlar orqali ijtimoiy-iqtisodiy yukni oshirishi mumkin (masalan, erta tug'ilgan bolalarga g'amxo'rlik qilishning qiyinlashishi).

Xulosa

Vitamin D tanqisligi homiladorlikdagi asoratlar (preeklampsiya, gestatsion diabet, erta tug'ish) va homilaning kam vaznli bo'lishi bilan bog'liq. Homilador ayollarning yarmidan ko'pida vitamin D yetishmovchiligi aniqlangan, bu global muammo ekanligini ko'rsatdi.

Tavsiyalar: Homiladorlikning dastlabki bosqichlarida vitamin D darajasini tekshirish.

Profilaktika: Kuniga 15-20 daqiqa quyoshda sayr qilish. Vitamin D ga boy ovqatlar (yog'li baliqlar, mol va qoy jigari, tuxum sarig'i, tabiy sut va sut maxsulotlari, qoraqat, quritilgan anjir, petrushka) iste'mol qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Palacios, C., & Gonzalez, L. (2014). Is vitamin D supplementation during pregnancy beneficial. *Current Opinion in Obstetrics and Gynecology, 26*(6), 438–444.
2. Rostami, M., Tehrani, F. R., Simbar, M., Bidhendi Yarandi, R., & Hosseinpanah, F. (2017). Effectiveness of prenatal vitamin D deficiency screening and treatment program: A stratified randomized field trial. *Journal of Clinical Endocrinology & Metabolism, 102*(8), 2936–2948.
3. AK Islomovna, JG Ergashevna, IG Pardabaevna, Prevention of Vertical Transmission of Infection in Pregnant Women with Hepatitis B, JournalNX, 141-144
4. IG Pardabaevna, Changes in the reproductive system of girls with vitamin D deficiency, Eurasian scientific herald 5, 170-172
5. IG Pardabaevna, SA Khayrillayevich, Optimization of the outcome of pregnancy and childbirth in women with the threat of premature childbirth, E-conference globe, 52-54

6. G Isroilova, K Azimova, M Amonova, The effect of vitamin D deficiency on the formation of the reproductive system in girls, Theoretical & applied science, 381-385
7. G Isroilova, S Abdurahimov, The socio-political activity of the youth of Uzbekistan, International conference on multidisciplinary research and innovative technologies 231-235
8. Isroilova Guljannat Pardabaevna. (2022). What is Vitamin D Deficiency Dangerous and How to Diagnose it. The Peerian Journal, 5, 180–182. https://www.peerianjournal.com/index.php/tpj/article/view/124
9. Isroilova Guljannat Pardabaevna, Abdulkhakimova Mohinur. (2022). Causes of preterm labor. E Conference Zone, 133-135. http://econferencezone.org/index.php/ecz/article/view/725
10. Primova H. A., Sakiyev T. R., and Nabiyeva S. S. 2020. Development of medical information systems, Journal of Physics: Conference Series, 1441(1), 012160 doi: https://doi.org/10.1088/1742- 6596/1441/1/012160.

ISSN: 2181-0990
www.tadqiqot.uz
JOURNAL OF REPRODUCTIVE HEALTH AND URO-NEPHROLOGY RESEARCH
ЖУРНАЛ РЕПРОДУКТИВНОГО ЗДОРОВЬЯ И УРО-НЕФРОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

UDK: 618.1.046-614.2.1

Negmadjanov Baxodur Boltayevich
t.f.d. professor
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Samarqand, O'zbekiston
Shavkatov Xasan Shavkatovich
assistant.PhD
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Samarqand, O'zbekiston

JINSIY A'ZOLAR PROLAPSINING JARROHLIK DAVOLASHIDA YUZAGA KELADIGAN ASORATLARNI OLDINI OLISH VA ULARNI DAVOLASH

For citation: Negmadjanov Baxodur Boltayevich, Shavkatov Xasan Shavkatovich, Prevention and management of complications arising from surgical treatment of genital prolapse, Journal of reproductive health and uro-nephrology research 2025 vol 6 issue 2, pp

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15478476

ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy maqolada Samarqand shahar 3-son tug'ruq majmuasi va Samarqand shahar "Samarqand Doctor Shifo Baxt" xususiy klinikasi ginekologiya bo'limiga murojat qilib kelgan 125 nafar ayollarda uchraydigan jinsiy a'zolar prolapsi (tushishi va chiqib ketishi) holatlari, ularni jarrohlik yo'li bilan davolash usullari hamda bu muolajalar natijasida yuzaga keladigan asoratlarning oldini olish va ularni samarali davolash masalalari yoritilgan. Mavzuda zamonaviy jarrohlik uslublari, ularning afzallik va kamchiliklari, shuningdek, operatsiyadan keyingi reabilitatsiya davri muhim jihatlar sifatida ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda ilg'or klinik tavsiyalar, statistik ma'lumotlar va holat tahlillari asosida tayanilgan holda, asoratlarning oldini olishda individual yondashuv va profilaktik choralar muhimligi alohida ta'kidlangan. Ushbu ish amaliy sog'liqni saqlash tizimi mutaxassislari uchun foydali bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: Jinsiy a'zolar prolapsi, tos a'zolari prolapsi, jarrohlik davolash, operatsiyadan keyingi asoratlar, profilaktika, reabilitatsiya, individual yondashuv, ginekologiya, tos sohasidagi buzilishlar.

Негмаджанов Баходур Болтаевич
д.м.н., профессор
Самаркандский государственный медицинский университет
Самарканд, Узбекистан
Шавкатов Хасан Шавкатович
ассистент, PhD
Самаркандский государственный медицинский университет
Самарканд, Узбекистан

ПРОФИЛАКТИКА И ЛЕЧЕНИЕ ОСЛОЖНЕНИЙ, ВОЗНИКАЮЩИХ ПРИ ХИРУРГИЧЕСКОМ ЛЕЧЕНИИ ПРОЛАПСА ГЕНИТАЛИЙ

АННОТАЦИЯ

В данной научной статье освещены случаи пролапса (опущения и выпадения) половых органов у 125 женщин, обратившихся в родильный комплекс №3 города Самарканда и в гинекологическое отделение частной клиники «Самарканд Доктор Шифо Бахт». Рассматриваются методы хирургического лечения данных состояний, а также меры по профилактике и эффективному лечению возникающих послеоперационных осложнений. В рамках темы подробно анализируются современные хирургические методики, их преимущества и недостатки, а также значимость послеоперационного реабилитационного периода. Исследование основано на современных клинических рекомендациях, статистических данных и анализе клинических случаев. Особое внимание уделяется важности индивидуального подхода и профилактических мероприятий в предупреждении осложнений. Настоящая работа может быть полезной для специалистов практического здравоохранения.

Ключевые слова: Пролапс половых органов, пролапс тазовых органов, хирургическое лечение, послеоперационные осложнения, профилактика, реабилитация, индивидуальный подход, гинекология, нарушения тазового дна.

Negmadjanov Baxodur Boltayevich
Doctor of Medical Sciences, Professor
Samarkand State Medical University

Samarkand, Uzbekistan
Shavkatov Xasan Shavkatovich
Assistant, PhD
Samarkand State Medical University
Samarkand, Uzbekistan

PREVENTION AND MANAGEMENT OF COMPLICATIONS ARISING FROM SURGICAL TREATMENT OF GENITAL PROLAPSE

ANNOTATION

This scientific article highlights cases of genital prolapse (descent and prolapse of pelvic organs) observed in 125 women who sought medical care at Samarkand City Maternity Complex No. 3 and the gynecology department of the private clinic "Samarkand Doctor Shifo Baxt." The article discusses surgical treatment methods for these conditions, as well as measures for preventing and effectively managing postoperative complications. The study examines modern surgical techniques, their advantages and disadvantages, and emphasizes the importance of the postoperative rehabilitation period. Based on advanced clinical guidelines, statistical data, and case analyses, the research underscores the significance of individualized approaches and preventive strategies in minimizing complications. This work may be valuable for healthcare professionals in practical medicine.

Key words: Genital prolapse, pelvic organ prolapse, surgical treatment, postoperative complications, prevention, rehabilitation, individualized approach, gynecology, pelvic floor disorders.

KIRISH: Jinsiy a'zolar prolapsi — bu ko'p sababli (polietiologik) kasallik bo'lib, u ayollarning chanoq a'zolari topografiyasining (joylashuvining) o'zgarishi bilan xarakterlanadi. Buning natijasida bemorning mehnatga layoqati pasayadi va hayot sifati yomonlashadi [1; 4; 3]. NHANES (National Health and Nutrition Examination Survey) ma'lumotlariga ko'ra, ayollarning 10 foizida jinsiy a'zolar prolapsining bir necha shakli aniqlanadi [5]. Jinsiy a'zolar prolapsining tarqalish chastotasi turli manbalarga ko'ra 5% dan 76% gacha bo'lgan keng diapazonda farqlanadi [6; 7]. Bunday katta tafovut mamlakatlar o'rtasidagi farqlar bilan izohlanadi, jumladan: aholining yashash darajasi , milliy xususiyatlar [8] va xavf omillarining farqli bo'lishi va yana bir qancha tashqi va ichki omillarga bog`liq.

Aholining global miqyosda qarib borishi jinsiy a'zolar prolapsi bilan kasallanganlar sonining ortishiga olib keladi. 30–39 yoshdagi ayollar orasida bilan kasallanish ko'rsatkichi o'rtacha har 1000ta ayolga 1,7 nafarni tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkich 60–69 yoshdagi bemorlar orasida har 1000ta ayolga 13,2 nafargacha oshadi, eng yuqori ko'rsatkich esa 70–79 yosh oralig'ida kuzatilib, 100ta ayolga 18,6 nafarga yetadi [9]. Shuni takidlash joyizki bu statistic ko`rsatgich faqat o`z salomatligi yomonlashganligi sababli tibbiyot muassasalariga murojat qilgan bemorlar o`rtasida aniqlangan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: Oxirgi yillar adabiyotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, ichki jinsiy a'zolar prolapsi eng muhim muammolardan biri bo'lib, jarrohlik davolashdan keyingi retsidiv sonining yuqoriligi ayollarning hayot sifatiga va ijtimoiy hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu patologiyalarda birlamchi jarrohlik amaliyotidan keyin retsidivlar uchrashi dastlabki 3 yil ichida 33% dan 61,3% gacha kuzatiladi (*Негмаджанов Б.Б., Шавкатов Х.Ш . Жинсий аъзолар пролапси асорати ва рецидиви кузатилган аёлларда жарроҳлик даволашни оптималлаштириш. Автореферат-2022йил.*).

Jarrohlik usuli bilan tuzatish qiyin sanaladigan va klinik amaliyotda juda keng tarqalgan ichki jinsiy a'zolar yetishmovchiligi va qin cho'ltog'ining prolapsi hisoblanadi (Musin I.I. 2017; Chan C.M. 2011). Hozirgi vaqtda qin cho'ltog'ining gisterektomiyadan keyingi prolapsini davolash va oldini olishda ko'plab transvaginal, laparotomik, kombinirlangan hamda sintetik materiallar bilan qin cho'ltog'ini fiksatsiya qilish usullari mavjud. So'nggi vaqtlarda qin cho'ltog'ini fiksatsiya qilishda ko'plab sintetik materiallardan foydalanilmoqda. Sintetik materiallardan foydalanish nafaqat ijobiy natijalar, balki asoratlarning yangi-yangi turlarining paydo bo'lishiga olib kelmoqda (Radzinskiy V.E. 2018).

Chanoq a'zolari prolapsi bilan shug'ullanayotgan ko'plab jarrohlar sintetik materiallar qo'llanilganidan so'ng asoratlarning 5%–35% gacha ko'payganligini ko'rsatmoqdalar (S. Hagen, D. Starc, C. Glazener 2014; Seykina V.A. 2017). Asoratlardan eng ko'p uchraydigani bu qin shilliq qavatining eroziyasi va sintetik material qo'yilgan soha asoratlaridir. Sintetik materiallardan keyingi uzoq muddatli asoratlardan biri bu qin sinexiyasi bo'lib, ya'ni jarohat sohasining to'liq bitmasligi oqibatida giper trofik yaralarning paydo bo'lishiga olib keladi (Gvozdev M.Yu. 2013).

Mamlakatimizda yetuk olimlar tomonidan jinsiy a'zolar prolapsini tashxislash va davolash (Negmadjanov B.B. 2019., Shavkatov X.SH), tarqalishi va bashorat qilishni o'rganish borasidagi tadqiqotlar diqqatga sazovordir. Biroq, davolashning eng maqbul jarrohlik usulini tanlash, asoratlarni oldini olishga qaratilgan jarrohlik amaliyoti ishlab chiqilmagan.

Maqsad: Jinsiy a'zolar prolapsi kuzatilgan ayollarda jarrohlik amaliyotida kuztiladigan asoratlar va residivlarni kamaytirishdan iborat.

Tadqiqot usuli va materiali: Ilmiy tadqiqotimizga genital prolaps bilan murojaat qilgan jami 125 nafar bemor olindi. Bemorlarning yosh ko'rsatkichi 46 dan 68 yoshgacha bo'lgan ko'lamni o'z ichiga oldi, o'rtacha yosh — 55 yosh. Tekshiruvlarimiz davri 2020 yildan 2024 yilgacha bo'lgan 4 yilni tashkil etdi. Tadqiqot o'tkaziladigan barcha bemorlar II guruhga ajratildi: I-guruh (asosiy) — 67 nafar (53,6%) bemorlar. Ular genital prolapsning turli xil asoratlari va birlamchi jarrohlik amaliyotidan keyingi retsidivlari bilan bo'lgan bemorlarni tashkil qiladi.

II-guruh (taqqoslash) — 58 nafar (46,4%) bemor. Ularda jinsiy a'zolar prolapsini bartaraf etishda an'anaviy usulda abdominal va transvaginal jarrohlik amaliyoti bajarilgan.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi: Tadqiqot o'tkaziladigan barcha bemorlarimiz ikki guruhga ajratildi. **I-guruh (asosiy)** — 67 nafar (53,6%) bemorlar. Bu guruhga genital prolapsning turli xil asoratlari va birlamchi jarrohlik amaliyotidan keyingi retsidivlari bilan bo'lgan bemorlar kiritilgan. Bu bemorlarda biz taklif qilgan jarroxlik amaliyoti o`tkazilgan. **II-guruh (taqqoslash)** — 58 nafar (46,4%) bemor. Bu bemorlarda jinsiy a'zolar prolapsining og'ir darajalari aniqlangan bo'lib, ularga an'anaviy usulda abdominal va transvaginal jarrohlik amaliyoti bajarilgan.Operativ davolashga ko'rsatmalar sifatida quyidagilar qayd etilgan:Bachadon va qin devorlarining tushishi I–II darajasi bilan 17 nafar (25,3%) bemor;Bachadonning tushishi va chiqib qolishi III–IV darajasi bilan 28 nafar (41,93%) bemor;Jinsiy a'zolar prolapsi va qo'shni a'zolar asoratlari bilan 22 nafar (32,8%) bemor;

Biz tomonidan tadqiqot doirasidagi har ikki guruhda ham kasallikning retsidivlanishi, ya'ni birlamchi jarrohlik amaliyotidan keyingi jinsiy a'zolar prolapsining qaytalanishi va uning yuzaga kelish vaqt oralig'i tahlil qilindi. Biz kasallik retsidivi yuzaga kelish vaqtini quyidagi uchta guruhga ajratdik: **1-guruh** — kasallik retsidivi 1 yildan 3 yilgacha bo'lgan oralig'ida yuzaga kelgan, klinik belgilar "erta" namoyon bo'lgan; **2-guruh** — retsidiv 3 yildan 5 yilgacha bo'lgan davrda paydo bo'lgan, klinik belgilar "sekin" namoyon bo'lgan;Unga ko'ra, bemorlar orasida:1-guruhda 22 nafarida (21,56%) kasallik belgilarining erta namoyon bo'lishi kuzatilgan;2-guruhda bu ko'rsatkich 45 nafar (44,1%) bo'lib, kasallik belgilarining sekin namoyon bo'lishi qayd etilgan; Qolgan 31 nafar (30,38%) bemorda esa kasallik retsidiv ko'rinishi kech namoyon bo'lgan.



Jinsiy a’zolar prolapsi keyingi bosqichlarida, ya’ni III–IV darajalarida, urogenital va anorektal disfunksiya oqibatida qinning normal topografiyasi va biozenozining buzilishi tufayli yuzaga keladigan jinsiy a’zolar prolapsi va prolaps bilan bog‘liq boshqa qo‘shimcha asoratlar kuzatiladi. Bular qatoriga bachadon bo‘yni yallig‘lanish kasalliklari (servitsit), qin devori va bachadondagi trofik “dekubitus” yaralari kiradi. Bundan tashqari, bachadon bo‘yni elongásiyasi, surunkali endoservitsit yoki bu asoratlarning ikki va undan ortiq holatlarda birgalikda uchrashi ham kuzatilmoqda.

Расм 1.Бачадон “ декубитус” яраси

Расм 2.Қин трофик яраси

Расм 3.Бачадон буйни элонгацияси



Расм 4.Бачадон буйни эндоцервицити

Tadqiqotimiz doirasidagi bemorlar orasida jinsiy a’zolar prolapsiga qo‘shimcha asoratlar o‘rganilganda, asosiy guruhda quyidagi holatlar aniqlandi: 19 nafarida (28,35%) bachadon “dekubitus” yarasi, 21 nafarida (31,34%) bachadon bo‘yni elongatsiyasi, 9 nafarida (13,43%) qin shilliq qavati yaralari, 17 nafarida (25,37%) bachadon bo‘yni yallig‘lanish kasalliklari. Ambulator tayyorgarlik bosqichida bunday bemorlarga odatda turli xil malhamlar va antibiotik terapiya buyuriladi. Shu munosabat bilan, operatsiyadan oldin bemorlarga bir kurs terapevtik davolash muolajalari o‘tkaziladi.

Xulosa: O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, jinsiy a’zolar prolapsi, ayniqsa uning III–IV darajalari nafaqat anatomik tuzilmalar o‘zgarishi, balki turli klinik asoratlar va hayot sifatining sezilarli darajada pasayishi bilan kechadi. Jarrohlik davolashdan keyingi retsidivlar, ayniqsa sintetik materiallardan foydalanilgan hollarda, bemorlar orasida keng tarqalgan bo‘lib, bu davolash usullarini takomillashtirish zaruratini ko‘rsatadi. Taklif qilingan jarrohlik usuli (qin cho‘ltog‘ini mustahkamlashning takomillashtirilgan modifikatsiyasi asosida bachadonning transvaginal ekstirpatsiyasi) asosiy guruh bemorlarida operatsiyadan keyingi asoratlar va retsidiv

holatlarining kamayishiga xizmat qildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ushbu yondashuv yordamida bemorlarning umumiy hayot sifati, ijtimoiy moslashuvchanligi va reproduktiv salomatlik ko‘rsatkichlari ijobiy tomonga o‘zgardi. Shuningdek, operatsiyadan oldin olib borilgan terapevtik tayyorgarlik, ayniqsa yallig‘lanish jarayonlarini bartaraf etishga qaratilgan malham va antibiotik terapiyasi, bemorlarning jarrohlik amaliyotiga tayyorlik darajasini oshirdi hamda kechikkan asoratlar sonini kamaytirdi. Ushbu ilmiy tadqiqot asosida jinsiy a’zolar prolapsining samarali davosi uchun individual yondashuv, mos keluvchi jarrohlik texnika tanlovi va operatsiyadan oldingi to‘g‘ri tayyorgarlik muhim omillar sifatida e’tirof etilishi lozim.

Foydalinilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Пролапс гениталий: взгляд на проблему / Э. К. Баринова, И. М. Ордиянц, Д. Г. Арютин [и др.] // Акушерство и гинекология. Новости. Мнения. Обучение. — 2020. — Т. 8. — № 3 (29). — С. 128–131.
2. Салимова, Л. Я. Хирургическое лечение пролапса гениталий влагалищным доступом: Автореф. дис. … докт. мед. наук; 14.01.01 / Л. Я. Салимова. — Москва, 2012. — 26 с.
3. Dieter, A. A. Epidemiological trends and future care needs for pelvic floor disorders / A. A. Dieter, M. F. Wilkins, J. M. Wu // Current Opinion in Obstetrics and Gynecology. — 2015. — Vol. 27. — № 5. — P. 380–384.
4. Female sexual functioning in women with a symptomatic pelvic organ prolapse; a multicenter prospective comparative study between pessary and surgery / L.R. Van der Vaart, A. Vollebregt, B. Pruijssers [et al.] // The Journal of Sexual Medicine. — 2022. — Vol. 19. — № 2. — P. 270–279.
5. Symptomatic pelvic organ prolapse in middle-aged women: a national matched cohort study on the influence of childbirth / S. Åkervall, J. Al-Mukhtar Othman, M. Molin [et al.] // American Journal of Obstetrics and Gynecology. — 2020. — Vol. 222. — № 4. — P. 1–14.
6. Сивов, Е. В. Генитальный пролапс. Анализ нерешенных задач (литературный обзор) / Е. В. Сивов, В. В. Ковалев, Ж.С. Олейникова // Уральский медицинский журнал. — 2019. — Т. 15. — № 183. — С. 72–77.
7. International urogynecology consultation chapter 1 committee 2: Epidemiology of pelvic organ prolapse: prevalence, incidence, natural history, and service needs / H. W. Brown, A. Hegde, M. Huebner [et al.] // International Urogynecology Journal. — 2022. — Vol. 33. — № 2. — P. 173–187.
8. Decisions to use surgical mesh in operations for pelvic organ prolapse: a question of geography? / E. K. Nüssler, E. Nüssler, J. K. Eskildsen [et al.] // International Urogynecology Journal. — 2019. — Vol. 30. — № 9. — P. 1533–1539.
9. Устюжина, А. С. Влияние пролапса тазовых органов на качество жизни женщин / А. С. Устюжина, С. П. Пахомов, О. Б. Алтухова // Современная наука: актуальные проблемы теории и практики. Серия: естественные и технические науки. — 2021. — № 6. — С. 238-240.

ISSN: 2181-0990
www.tadqiqot.uz
JOURNAL OF REPRODUCTIVE HEALTH AND URO-NEPHROLOGY RESEARCH
ЖУРНАЛ РЕПРОДУКТИВНОГО ЗДОРОВЬЯ И УРО-НЕФРОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

UDK 618.3-089.888.61

Narkulova Soxiba Uktamovna
Stajor-assistant
Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti
Samarqand, O'zbekiston

MUDDATIDAN OLDINGI TUG'RUQ XAVF OMILLARI

For citation: Narkulova Soxiba Uktamovna, Risk factors of preterm birth, journal of reproductive health and uro-nephrology research 2025 vol 6 issue 2, pp

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15478493

ANNOTATSIYA

Muddatidan oldingi tug'ruq — akusherlikda onalik va perinatal o'lim ko'rsatkichlarini oshiruvchi dolzarb muammo bo'lib, uning erta aniqlanishi profilaktik choralarni ko'rishda muhim o'rin egallaydi. Tadqiqotning maqsadi — homiladorlikning turli bosqichlarida relaksin darajasini hisobga olgan holda, muddatidan oldin tug'ruq xavfini erta prognozlash imkoniyatlarini baholashdir. Tadqiqotda 105 nafar homilador ayol ishtirok etib, ularning klinik va laborator ko'rsatkichlari (TMI, gemoglobin, eritrotsitlar, leykotsitlar, IL-6, ferritin, prolaktin, relaksin) tahlil qilindi. Natijalarga ko'ra, hayz sikli xususiyatlari, somatik va endokrin patologiyalar, shuningdek, relaksin va prolaktin darajalari erta tug'ruq xavfi bilan statistik bog'liqlikda ekanligi aniqlandi. Ushbu omillarni kompleks baholash muddatidan oldin tug'ruqni oldini olishda muhim rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar: Erta tug'ilish, xavf omillari, yallig'lanish belgilari, ferritin, interletkin-6, prolaktin, relaksin.

Наркулова Сохиба Уктамовна
Стажёр-ассистент
Самаркандский Государственный Медицинский Университет
Самарканд, Узбекистан

ФАКТОРЫ РИСКА ПРЕЖДЕВРЕМЕННЫХ РОДОВ

АННОТАЦИЯ

Преждевременные роды являются одной из актуальных проблем акушерства, способствующей увеличению материнской и перинатальной заболеваемости и смертности. Ранняя диагностика данного состояния имеет важное значение для своевременной профилактики. Цель исследования — оценка возможности раннего прогнозирования риска преждевременных родов с учётом уровня релаксина на различных этапах беременности. В исследовании приняли участие 105 беременных женщин, у которых были проанализированы клинико-лабораторные показатели (ИМТ, гемоглобин, эритроциты, лейкоциты, IL-6, ферритин, пролактин, релаксин). Результаты показали достоверную взаимосвязь между данными биомаркерами и риском преждевременных родов. Комплексная оценка этих факторов может служить эффективной диагностической основой для профилактики преждевременных родов.

Ключевые слова: преждевременные роды, факторы риска, воспалительные маркеры, ферритин, интерлейкин-6, пролактин, релаксин.

Narkulova Soxiba Uktamovna
Intern Assistant
Samarkand State Medical University
Samarkand, Uzbekistan

RISK FACTORS OF PRETERM BIRTH

ABSTRACT

Early identification of risk factors is crucial for effective prevention strategies. This study aims to assess the potential for early prediction of preterm birth risk by evaluating relaxin levels at different stages of pregnancy. A total of 105 pregnant women participated in the study, with clinical and laboratory parameters analyzed, including BMI, hemoglobin, erythrocytes, leukocytes, IL-6, ferritin, prolactin, and relaxin. The findings revealed a significant correlation between these biomarkers and the risk of preterm birth. A comprehensive assessment of these indicators may serve as a valuable diagnostic tool in the prevention of preterm delivery.

Key words: preterm birth, risk factors, inflammatory markers, ferritin, interleukin-6, prolactin, relaxin.

Kirish: Muddatidan oldin tug'ruqlar zamonaviy tibbiyotda hal etilishi kerak bo'lgan eng dolzarb masalalardan biridir. Bunday tug'ruqlar chaqaloqlar va onalar o'limining yuqori darajasiga sabab bo'ladi va bu butun jamiyatga iqtisodiy va ijtimoiy zarar keltiradi. Muddatidan oldin tug'lishning rivojlanishiga turli omillar, jumladan genetik faktorlar, atrof-muhit omillari va gormonal o'zgarishlar ta'sir qiladi. Erta tug'ilishning sabablarini aniqlash va oldini olish uchun ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu jarayonlarda yallig'lanish jarayonlari, immun mexanizmlar va gormonlar, xususan, relaksin va prolaktin, katta ahamiyatga ega bo'ladi. Shunday qilib, muddatidan oldin tug'ruqlarni oldini olishning samarali usullarini ishlab chiqish, salbiy reproduktiv oqibatlarni kamaytirishga yordam beradi. Bu tadqiqotlardan ko'rinib turibdiki, muddatidan oldingi tug'ruqni oldini olish uchun samarali usullarni ishlab chiqish, salbiy reproduktiv oqibatlarning chastotasini sezilarli darajada kamaytirishga yordam beradi. Ko'plab ilmiy ishlar erta tug'ilishning sabablarini genom darajasida aniqlashga va progesteronga

yuqori sezuvchanlikni o‘rganishga qaratilgan. Yallig‘lanish bilan bog‘liq gen polimorfizmi, erta tug‘ilishning rivojlanishida eng ko‘p o‘rganilgan va keng ko‘lamli dalillarga ega bo‘lgan omillardan biridir. Immun tizimi mexanizmlari, muddatidan oldin tug‘ilish jarayonini, shu jumladan miometrining kontraktil faolligini oshirishda ishtirok etadi [4, 5]. Ba'zi tadqiqotlar, uyqu buzilishlari va yallig‘lanish reaksiyasining muddatidan oldin tug‘ruqlar rivojlanishidagi ahamiyatini ta'kidlaydi [6, 7]. Hozigi kunda C-reaktiv oqsil, ferritin va relaksin muddatidan oldin tug’ruq xavfini prediktori[13] hisoblanadi. Relaksin, homiladorlik davrida, hayz davrining lutein bosqichidan boshlanib, tug‘ilishgacha bo‘lgan vaqt davomida tartibga soluvchi endokrin funksiyalarni bajaradi. Uning qon zardobidagi eng yuqori kontsentratsiyasi homiladorlikning birinchi trimestrida qayd etiladi va ikkinchi trimestrga o‘tgan sari asta-sekin kamayadi. Relaksinning sut bezlariga ta'siri haqida farazlar mavjud [14, 15], bu esa prolaktin darajasining erta tug‘ilishdagi rolini o‘rganish zaruratini yuzaga keltiradi. Mavjud ilmiy manbalarni tahlil qilish natijasida aniqlanishicha, relaksin va prolaktin gormonlarining erta tug‘ruq rivojlanishiga ko‘rsatadigan birgalikdagi ta’siri hali yetarlicha o‘rganilmagan. Shu munosabat bilan, muddatsiz va o‘z vaqtida tug‘ruq qilgan ayollarning umumiy va reproduktiv anamnezini, irsiyat omillarini, relaksin hamda prolaktin darajalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni, shuningdek, ekstragenital va ginekologik kasalliklarning mavjudligini kompleks tarzda o‘rganish dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi — erta tug‘ruqning muhim diagnostik belgilari va omillarini aniqlash, hamda ularning asosida erta tug‘ilishni oldindan prognozlash imkonini beruvchi matematik modelni yaratish istiqbollarini tahlil qilishdan iborat.

Materiallar va tadqiqot usullari. Mazkur tadqiqot erta yoki vaqtidan oldin tug‘ruq qilgan 105 nafar homilador ayol ishtirokida, korellyatsion va qiyosiy tahlil metodlari asosida amalga oshirildi. Tadqiqotga jalb etish mezonlari quyidagicha belgilandi: 18 yoshdan 45 yoshgacha bo‘lgan, tabiiy yo‘l bilan homilador bo‘lgan ayollar, homiladorlik muddati 22 haftadan 36 hafta 6 kungacha bo‘lgan, tug‘ilishi qog’onoq pufagining muddatidan oldin yorilishi bilan boshlanadigan erta tug‘ruq holatlari yoki yozma roziligi asosida ro‘y bergan muddatli tug‘ruqlar. Tekshirishdan chetlashtirish mezonlariga esa: 18 yoshdan kichik yoki 45 yoshdan katta bo‘lgan ayollar, ko‘p homilali homiladorliklar, yordamchi reproduktiv texnologiyalar natijasida homilador bo‘lganlar, ona yoki homilada rivojlanish nuqsonlari mavjudligi, og‘ir ekstragenital kasalliklar, OIV infeksiyasi, shuningdek, onada onkologik yoki autoimmun kasalliklar mavjudligi kiritildi.Kiritish va chiqarib tashlash mezonlariga muvofiq 85 nafar homilador ayol tanlab olindi, ular ikki guruhni tashkil etdi: 1-guruh (n=55) – muddatidan oldin tug‘ilgan va 2-guruh (n=50) – o‘z vaqtida tug‘ilgan. Barcha tadqiqotlar o‘z vaqtida yoki muddatidan oldin tug‘ilgan ayollar O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi Samarqand shahar 1-son tug‘ruq kompleksida tibbiy ko‘rikdan o‘tkazildi.

Ikkala guruhda ham umumiy, somatik va ginekologik anamnez, shuningdek, hayz davrining shakllanishi va faoliyati o‘rganildi. So‘rov usulidan foydalanib, homilador ayollarning bo‘yi, vazni va reproduktiv tarixini qo‘shimcha ravishda tahlil qildik. Tadqiqotga kiritilgan barcha bemorlarda quyidagi ko‘rsatkichlar aniqlandi: leykotsitlar soni (x 10^9/l), neytrofillar (%), eritrotsitlar (x 10^12/l), gemoglobin darajasi (g/l) (SYSMEX XN-1000 gematologiya analizatori), ferritin (mcg/l) (immunoassay tizimi), prolaktin (mIU/L) (ADVIA Centaur XP Immunoassay tizimi), relaksin (pg/ml) (ELISA), IL-6 (pg/l) (Caltag Laboratories, AQSH).

